

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
“SHARQ TILLARINI O‘QITISH METODIKASI VA PEDAGOGIKA”
KAFEDRASI

“PEDAGOGIKA”

fanidan

MA‘RUZA MATNI

Ta‘lim sohalari:	120000	- Gumanitar fanlar
	230000	- Iqtisod
Ta‘lim yo‘nalishlari:	5120100	– Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)
	5120100	– Filologiya va tillarni o‘qitish (Xitoy filologiyasi)
	5120200	– Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo‘yicha)
	5120300	– Tarix (sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)
	5120300	– Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi)
	5120800	– Sharq falsafasi va madaniyatshunoslik
	5120700	– Jahon siyosati (Mintaqalar bo‘yicha)
	5231000	– Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)
	5231000	– Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Xitoy Xalq Respublikasi)

TOSHKENT – 2018

Ma'ruza matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 20__ yil “__” _____ dagi _____- son buyrug'i bilan tasdiqlangan fanning namunaviy dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Zohidova D.A.–“Pedagogika va psixologiya” kafedrasini mudiri, p.f.n.

Taqrizchilar: Shayusupova A.A. TDSHI “Pedagogika va psixologiya” p.f.n., dots
Sharifboyeva X.Y. TAYLQEL “Kasbiy ta`lim” kafedrasini dots.p.f.n.

Fanning Ma'ruza matni Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Kengashining
_____ 20____ yildagi _____- son majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

MUNDARIJA

Ma'ruzalar matni
Mavzu №1. Zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning mohiyati.
Mavzu №2. O'quv faoliyatni tashkil qilish shakllari. Didaktika.
Mavzu №3. Ta'lim berish usullari, shakllari va vositalari.
Mavzu №4. Pedagogik texnologiyalar
Mavzu №5. Ta'lim mazmuni. DTS xaqida tushuncha
Mavzu №6. Shaxs rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi
Mavzu №7. O'quv tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari
Mavzu №8. Ma'rifiy tizimlarni boshqarish
Mavzu №9. Korreksion maxsus pedagogika
Mavzu №10. KTMD da zamonaviy pedagog-o'qituvchiga qo'yilgan talablar
Amaliy mashg'ulot mavzulari
Mavzu №1. Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyliigi
Mavzu №2. O'quv faoliyatni tashkil qilish shakllari. Didaktika.
Mavzu №3. Ta'lim berish usullari, shakllari va vositalari. Pedagogik texnologiyalar.
Mavzu №4. Shaxs rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi
Mavzu №5. O'quv tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari. Oilada tarbiya asoslari
Mavzu №6. Ma'rifiy qadriyatlar va maqsadlar. O'zbek pedagogikasida ma'rifiy qadriyatlar.
Mavzu №7. Ma'rifiy tizimlarni boshqarish
Mavzu №8. Korreksion maxsus pedagogika
Mavzu №9. KTMD zamonaviy pedagog-o'qituvchiga qo'yilgan talablar
Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari
Glossariy
Ilovalar

MA'RUZALAR MATNI
1-MAVZU: ZAMONAVIY TA'LIM TARBIYA VA UNING MOHIYATI

Reja:

1. Inson bilimlarining ko'pqirraligi va turlari, olam va dunyoqarash. Ob'ektiv va sub'ektiv borliqni ilmiy bilish, bilimlarni empirik va nazariy darajalari
2. Pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Pedagogika fanida ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va maorif tushunchalari.
3. Pedagogika fanining maqsadi va vazifalari, fanning ilmiy tadqiqot usullari va uni boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

Tayanch so'z va iboralar: inson, shaxs, individ, dunyoqarash, ong, olam, bilim va diniy e'tiqod, falsafiy kontseptsiyalar, ob'ektiv va sub'ektiv borliq, ijtimoiy-gumanitar, shaxsiy va kasbiy yuksaltirish, bilish, rivojlanish, ma'rifat, akmeologik yondoshuv.

1. Inson bilimlarining ko'pqirraligi va turlari, olam va dunyoqarash. Ob'ektiv va sub'ektiv borliqni ilmiy bilish, bilimlarni empirik va nazariy darajalari.

«Falsafa» tushunchasining kelib chiqishi. Har qanday noma'lum so'z mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun yuzaga kelganini aniqlashdan boshlash o'rinli bo'ladi. **«Falsafa» tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin.** Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan avlodga o'tuvchi bilim va inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Pifagor ham, qadimgi davrning boshqa faylasuflari ham dastlab «falsafa» tushunchasiga uning keyinchalik paydo bo'lgan va mohiyat e'tibori bilan, falsafani «barcha fanlar podshosi» darajasiga ko'targan ma'nosidan boshqacharoq ma'no yuklaganlar. Ammo ilk faylasuflar o'zlarini donishmand deb hisoblamaganlar va donolikka da'vo qilmaganlar, zero, o'sha davrda keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga o'tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng so'nggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bo'lgan bashoratgo'ylar, kohinlar va oqsoqollar e'tirof etilgan. Ularning so'zlari shak-shubhasiz va birdan-bir to'g'ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, qadimgilar fikriga ko'ra, izlanuvchi, donishmandlik muxlisi bo'lishi, e'tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki o'z aqliga tayanib, ijodiy yo'l bilan, shu jumladan boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo'lgan. Biroq, insonning dunyo va o'ziga bunday munosabat darhol yuzaga kelgani yo'q. Insonning tabiatga qarshilik ko'rsatish, mavjudlik vositalarini yaratish va ko'paytirish qobiliyatlari rivojlangunga va o'sgunga, buning natijasida etarli tajriba va bilimlar to'plangunga, odamlar aqli ko'p sonli savollarga javob izlash uchun etarli darajada yuksalgunga qadar insoniyat uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Shu bois falsafaning mohiyatini, shuningdek uning paydo bo'lish sabablari va sharoitlarini tushunish uchun gapni inson dunyoqarashidan boshlash lozim. Nima uchun? Shuning uchunki, falsafa dunyoqarashning asosiy tarixiy shakllaridan biri hisoblanadi. Falsafa haqida gapirish – inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va Erda paydo bo'lish tarixi haqida gapirish demakdir. Bu erda biz hali kam o'rganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini topishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida echilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, inson nima uchun, qaerdan, qaysi sabablarga ko'ra paydo bo'lgan, degan savolga aniq, umumiy e'tirof etilgan javob hanuzgacha mavjud emas. Xuddi shuningdek, aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borligida mavjudligi ob'ektiv borliqning bir parchasi, ayrim hodisasimi?, degan savol ham hali o'z javobini topganicha yo'q. Biroq, insoniyat tarixi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar nuqtai nazaridan ayrim masalalar

mavjud bo'lib, ular xususida olimlar va mutaxassislar ma'lum bir to'xtamga kelganlar. Xususan, boy tarixiy material, arxeologiya fani olgan daliliy ma'lumotlari, shuningdek boshqa fanlarning metodlari bilan olingan natijalar (masalan, jinlar, foydali qazilmalar yoshini aniqlash va sh.k.)ni e'tiborga olgan holda, ishonch bilan inson sayyoramizda hayotning tadrijiy (evolyutsion) rivojlanishi mahsulidir, deb qayd etish mumkin. Hozirgacha mavjud bilimlar oddiy mehnat qurollarini yasagan **insonsimon mavjudotlarning** (lot. homo **habilis** – **uquvli odam**) qadimgi manzilgohlari taxminan 3-5 mln yil oldin paydo bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Arxeologik va ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan 1,5 mln yilni tashkil etadi. **Homasapiens, ya'ni aqlli odamlar tipi** atigi 40-60 ming yil oldin vujudga keldi. Insonda ong paydo bo'lib, u ijtimoiy mavjudot sifatida uzil-kesil shakllanganidan beri, mutaxassislar fikricha, uning asosiy xususiyatlarida jiddiy o'zgarishlar yuz bergani yo'q, ya'ni u hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaydi. Ong paydo bo'lishi esa, ilmiy tasavvurlarga muvofiq, inson tarixiy rivojlanishining odam miyasi o'sib borayotgan mehnat faolligi va verbal (nutq orqali) muloqot ta'sirida o'ta rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tushunadigan darajaga etgan davri bilan bog'lanadi. Shunday qilib, inson tushunchalarga ta'rif berish, mulohazalar bildirish va mushohadalar yuritish yo'li bilan sodda, lekin so'zning to'la ma'nosida aqliy ish olib bora boshladi. Dunyoqarashning mohiyati. Ayni shu davrdan boshlab insonning ancha rivojlangan dunyoqarashi shakllangani haqida va umuman to'plangan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, vujudga kelgan qadriyatlar, o'zi va o'zini qurshagan dunyo haqidagi tasavvurlar majmui sifatidagi odamlar dunyoqarashi to'g'risida ishonch bilan so'z yuritish mumkin.

Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy yoki empirik dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining qismlarga ajralmagan, tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti va faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori va aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi. To'liqroq, kengroq ta'rif beradigan bo'lsak, dunyoqarash – insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek odamlarning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir. Shu tariqa ta'riflanadigan dunyoqarash faqat insonga xos bo'lib, bu unda shakllangan ong va oqilona faoliyat mavjudligi bilan bog'liqdir. Bunda inson nafaqat tushunchalar yaratish va mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish va qoidalarni ta'riflash qobiliyatini kasb etadi, balki tayyor bilimdan yangi bilim olish uchun foydalana boshlaydi. Insonning bunday faoliyatini, uning ijodiy faolligini tavsiflovchi aql odamzot va jamiyat evolyutsiyasini jadallashtirishning qudratli omiliga aylanadi va pirovardida insonni hayvondan ajratish imkonini beruvchi asosiy belgi sifatida amal qiladi. Dunyoqarashda shaxsning roli. Aql paydo bo'lishi bilan inson o'zini fikrlovchi mavjudot sifatida anglay boshlaydi, unda o'z «meni» va o'zgaralar haqida tasavvuri shakllanadi va rivojlanadi. Shu tariqa u o'zini va o'zini qurshagan borliqni anglaydi, o'zi va boshqa odamlarni, o'zi va tashqi muhitni farqlaydi, ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan dunyoning yangi va yangi jihatlarini idrok etadi. Bunday qarashlar insonning o'zi va o'zini qurshagan borliq haqidagi tasavvurlari majmui sifatida shakllanadigan dunyoqarash negizini tashkil etadi. Bunda inson o'ziga ma'qul va noma'qul narsalarni farqlaydi, baholar beradi, ustuvorliklar tizimini yaratadi va muayyan maqsadlarga erishishda tegishli tarzda ish ko'radi. Shunday qilib, dunyoqarashda bilish, qadriyatlarga munosabat va xulq-atvorni belgilash funktsiyalari mujassamlashadi. Bunda bilish funktsiyasi ayniqsa muhimdir, chunki u insonda qiziqish uyg'otuvchi barcha savollarni, shuningdek muayyan yo'l bilan topuvchi javoblarni o'z ichiga oladi. Bilish odamlar dunyoqarashini boyitadi va kengaytiradi, u jamiyatning rivojlanishiga qarab yanada teranroq va mazmunan boyroq bo'lib boradi. Ammo dunyo juda rang-barang bo'lib, muttasil o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi, qoniqarli javoblarga ega bo'lmagan savollar esa, uzil-kesil javob berish mumkin bo'lgan savollarga qaraganda, hech shubhasiz, ko'proqdir. Shu boisdan muammolarga nisbatan muayyan tarzda yondashadigan har bir odamning dunyoqarashi, savollari

va javoblari doim shaxsiy o'ziga xoslik bilan ajralib turadi va hech bo'lmasa shu sababga ko'ra boshqa odamlar dunyoqarashiga hech qachon o'xshamaydi. Dunyoqarashning o'ziga xosligi va betakrorligi unda intellektual asos bilan bir qatorda emotsional va ruhiy asoslarning uzviy bog'liqligi va ularning jamuljam holda har bir inson uchun mutlaqo muayyan, individual xususiyatlar sifatida amal qilishidir. Intellektual, emotsional va ruhiy asoslar iroda bilan uyg'unlikda e'tiqodlar – odamlar faol qabul qiladigan, ularning ong darajasi va hayotdagi mo'ljallariga mos keladigan qarashlarni yuzaga keltiradi. Har qanday dunyoqarashning yana bir elementi shubha bo'lib, u dunyoqarashni dogmatizm, ya'ni biryoqlama, notanqidiy fikrlash, u yoki bu qoidani shak-shubhasiz haqiqat deb qabul qilishdan asraydi. Dogmatizmning qarama-karshisi skeptitsizm bo'lib, bunda shubha mutlaqlashadi, fikrlashning asosiy omiliga aylanadi, bilish va borliqni idrok etishning bosh tamoyili sifatida amal qiladi. Dunyoqarashning tuzilishi dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.

Dunyoni sezish – bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir. Bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni go'yoki ranglarga bo'yaydi, uning obrazini sub'ektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi. Dunyoni idrok etish – bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir. Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi. Dunyoni tushunish – insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqealar va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir. Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish nafaqat insonga, balki hayvonlarga ham xos bo'lsa, dunyoni tushunish esa faqat odamlarga xos xususiyatdir.

2. Pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Pedagogika fanida ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat va maorif tushunchalari.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan barcha ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy xayotimizga tub isloxotlar ro'y bera boshladi. Jumladan, ta'lim-tarbiya tizimi, uning maqsad va vazifalari, mazmuni qayta ko'rib chiqildi, unga tegishli davlat xujjatlari qabul qilindi.

Prezidentimiz o'z nutqlarida ta'kidlaganlaridek, xar qanday diyonatli ota-ona o'z farzandi oldidagi burchini quyidagicha belgilab oladi: **«yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib, savodini chiqarish, ilmi, kasb-xunarli qilish, boshiniikki va uyli-joyli qilish»**. Barchaga tushunarliki bu - xayotiy zarurat. Keksa avlod yosh avlodga o'z tajribalarini yetkazishi, ularni ertangi xayotga tayyorlashi lozim.

Xaqiqatdan xam bola dunyoga kelar ekan, o'z zamonasining jamiyat rivojlanganlik darajasiga ko'tarilishi, oldida turgan ijtimoiy tarixiy tajribalarni egallashi, xayotda o'z o'rnini topishi, milliy taraqqiyotda faol ishtirok etishi, boshqacha qilib aytganda ta'lim-tarbiya olishi zarur. Kelajak–yoshlarniki. O'zbekistonning xar tomonlama taraqqiy etishi ko'p jixatdan yoshlarga, ularning barkamol avlod bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Shuning uchun xam yoshlar ta'lim-tarbiyasiga davlatimiz, xalqimiz, xar bir ota-ona, o'qituvchi va tarbiyachilar jiddiy e'tibor berishlari lozim bo'lmoqda.

Aslini aytganda, ta'lim-tarbiya kishilik jamiyati paydo bo'lganidan buyon mavjuddir.

Ibtidoiy jamoa davrida ta'lim-tarbiyaga kuyidagilar kirgan. Yashash uchun zarur bo'lgan maxsulotlarni qo'lga kiritish jarayonida yosh avlodga to'plangan ko'nikma va malakalar berib borilgan: o'g'il bolalar juda erta erkaklar bilan xar xil ovlarga borishar edi, qizlar oziq-ovqat tayyorlashga, idish-tovoq, koplarni tayyorlashga yordam berar edilar. Tarbiya bevosita mexnat bilan bog'liq xolda berib borilgan.

Quldorchilik davriga kelib quldorning bolasiga beriladigan tarbiya bilan qullarning bolasiga beriladigan tarbiya o'rtasida tafovut vujudga keldi. Bu davrga kelib ta'lim-tarbiyaning kamol topishini belgilaydigan qonun-qoidalar, urf-odatlar tizimi shakllandi va taraqqiy etdi.

O'qituvchi-tarbiyachi faoliyati bilan shug'ullanuvchi kasb egalari, maktablar paydo bo'la boshladi.

Feodalizm jamiyati davriga kelib ta'lim-tarbiya mazmuni xayotda aloxida yuqori darajaga erishdi. Dexqonchilik, chorvachilik, katta-katta yer maydonlarini boshqarish ko'plab bilim talab eta boshladi. Ilm-fan, madaniyat, san'at taraqqiy etdi, vujudga keldi. Ayniqsa islom dinining kirib kelishi jamiyatning ma'naviy xayotiga tub o'zgarish yasadi. Bu orada o'zbek xalq pedagogikasi shakllandi va o'z tarbiyaviy vazifasini o'tadi. O'sha davr ta'lim-tarbiyasi ta'siri ostida Markaziy Osiyoda Al-Xorazmiy, Beruniy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Buxoriy kabi ko'plab allomalar yetishib chiqdilarki, ularni aytib ado qilib bo'lmaydi.

Xozirgi pedagogika fani jaxon pedagogikasining yetakchi bir qismi xisoblanib, pedagogika fani tarixi bilan mustaxkam bog'likdir. Pedagogika tarixi zsa pedagogika fanining tarmoqlaridan biridir. Ilmlar tarkibini ishlab chiqish bilan faylasuflardan tashqari xar xil yunalishdagi ilm namoyondalari shug'ullangan. Shu bilan birga pedagogika fanining tarkibini ishlab chiqish necha yillardan beri davom etib kelmokda. Ilmlarni turkumlashda boshqa fanlar bilan birga pedagogika fani xam xisobga olingan. Lekin uni fan sifatida aniqlashda olimlarning qarashlari bir xil bulmagan.

Pedagogika fanini mustaqil fan sifatida ajratishga xarakat qilganlardan biri *Freensns Bekkon (1561—1626)* bo'lib, u pedagogikaning tarbiya nazariyasi qismini falsafa fani tarkibiga kiritgan. Natijada pedagogika fani ikkita (falsafa va ta'lim berish nazariyasi) xar xil sinflar turkumiga kiritilgan. Shuningdek, *Bekkonning* fikrlariga *Deni Didro (1713—1784)* xam qo'shilgan. Pedagogikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga *Iogani Fridrix Gerbat (1776—1841)* va *Andre Mari Amper (1775—1836)* lar xam katta xissa qo'shganlar.

Gerbat pedagogika fanining chegarasini kengaytirib unga ta'lim berish va tarbiya nazariyasidan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini boqarish nazariyasini xam qo'shgan. *Amper* xam pedagogikani neologik (neologizm - yangi so'z yoki ibora) fanlar (odamning ruxi va ma'naviy xayoti to'g'risidagi fan) guruxiga qo'shib, maorif to'g'risidagi fan sifatida ta'riflagan.

Shunday qilib, *Gerbat* va *Amper* fanlar tizimida *pedagogikaning* tutgan o'rnini va mavqeini bir xil aniqlashdi. Shundan so'ng "pedagogika" mustaqil fan sifatida tan olinib, uning asosiy tavsiflarini ishlab chiqish boshlandi. U, asosan jamiyatda shaxsning ma'naviy xayotini tashkil etish xakidagi fan sifatida tan olingan. Pedagogikani yagona bir butun fan sifatida tan olish 200 yilga yakin davom etdi.

XX asrning birinchi choragida *N.M. Somov* tomonidan yaratilgan tasniflagichda pedagogika fani kutubxona va ijtimoiy pedagogikaga ajratilib, birinchisi "umumiy fanlar", ikkinchisi "ijtimoiy fanlar" guruxlariga kiritilgan. Keyinchalik barcha fanlar: tabiiy, ijtimoiy va texnik guruxlarga bo'linib: pedagogika ijtimoiy fanlar guruxining psixologiya sinfiga kiritilgan. Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, pedagogika va psixologiya fanlarining vazifasiikki xil bo'lib, ularni biriga o'qitish maqsadga muvofiq emas. Pedagogikani faqat ijtimoiy fanlar turkumiga kiritish xam unchalik to'g'ri emas, chunki, pedagogika fani kasbiy ta'lim berishda matematika, fizika, texnika, o'qitish metodikasi, ishlab chikarish ta'limi va boshqa fanlar bilan bog'langan xolda o'tkaziladi.

Yuqoridagilarni taxlili shuni ko'rsatadiki, fanlarni turkumlash jarayonida pedagogika fanining o'rni va moxiyatini belgilashda ma'lum noaniqliklarga yo'l qo'yilgan. Shu paytga qadar ishlab chiqilgan tasniflagichlarning birontasi o'quv predmetlarning aniq o'rnini aniqlashga qodir emas, ayniqsa u fanlararo bog'lanishni xisobga olmay tuzilgan bo'lsa.

Jamiyat xayotini qayta qurish, o'sib kelaetgan yosh avlodni, shuningdek xamma mexnatkashlar tabaqalarini tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi. Bunday sharoitda pedagogikaning tadqiqot soxalari doirasi kengaya boshladi.

1. **Umumiy pedagogika.** U tarbiyaning asosiy konuniyatlarini tadqiq qiladi.

2. **Yoshlar pedagogikasi.** U kishilarni xar xil yosh guruxlarida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

3. **Maktab pedagogikasi.** U ommaviy o'rta maktabda o'quvchilarga ta'lim berish va tarbiyalashning qonuniyatlarini tadqiq etadigan bo'lsa, kasbiy ta'lim pedagogikasi umumiy maktablarning yuqori sinf o'quvchi yoshida bo'lgan bolalar, o'quv-tarbiyaviy jarayonining

o'ziga xosligini tadqiq etadi.

4. **Maxsus pedagogika** - u o'z navbatida qator soxalarga bo'linib ketadi: kar, soqov bollarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bilan *surdopedagogika*; ko'r va ko'zi ojizlar bilan *tiflopedagogika*; aqli zaif, aqliy jixatdan qoloqlar bilan oligofrendo pedagogikasi; nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bilan *logopediya* shug'ullanadi.

5. **Metodika**. Muayyan o'quv predmetining (til, matematika va x. k) larni o'qitishda ta'lim berishning umumiy qonuniyatlarini qo'llash xususiyatlarini tadqiq qiladi.

6. **Pedagogika tarixi**. Turli tarixiy davrlarda pedagogik g'oyalarni va tarbiyalashning taraqqiyotini o'rganadi.

7. Bundan tashqari pedagogikaning milliy armiyamiz uchun mutaxassislar tayyorlaydigan xarbiy o'quv yurtlari yoshlariga ta'lim-tarbiya berish muammolari bilan shug'ullanadigan **xarbiy pedagogika** xam mavjud.

3. Pedagogika fanining maqsadi va vazifalari, fanning ilmiy tadqiqot usullari va uni boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

Pedagogika tarbiya xaqidagi fan sifatida **tarbiyaning moxiyatini** tushunishni, uning **qonuniyatlarini ochib berishni** va shu orqali inson manfaatlarini uchun tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi.

«Pedagogika» fanini o'qitishdan maqsad mustaqil O'zbekistonda yashab ta'lim olayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashni ta'minlovchi pedagogik bilim asoslarini shakllantirishdir.

Pedagogika fanining maqsadi insonlarda, yoshlarda, mutaxassislarda komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy, axloqiy-amaliy o'quv, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, mutaxassislarda xar bir soxaga mos ilm, bilim, ko'nikmalar xosil qilishdan iboratdir.

«Pedagogika» faning asosiy vazifalari—mustaqil O'zbekiston Respublikasi butun jaxon bilan yuzma-yuz bo'layotgan bir davrda uning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi, yoshlarning asosiy konstitutsiyaviy xuquqlaridan biri bo'lgan xar bir kishining axloqiy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, o'zi xoxlagan kasb tanlash, uni mukammal egallab, shu soxada baxtiyor faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratish, istiqlol mafkurasini o'zlashtirgan mutaxassis tayyorlash, unda tarbiyachilik san'ati va maxoratini shakllantirishdan iborat.

«Pedagogika» fanining predmeti - o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning milliy-ma'naviy rivojida shaxs kamolati uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Xar bir fan ma'lum bir ob'ektni o'rganishda o'z tadqiqot predmetini taxlil etadi. Xar bir fanning mustaqil faoliyat ko'rsatishi xam o'zining maxsus tadqiqot predmetiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Faqat pedagogika fanigina o'z predmetini inson tarbiyasi jarayonini o'rganish qilib olgan.


«Pedagogika» atamasi «paydos» – «bola» va «ago» -»etaklamoq» degan ma'noni bildiruvchi lotincha so'zdan paydo bo'lgan. Eramizdan oldingi III-IV asrlarda qadimgi Gresiyada, quldorlarning bolalarini qo'lidan yetaklab ovqatlantirishga, sayrga olib boruvchi, tabiat qo'ynida o'yna tuvchi tarbiyachi tarbiyachi– qullarni «pedagog» deb atalgan. U bolaning kamolga yetishiga mas'ul bo'lgan, bolani maktabga yetaklab borgan va olib kelgan. Keyinchalik esa pedagog deb maxsus tayyorlangan, pedagogik faoliyat ular uchun kasb bo'lgan kishilarni atashgan.

Keyinchalik pedagogika so'zi kengroq ma'noda qo'llaniladigan bo'ldi, ya'ni bolani xayotga tayyorlash, unga tarbiya va bilim berish, uni ma'nan va ruxan rivojlantirish tushunilgan. Kitoblarda taniqli odamlarning nomlari zikr etilganda esa ularga tarbiya bergan pedagoglarining nomlari xam berilganligini ko'rishimiz mumkin. Asirlar davomida yeg'ilgan bilimlar, tajribalar bola tarbiyasiga oid yangi fan paydo bo'lishiga olib kelgan. Shunday qilib pedagogika bolani tarbiyalash va bilim berish xaqidagi fanga aylangan. XX asrning oxirgi o'n yilligida malakali

pedagogik boshqaruv faqatgina bolalargagina emas balki kattalarga xam kerakligiisbotlangan. Zamonaviy pedagogikaning eng qisqa va aniqroq bo'lgan talqini - bu insonni tarbiyalash xaqidagi fan deb izoxlang. «Tarbiyalash» so'zining ma'nosiinsonga bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirish ma'nosida tushuniladi. Jaxon pedagogik leksikonida «androgika», (ya'ni «andros» - erkak, «ago» - olib boruvchi) va «antropogika» (ya'ni «antropos» - inson va «ago» - olib boruvchi) tarixiy so'zlar ishlatilib kelinadi.

Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, tashkil etish shakllari xamda usullari xaqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi. bugungi kunda pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonun-qoidalari va amalga oshirish yo'llarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandır.

Kishi pedagogika fanini xam nazariy, xam amaliy jixatdan puxta o'rganishi lozim, uni nafaqat bilish, balki amalda qullay olishi xam lozim. Bunda tarbiyachining beg'araz mexnati, bolalarni sevishi va ularga jon fido aylashlari tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga juda jiddiy yondoshmoq darkor. Ayniqsa, pedagoglik ishini o'ziga kasb qilib olgan kishilar mazkur fanni chuqur va puxta bilishlari shart. Aks xolda katta xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin.



Xozirgi kunda pedagogikani xar qanday kishi xam bilishi lozim. Chunki u o‘z xayotiy faoliyatida tarbiyaviy ishlarni xam bajarishiga to‘g‘ri keladi (xech bo‘lmaganda farzandlarini tarbiyalaydi-kuq).

Ijtimoiy taraqqiyot davomida to‘plangan tajribalar tarbiya mazmunini tashkil etsada, ularning xammasini yoshlarga o‘rgatishning iloji yo‘q, albatta. Ularning ko‘pi eskirgan, yaroqsiz bo‘lishi mumkin, yoki murakkab tomonlari mavjud bo‘ladi va xakozo. Eng muximi, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy extiyotlariga va kelajakda kutiladigan o‘zgarishlarni xisobga olib tarbiya mazmunini shakllantirish lozim.


Pedagogika faniga tavsif berilganda, «**ta‘lim**», «**tarbiya**», «**ma‘lumot**», «**inson kamoloti**», xamda «**insonning shakllanishi**» degan so‘zlarni ishlatdik. Bu so‘zlar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Ularni pedagogikaning asosiy kategoriyalari deb nomlaymiz.


Pedagogika fanida yana bir qator **tushunchalar (kategoriyalar)** mavjud bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Bular **bilim, ko‘nikma, malaka, maxorat, odob-axloq, shaxs, shaxsning axloqiy sifatleri, tizim, intizomdir.**

Ma‘lumki, **tarbiya** tushunchasi o‘sib kelayotgan avlodda xosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot-dunyoqarashni, insoniy e‘tiqod, burch va mas‘uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma‘noda tarbiya deb tarbiyachi o‘zi xoxlagan sifatlarini tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruxiyatiga ma‘lum maqsadga ko‘ra tizimli ta‘sir ko‘rsatishiga aytiladi. Tarbiya bola tug‘ilishidan boshlab, umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu tufayli tarbiya so‘zi ko‘p vaqtlarda ta‘lim, ma‘lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini xam anglatadi. Tarbiya ta‘lim va ma‘lumot natijalarini o‘zida aks ettiradi.

Xalq og‘zakii jodiyoti va pedagogikasida tarbiya muammosi zarur iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy, ma‘naviy qarashlarni qamrab olgan bo‘lib, tarbiya orqali amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Tarbiyaning kuch-qudratini A. Navoiy «Maxbul ul-qulub» asarida quyidagicha ta‘riflaydi:





Pedagogika faniga izox

Qobilga tarbiyat erurul nav'kin guxar
 Tushsa, najosat ichra yugay kimsa aniroq.
 Gari t uzumiga kishi may birla bersa suv,
 Bu tarbiyat bila qila olgaymu ani toq.

Alisher Navoiy bu she'rida tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish va uning qonun-qoidalariga amal qilishga chorlaydi.

O'quvchilarga bilimni bayon qilish, ta'lim-tarbiya uzviy bog'langan jarayon bo'lganligi sababli tarbiyalangan komil insonning aqliy kamolotiga tartibli ta'sir ko'rsatishi orqali ular ilimli, barkamol inson bo'lib yetishadilar. Ta'lim jarayoniningsa nimalarni ato qilishi xaqida Yusuf Xos Xojib o'zining «Qutadg'u bilig» asarida shunday yozgan edi.

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,
 Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.
 O'quvli tirikdir, o'quvsiz – o'lik,
 Kelu, ey uquvsiz, uqu ol o'lik.

Ta'lim - maxsus tayyorlangan kishilar raxbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma, va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayonidir.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, xosil qilingan ko'nikma va malakalar xamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

Inson kamoloti - bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muxim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Insonning shakllanishi – bu insonning xayot yo'li davomida rivojlanishning o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi xisoblanadi.

Pedagogika o'z tadqiqot ob'ektiga va tadqiqot usullariga ega. Ilmiy tadqiqot barcha fanlar kabi pedagogika fanini xam takomillashib borishiga, ayrim pedagogik xodisalarni tekshirishga, ularni to'g'ri xal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi.

Xodisa uning taraqqiyoti davomida boshqa xodisalar bilan bog'liq xoda o'rganiladi. Miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga o'tish daqiqalarida kuzatiladi.

Adabiyotlar bilan ishlash usuli

Xar qanday fan o'z ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullar orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Pedagogika o'z tadqiqot usullari orqali pedagogik xodisa va jarayonlarni o'rganadi.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani boyib boradi.

Bugungacha mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy-tadqiqot usullariga tayanib fikr yuritsa bo'ladi: 1) *kuzatish usuli*; 2) *suxbat usuli*; 3) *bolalar ijodini o'rganish usuli*; 4) *test, so'rovnomalar usuli*; 5) *bibliografiya usuli*; 6) *eksperiment, tajriba, sinov usuli*; 7) *statistika ma'lumotlarini taxlil qilish usuli*; 8) *matematika-kibernetika usuli*.

Pedagogik muammolarni tadqiq etish avvalo adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. O'rganiladigan xujjatlar va manbalarga xalq maorifiga aloqador xujjatlar, qonunshunoslikka oid xuquqiy xujjatlar kiradi. Shu bilan birga pedagogika faniga oid bo'lgan tarixiy-pedagogik adabiyotlar, arxiv xujjatlari, pedagogik matbuot materiallari, darsliklar, o'quv-uslubiy ishlanmalar xam kiradi. Adabiyotlarni o'rganish usuli muammolarning qay tomonlari yaxshi ochilganini, qaysi masalalar xal etilmagani kabilarni bilish imkoniyatini beradi.

Adabiy manbalar bilan ishlash quyidagi metodlardan foydalanishni nazarda tutadi: bibliografiya tuzish, annotatsiya, konspektlashtirish. Ishning maqsadidan kelib chiqqan xolda yuqoridagi usullardan biri tanlab olinadi.

Bibliografiya – bu xal etishi lozim bo'lgan muammoni tadqiq etish jarayonida zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati. Adabiy manbalar bilan ishlash aniq ma'lumotlarni bibliografiya tuzish yo'li bilan rasmiylashtirishni talab etadi. Bunda ma'lumotlar muallifining ism-sharifi, asarning nomi (maqolalar uchun oynoma va ro'znomalarning nomi), joyi va nashr etilgan yili ko'rsatiladi.

Kuzatish usuli

Mazkur usul ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi xolati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini aniqlashga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu usul ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad, reja qanday qilib amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun xam qo'llaniladi.

Odatda, tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvorlaridagi o'zgarishlarni xisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilab olish uchun qo'llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki, ularning ilmiy dunyo qarashlari shakllanishi, fikirlash jarayoni kuchi, faolliklarini aniqlaydi, ularni taxlil etadi. Bu bilan pedagogika fani mazmuni boyib boradi.

Suxbat usuli

Suxbat usuli maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruxli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda oldindan reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar taxlil etiladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suxbat olib borish va uni kerakli tomonga yunaltira olishni bilishi, suxbatdoshning ruxiy xolatiga qarab suxbat oxangini moslashtirishi g'oyat muximdir.

Bolalar ijodini o'rganish usuli

Bunda maktab o'quvchilarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar taxlil qilinadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Maqsad Mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. Shu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va xikoyalari, xayotiy rejalar, insholari, yozma xisobotlari va xakozo, ular ma'naviyatini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Oqibatda, maktab o'quvchilari orasidan yetishib chiqayotgan qobiliyatli, iqtidorli, talantli

yoshlarni ertaroq aniqlash, ular uchun zaruriy sharoitlar yaratish imkoni tugʻiladi. Bolalar ijodini oʻrganish manbalari: fan olimpiadalari, mavzular boʻyicha konkurslar, maktablar boʻyicha koʻrgazmalar, musobaqalar, sayoxatlar va xakozo.

Test, soʻrovnomalari usuli

Soʻrovnoma – anketa (fransuzcha “tekshirish” maʼnosini bildiradi) usuli qoʻllanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, oʻquvchilarning yakka yoki guruxli fikrlarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida oʻtkaziladi.

Respublikamizning barcha maktab, oliy va oʻrta maxsus taʼlim tizimiga test usuli joriy etildi. Bu baxolash jarayonini tezlashtiradi. Test savollarining sifati aloxida axamiyat kasb etadi.

Savolnoma va testlar turlicha boʻlishi mumkin: ochiq, yarim ochiq, yopiq va xakozo.

Maktab xujjatlarini taxlil qilish usuli

Taʼlim toʻgʻrisidagi Davlat qonunlari asosida maktabda bajariladigan taʼlim-tarbiya ishlarini yuritish xujjatlari mavjud.

Maktab xujjatlarini tekshirish orqali oʻqituvchilar va oʻquvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati xaqida aniq maʼlumotlar olinadi.

Maktab xujjatlariga quyidagilar kiradi: oʻqituvchi va oʻquvchilar soni, oʻquvchilarning shaxsiy xujjatlari, sinf joʻrnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari, maktabning rejadagi pul xisobi va uning sarflanishiga doir xujjatlar, turliinventarlar daftari va boshqalar. Bu usul maktabdagi barcha soxalarda erishilgan yutuk va kamchiliklarni aniqlash va yaxshilash maqsadida qoʻllaniladi.

Eksperiment – tajriba – sinov usuli

“*Eksperiment*” soʻzi lotincha “sinab koʻrish”, “tajriba qilish” maʼnosini anglatadi. Eksperimental-tajriba ishlari asosan taʼlim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqu jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida oʻtkaziladi. Tajriba ishlari taʼlim-tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Eksperiment usuli sharoitga qarab uch xilda oʻtkaziladi: *a) tabiiy eksperiment; b) laboratoriya eksperimenti; v) amaliy tajriba.*

Pedagogik eksperiment oʻz mazmuniga koʻra didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik muammolari yuzasidan oʻtkaziladi.

Statistika maʼlumotlarini taxlil qilish usuli

Pedagogik tadqiqot statistika maʼlumotlarisiz, ularning taxlilisiz oʻzligini namoyon etolmaydi. Chunki, nafaqat ilmiy izlanishlar, balki xalq taʼlimi soxasidagi koʻplab maʼlumotlar statistika usuli orqali aniqlanadi (taʼlim muassasalari, darslik va oʻquv qoʻllanmalari, koʻrgazmali qurollar, xujalik shartnomalari va xakozo). statistik maʼlumotlarning aniq, real boʻlishi katta axamiyatga ega.

Matematika va kibernetika usullari

«*Kibernetika*» grekcha “rolni bajaraman”, “idora etaman” degan maʼnolarni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy qoidalarini va vositalarini ishlab chiqadi. Uning mazmuni axborot berish, dasturlashtirish, algoritmlar, boshqaruvchi tizm, model yasash singari asosiy nazariyalarda oʻzligini namoyon etadi. Jumladan, mazkur usulni pedagogikaga xam tadbiqu etish xarakati kuchaymoqda.

Oʻqitish nazariyasi, amaliyotida xisoblash maematikasi va kibernetika mashinalari yordamida bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish, dasturli taʼlim va uni mashina orqali oʻqitish kiradi.

Tadqiqot ishlarida pedagogik jarayonni modellashtirish aloxida oʻrin tutadi.

Pedagogikaning tarbiya soxasidagi obʻekti oʻsib kelayotgan yosh avlod boʻlganligi uchun pedagogika insonni oʻrganuvchi fanlar bilan bogʻliqdir.

Inson biologik evolyusiyaning maxsuli sifatida biologiya fanlarining oʻrganadigan obʻekti xisoblanadi. Shuning uchun bu fanlar pedagoglar oʻrganishi lozim boʻlgan fanlar qatorida oʻquv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika fanining metodologik asosini falsafa tashkil etadi. chunki, tarbiyaning maqsadi, ilmiy duneqarashni shakllantirish; jamoa va shaxs muammolari va shu kabilar ikki

fanni birlashtiradi. Iqtisod va xususan uning bir bo‘lagi bo‘lgan xalq ta’limi iqtisodi pedagogika bilan bog‘lanib ketadi. Chunki, iqtisodchilarning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko‘ra ishlab chiqarishning yuksak samaradorligi umumiy ta’limning yuqori darajada rivojlanganligiga bog‘liq ekan.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yoshi va individual (psixologik) xususiyatlarini xisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o‘tadigan psixologik jarayonlarning qonuniyatlari xaqidagi ma’lumotlar muximdir. Shunga ko‘ra pedagogikaning psixologiya fani bilan bog‘liqligi an’anaviy tus olgan.

Keyingi vaqtlarda pedagogikaning kibernetika (muxim dinamik tizimlarni boshqarishni o‘rganadigan fan) bilan bog‘lanishi ko‘zga tashlanmoqda. Bu xolni kibernetikaning umumiy g‘oyalaridan ta’limda foydalanish tajribalarini dasturlashtirilgan ta’lim misolida ko‘rishimiz mumkin.

Pedagogikaning boshqa fandar bilan bog‘lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi kabilar alohida o‘rin tutadi.

Pedagogika boshqa oraliq fanlar ma’lumotlaridan tayyor xolda foydalanmaydi. Bu ma’lumotlar pedagogik nuqtai nazaridan tanlovdan o‘tgandan keyin maqsadga muvofiq lashtirilgan xolda amalga joriy etiladi.

Pedagogika fani yakka xolda rivojlana olmaydi. Boshqa fanlar kabi u xam ijtimoiy fan yutuklaridan foydalanadi. Pedagogika fani falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan doim aloqadordir. O‘qituvchi – tarbiyachi bu fanlarni bilmay turib ish ko‘rishi mumkin emas. Falsafa pedagogikaning metodologik asosini tashkil etadi. Etika, estetika fanlari esa pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo‘limi bo‘yicha ma’lumot beradi. Tarix, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarni xam o‘qituvchi bilmasligi mumkin emas. Pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, maktab gigienasi va pediatriya kabi fanlar bilan xam mustaxkam aloqada chambarchas bog‘liq.

2-MAVZU: O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI. DIDAKTIKA

Reja:

1. Didaktika. Didaktikaning predmeti va vazifalari xaqida tushuncha.
2. Didaktika faniga asos solgan olimlar.
3. Didaktikaning fan sifatida rivojlanishiga xissa qo‘shgan olimlar. Yan Amos Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari xaqida.
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Didaktikaning qonuniyatlari va tamoyillari

Tayanch so‘z va iboralar: didaktika, tamoyil, didaktikaning maqsadi, didaktikaning vazifalari, didaktik materiallar, nazariy bilim, idrok, sezgi.

1. Didaktika. Didaktikaning predmeti va vazifalari xaqida tushuncha.

Didaktika pedagogika fanining ta’lim jarayonining umumiy qonunlarini o‘rganuvchi qismidir. «Didaktika» grekcha so‘z bo‘lib, «didasko» — «o‘qitish», «didachol» — «o‘rganish», degan ma’nolarni anglatadi. «Didaktika» so‘zining ma’naviy tarjimai «ta’lim nazariyasi» demakdir.


Ta’lim nazariyasi — ta’lim jarayoni tushunchasi va moxiyatini, ta’lim tamoyillarini, ta’lim mazmunini, ta’lim metodlari, shakllari va vositalari mazmunini aks ettiradi. Ta’lim nazariyasinnig asosiy moxiyati ta’limni tashkil etishdan iborat. Ta’limni tashkil etishdan asosiy maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

Didaktikaning tadqiqot predmeti ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi funksional bog‘lanishdir.

Didaktikaning tadqiqot olib borishdan maqsadi o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘qitilayotgan fan, didaktik materiallar, didaktik tamoyillar orasidagi munosabatlarning qonuniyatlarini aniqlash.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat

yordamida yanada mustaxkamlanadi. Amaliyot inson bilishining asosiy manbaidir. U o'zlashtirilayotgan nazariy bilimlarning asosli ekanligini ko'rsatuvchi haqiqiy mezondir. Inson tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va xodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat xodisalari sirini bilib oladi.




Narsalar, buyumlar bilan amaliy munosabatda bo'lib narsalarni sayimlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgiidrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqelikni chuqur tushunadi.

Bilim manbai sanalgan amaliyotning axamiyati xususida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini xam ta'kidlab o'tish joiz.

Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushoxadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Bilish shaxs uchun mavxum, o'zlashtirilmagan narsa, voqea va xodisalar mohiyatining ong yordamida anglash jarayonidir. Ob'ektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Sezish ongning tashqi olam bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va xodisalarning sezgi organlari (bizga ma'lumki, ular beshta)ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda xar bir organ, xar bir analizator, I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim, eng muxim sifatlarini xis etadi. Sezish muayyan narsa, voqea-xodisalar mazmunining ongda idrok etilishiga olib keladi.

Idrok - sezgi a'zolari orqali ongga ta'sir etib turilgan narsa va xodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir. Sezishlar, sezish singariidrok qilish xam tashqi buyumlar, ularning maktablari yo'qolishi bilan to'xtaydi.

Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan xamda idrok qilingan narsa va voqea-xodisalarning ongdagi yaqqol xissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zaxirasi boyib, ko'payib boradi. Tasavvur fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muxim rol o'ynaydi.



Tasavvur muayyan umumlashmalarning mavjudligi bilan bog'liq. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muxim tarkibiy qismlari bo'lsa-da, ular xam xaqiqiy voqelikni bilish muammosini to'la xal etishmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi.

Inson faqat tafakkur yuritish jarayonidagina muayyan jarayon yoki voqea-xodisa moxiyatini, munosabatlarning sababiy baxolanishlarini aniqlaydi va shu orqali moddiy borliqni chuqur, to'la va to'g'ri aks etishiga erishadi. Tafakkur, I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, asab tolalari baxolanishlari yoki assotsiatsiyalar (assotsiatsiya - birikma, to'dag', uyushma)ning xosil bo'lishidan iborat.

Jonli mushoxada uchun birinchi signal tizimi, abstrakt (abstrakt-mavxum) tafakkur uchun ikkinchi signal tizimi asosiy axamiyatga ega.

Abstrakt tafakkur voqelik bilan o'zaro aloqada bo'lgan taqdirdagina inson bilimlari chuqurlashib boradi. Jonli mushoxada va abstrakt tafakkur birligina bilimlarni xaqiqiy va chuqur bilimlarga aylantiradi.

Jonli mushoxada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishiga intiladi. Xar qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliy faoliyat moxiyatidan kelib chiqib asoslanadi xamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot ayni vaqtda bilimning to'g'riligini tekshirish vositasi xamdir. Nazariy g'oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va u orqali tasdiqlangandagina u inson bilimlarining muxim tarkibiy qismiga aylanadi.

Demak, bizga bilimning amaliyotdan sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur asosida xosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishidan bo'ladi. Shuni aloxida ta'kidlash joizki, bilim amaliyotga o'zining ilgari ko'rinishida emas, balki ancha boyigan ko'rinishda, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu xolni sxema tarzidagi quyidagi xolatda ko'rishimiz mumkin:

Bilish jarayonida bilim xosil bo'ladi. *Bilim* - odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan umumlashgan tajribasidir. Bilim ob'ektiv borliqni to'g'ri aks ettiradi. Eng to'g'ri va mukammal bilimlar xam o'z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi.

Bilimlar asosida o'quvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod xosil bo'ladi, ilmiy duneqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

Ta'lim jarayonida biror fan soxasida insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan barcha bilimlarni o'rganish mumkin emas. Ta'lim jarayonida eng asosiy, eng muxim bilimlar - fanlarning asoslari o'rganiladi. Ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlari soni o'z vazifalari va xususiyatlariga muvofiq tarzda ortib boradi. Boshlang'ich sinflarda tabiat va jamiyat qonuniyatlari borasida eng oddiy ma'lumotlar berish asosida ularda duneqarash shakllantirib boriladi. Mazkur bilimlar asosida o'quvchilar ob'ektiv borliq moxiyatini anglab boradilar.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmasdan, balki faoliyat ko'nikma va malakalarini xam xosil qiladilar.

Bilimlarning amalda bir necha bor qo'llanilishi ko'nikmalarning xosil bo'lishiga olib keladi. *Ko'nikma* - bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jixatdan maqsadga muvofiq xarakatlarga tayyorgarlikda ifodalangan ongli faoliyatdir. Demak, ko'nikma muayyan faoliyatni tashkil etish yo'llari va usullarini bilib, o'zlashtirib olish xamda o'z bilimlarini amalda qo'llay olishdir.

Ko'nikmalar muayyan vaziyatdagina emas, balki dastlabki shart-sharoitlar o'zgargan vaqtda xam ma'lum xatti-xarakat qilish (tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ko'nikmalarni bilimlar bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Xar qanday ko'nikma asosida bilim yotadi. Bilimlar fikr-muloxazalarda, ko'nikma esa xatti-xarakatlarda ifodalanadi. Xatti - xarakatlar aqliy yoki jismoniy bo'lishi mumkin.

Malaka - muayyan usul bilan bexato bajariladigan, o'rganib qolingan, avtomatlashgan ongli xarakatdir.

Malaka bir xatti-xarakatning o'zini bir xil sharoitda ko'p marta takrorlash natijasida xosil qilinadi. Malaka qanchalik puxta bo'lsa, odam ishni shunchalik tez va to'g'ri bajaradi.

Malakalar turlicha bo'ladi: chunonchi, o'quv malakalari – o'qish, yozish, og'zaki xisoblash va boshqalar; mexnat malakalari - ish qurollari bilan ishlash, materiallar xamda texnika bilan muomalada bo'lish va xokazolar; Xarakat malakalari — yurish, yugurish va boshqalar. Ko'nikma kabi malaka xam egallangan bilimlar asosida xosil qilinadi. Ko'nikma va malaka o'rtasida farqli tomonlar xam bor. Xususan, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar xar xil xarakterda bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonida tarkib topadi. Ta'lim – dialektik (dialektik-moxir munozarachi) tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo'lib, unda ikki tomon – o'qituvchi va o'quvchiishtirok etadi. Ta'lim berish o'quvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikma va malakalar xosil qilish, yangixaqiqatlarni ochishga yo'naltirilgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

O'qish esa o'quvchilarning o'zlashtirish, o'qish qobiliyati, fikrlash xamda muayyan xarakatlarnixosil qilish jarayoni sanaladi. O'qish jarayonida o'quvchilar ma'lum bo'lmagan, anglanmagan ma'lumotlarnio'zlashtira boradilar.

O'tish jarayoni to'rtta asosiy bosqichdan tashkil topadi:

- 1) O'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialniidroq etish;
- 2) Unifaxmlab olish, tushunchalar xosil bo'lishi;
- 3) *Bilimlarni mustaxkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning xosil bo'lishi;*
- 4) Xosil qilingan ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash;

Xar bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan aloxida raxbarlikni talab etadi.

Ta'lim jarayonining boshlang'ich bosqichida o'zlashtirilayotgan bilimlar moxiyati analiz va sintez metodlari yordamida anglanadi.

Analiz (lot. "analysis" - bo'laklarga ajratish) - narsa va voqea xodisalarni tarkibiy qismlarga, bo'laklarga ajratishdir. Masalan, anor qattiq po'sti, qat-qat parda va donachalarga ajratiladi.

Sintez (lot. synthesis - birikish, qo'shilish) analizga qarama-qarshi bo'lgan fikrlash jarayonidir. Unda o'rganilayotgan narsa va xodisalarning aloxida qismlari, bo'laklari bir butun qilib birlashtiriladi.

O'quvchilarning fikrlash faoliyati taqqoslashda xam namoyon bo'ladi.

Taqqoslash - narsa va xodisalaridagi tafovut xamda o'xshashlikni, tenglik va notenglikni topa olishga yo'naltirilgan fikrlash operatsiyasi demakdir.

Induktiv va deduktiv tafakkur o'quv materialini tushunib olishda muxim axamiyatga ega.

Induktiv tafakkur (lot "indektio" - keltirib chiqarish) - juz'iy yoki yakka xollardan umumiyga, ayrim dalillardan umumlashmalarga qarab boradigan, xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakllaridan biridir.

Deduktiv xulosa (lot. "deductio" - ikkiga ajratish, keltirib chiqarish) - umumiy xukmlardan yakka xukmlarga qarab borish orqalimantiiqiy xulosa chiqarishdan iborat metoddir. Tafakkur va deduktiv xulosa metodlaridan foydalanish asosida o'quvchilarda tushunchalar xosil bo'ladi.

Tushuncha – voqelikdagi narsa va xodisalarning muxim belgi va xususiyatlarini bir so'z yoki so'zlar birikmasi bilan ifodalashdan iborat tafakkur shakli. ta'lim jarayonining dialektik xarakterga egaligi bois tushunchalar asta-sekin chuqurlashib va murakkablashib boradi.

Ma'lumotlarning o'zlashtirilishi, tushunchalarning tarkib topishi bilimlarnio'zlashtirib olishning umumiy jarayonidagi muxim vaziyat xisoblanadi. O'rganilgan materialni muloxaza qila olmaslik, uni ta'lim va mexnat faoliyatida mustaqil qo'llay bilmaslik, ularga nisbatan ijodiy yondashmaslik bilimlarining yuzakio'zlashtirilishiga olib keladi.

2. Didaktika faniga asos solgan olimlar.

Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar **ilmiy didaktikagaasos solgan bo'lsalar**, Yan Amos Komenskiy,

shveysariyalik pedagog I.G. Pestalotssi, nemis pedagogi A. Disterveglar Yevropada **didaktikaning rivojlanishiga katta xissa qo'shdilar.**

Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Tusiy va ularning izdoshlari qarashlarining muxim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo **predmetning qiyofasi inson ongida mavxumlashuvi jarayoniga, mana shu predmetning moxiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi xamda shakllanishiga e'tibor berganlar.** Ular bilishning predmeti manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar.

Xorazmiy **shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish** borasida muxim xizmat qildi, induktiv (**induktiv-juz'iy xodisalardan umumiy natija chiqarish, ayrim faktlardan umumiy xulosaga kelish**) va deduktiv (**deduktiv-umumiy xolatdan xususiy xulosaga kelish, xususiy xulosalar chiqarish**) tafakkurdagi aloxidalik xamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Kindiy **substansiyani** (doim xarakatlanib, o'zgarib, rivojlanib turadigan materiya, butun borliqning birlamchi asosi) barcha ilmiy bilimlarining bosh predmeti sifatida ko'rib chiqishda, eng avvalo, **miqdor va sifatni** xissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani (doim xarakatlanib, o'zgarib, rivojlanib turadigan materiya, butun borliqning birlamchi asosi) bilishdan xam maxrumligini uqtirdi. Olim o'zining didaktik g'oyalarida xissiy va **rasional** (aql-idrokka asoslangan, maqsadga muvofiq, oqilona, maqquul, to'g'ri (masalan to'g'ri foydalanish)) bilishni ifodaladi. **Xissiy bilish**-yakka narsani bilishdan iborat bo'lsa, rasional bilish-umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, xissiy bilish faqat aql uchun material beriladi.

Sabablar xaqiqatni bilishda va o'zining ana shu xaqiqatga muvofiq xatti-xarakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. «xaqiqat - deb yozgan edi Kindiy, - xar qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin, xayotdagi mavjud xamma narsa xaqiqiyliги bilan mavjuddir. Xaqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin».


Forobiy **o'qitish metodlarining tasnifi**ni ishlab chiqqan. Ularni **amaliy va nazariy metodlarga ajratgan**, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning xayoti xamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. Olim o'qitishining tajriba-ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlarga aloxida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining xayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan xolda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodni ustun qo'yib, o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalaga e'tibor berish xaqida, eng muxim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubxalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va xakazolar bo'yicha o'quvchilar uchun qimmatli tavsiyalarni bayon etgan.

Forobiy **matematika fani asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlilik va izchillik prinsiplarini** ishlab chiqqan.

Beruniy «o'qitish va takrollash orqali dunyoning tuzilishini, osmonning va yerning shakllarini bilish astranomiya fani uchun g'oyatda foydalidir. Binobarin, ana shu tariqa ta'lim oluvchi malaka xosil qiladi va mazkur san'at axli ishlatadigan so'zlarni o'rganadi, bu so'zlarning ma'nosini angelaydi. Keyinchalik astranomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o'rganishda ana shunday so'zlar uchrasa, ularni bemalol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o'zlashtirishda charchamaydi».

Beruniy ta'kidlaganidek, o'qitish izchil, ko'rsatmali, maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin, ko'rsatmalilik ta'limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurini rivojlantiradi.

Ibn Sinoning fikricha buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishni taxlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. **U aqlning rivojlanish bosqichlarini** ishlab chiqqan. Mushoxada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarini tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aqliy rivojlanishning uchunchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni xaqiqiy aql deyiladi.



Ақлнинг ривожланish bosqichlari

Ibn Sino aql deganda insonning tug‘ma iste‘dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni insonning birlamchi tug‘ma sog‘lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, farqlantiradigan kuch, deb ta’riflaydi. Inson aql yordamida narsalar va xodisalarni taxlil qiladi, umumlashtiradi xamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. U aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. 1)-nazariy aql bo‘lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir 2)-amaliy aql bo‘lib, uyumlarni tanlashda turtki sifatida ko‘rinadigan qobiliyatdir.

A. Avloniy, ilm-tarbiya jarayonida o‘zlashtiriladi va yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni najoizdan farqlash imkonini beradi, deb xisoblaydi. U tarbiya bilan ta’limning birligi muammosini ishlab chiqadi.

X.X. Niyoziy o‘z tadqiqotlarida tovushli savod o‘qitish metodini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotidagi asosiy g‘oya o‘qitish va tarbiyalashga kompleks yondoshish, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o‘zaro bog‘liq xolda amalga oshirishdan iborat edi.

Yuqoridagi asarlarning nomlaridan va pedagogik fikrlardan ayon bo‘ladiki, mazkur mualliflar didaktikaga o‘qitish san’ati sifatida, shuniigdek, o‘ziga xos amaliy ko‘nikma sifatida qaraganlar.

3. Didaktikaning fan sifatida rivojlanishiga xissa qo‘shgan olimlar. Yan Amos Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari haqida.

Didaktika so‘zi ilk bor nemis pedagogi Volfgan Ratke (Ratixiya) (1571-1635) asarlarida o‘qitish san’ati sifatida ifodalagan. Yan Amos Komenskiy bu so‘zni (1592-1670) «**Xammaga xamma narsani o‘qitishning universal san’ati ifodalangan buyuk didaktika**» shaklida ifodalagan. U didaktika faqat o‘qitish san’atidagina emas, balki tarbiyalash san’atidan xam iboratligini qayd qilgan. Va tarbiya xar tomonlama axloqiylik yo‘nalishidagi fe‘l-atvorni shakllantirishining zarur sharti ekanini xam o‘qtirgan.

Uning bu boradagi fikr-muloxazalari 1657 yilda nashr etilgan «**Xammaga xamma narsani o‘qitishning universal san’ati ifodalangan buyuk didaktika**» nomli asarida bayon qilingan.

Didaktikani yuqoridagicha tushunish XIX asr boshigacha, ya’ni taniqli nemis pedagogi va faylasufi Iogan Genrix Gerbart (1776—1841) **didaktikaning asosiy nazariyasini** ishlab chiqqunicha davom etgan. Binobarin u didaktikani pedagogikaga bo‘ysunadigan tarbiyalovchi ta’limning yaxlit va ziddiyatsiz nazariyasi sifatida talqin qiladi.

Gerbart va xususan uning izdoshlari ana shu nazariyaning rolini xisobga olib didaktikaning asosiy vazifasini — darsda bayon qilinadigan material ekanini rad etdilar: **Gerbart konsepsiyasiga** muvofiq o‘qituvchi asosan o‘quvchilarni yangi o‘quv material bilan tanishtirishga doir xarakatlarini taxlil qilishi lozim edi.

XIII asrda shveysariyalik pedagog I.G.Pestalotssi **kamol toptiruvchi ta’limning prinsiplari tizimini** asosladi. XIX asrda esa nemis pedagogi A. Disterveg o‘zining «Nemis

o'qituvchilari uchun» qo'llanmasida o'quv jarayonini faollashtiradigan talablarning butun bir kompleksini taklif qildi. Fan va texnika shunday tezlikda taraqqiy topmoqdaki, maktab ta'limi bilan ularning ketidan quvib yetish mumkin emas. Lekin maktabni bitirgan yoshlar albatta o'zlari bilmaydigan ilmiy kashfiyotlarga, jamiyatni rivojlantirishning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi tizimiga duch keladilar. Lozim darajadagi aqlga, irodaga va xissiyotga ega bo'lgan kishilargina notanish ma'lumotlarni tezroq o'zlashtirib olishi mumkin.

Bilim va malakalarni tarkib toptirish naqadar zarur bo'lsada, hozirgi didaktika ana shu soxa bilangina chegaralanib qola olmaydi.

Endilikda o'quvchilarni kamol toptirishda optimal natijalar bera oladigan o'qitish jarayoning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurligi tug'ildi. O'quvchilarning kamol topishi ta'lim jarayonida amalga oshishi sababli bilim va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan didaktik prinsiplar ma'lum natijalarni beradi. Lekin vazifa qanday natijalarga erishishdan emas, balki o'quvchilarni kamol toptirish uchun o'qitishning eng yuqori samaradorligini ta'minlashdan iborat. Buning uchun esa o'quv jarayonining qurilishini ishlab chiqish kerak. Didaktikada tarbiyalovchi dunyoqarashni shakllantirish masalalari ko'riladi, ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqillikni, tashabuskorlikni va shaxsning boshqa ayrim sifatlarini tarbiyalash vazifalari taxlil qilinadi.

4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Didaktikaning qonuniyatlari va tamoyillari

Didaktikaning asosiy kategoriyalariga: ta'lim berish, ta'lim, o'qish, o'qitish, bilim, malaka, ko'nikma, va yana shu bilan birga uning maqsadi, mazmuni, tashkillashtirish, turlari, shakllari, usullari, vositalari va ta'lim natijalari kiradi.

Bundan qisqa va lo'nda xulosa qilishimiz mumkin, ya'ni **didaktika-bu o'qish va ta'lim olish ilmi, unga maqsad, mazmun, usullar, vositalar, tashkillashtirish va erishilgan natijalar** kiradi.

O'qitish-ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'qituvchining tartibli faoliyati (axborotlar bilan ta'minlash, tarbiya, tushunish va bilimlarni amaliy tadbiiq qilish) kiradi.

O'qish-o'quvchining kishilar tajribasidan bilib olingan qonuniyatlarini o'zida aks ettirishdir.

Ta'lim berish-ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun pedagogning ta'lim oluvchilar bilan tartibli aloqasi.

Ta'lim-ta'lim jarayonida egallagan bilim, malaka, ko'nikma va fikrlash turlarining tizimi.

Bilim-o'qituvchilar tomonidan mustaqil xayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda, ijtimoiy munosabatda zarur bo'lgan fan asoslarining qonunlar, omillari va tushunchalarini o'zlashtirish natijalari.

Ko'nikma-ta'lim oluvchining o'zlashtirilgan bilimni tez, aniq va ongli ravishda qo'llay bilish qobiliyatidir.

Maxorat-ongli ravishda bajariladigan ishning bir xil mexnatni ko'p marotaba takrollanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy elementidir

Maqsad (o'quv, ta'limiy)-ta'lim intilgan va uning xarakatlari yo'naltirilgan kelajak.

Mazmun (o'qitish, ta'lim)-ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi egallashi zarur bo'lgan ilmiy bilimlar tizimi, amaliy ko'nikma va malakalari, faoliyat va fikrlash turlari.

Tashkillashtirish-aniq kriteriyalar bilan didaktik jarayonni tartiblashtirish, ko'zda tutilgan maqsadga muvoffaqiyatli erishish uchun formaga keltirib olish.

Forma - (lotincha so'zdan-tashqi ko'rinish)

Metod (usul) - (lotin.-yo'l, usul)-ta'lim maqsadi va vazifalarini amalga oshirish yo'llari.

Vositalar - o'quv jarayonida qo'llab-quvvatlanadigan narsa (predmet). vositalarga pedagog ovozi, kitoblar, lo'g'atlar, sinf jixozlari va texnik vositalar kiradi.

Natija (ta'lim maxsuloti)-ko'zda tutilgan maqsadga erishish, o'quv jarayonining yakuniy qismi, ko'zda tutilgan maqsadning erishilgan darajasi.

Didaktikaning predmeti ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida muallimning raxbarligi ostida amalga oshiriladigan o'quv jarayondir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari

tadqiq qilinadi, xar xil tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari xamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Ta'lim jarayonida u'qituvchi o'z bilimlarini shogirdlariga singdirar ekan, bu jarayonda ularning o'zlashtirish imkoniyatlarini o'rganadi, qiyinchiliklarni ko'radi, sabablarini aniqlaydi, ularni bartaraf etish choralarini ko'radi. Maxoratli, ijodkor o'qituvchi bu jarayonda ta'limning mazmuniga kiritadi. Buning natijasida o'qituvchining o'ziga xos usullari shakllanadi.

O'qituvchi-o'quvchi-talabani bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali **uuch vazifani**, ya'ni bilim berish orqali **uuch maqsadni** xal qilishi lozim ligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi. Bu maqsadlar quyidagilardir:

1. Ta'limiy maqsad - o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq qila olishdir.

2. Tarbiyaviy maqsad - fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, duneqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.

3. Rivojlagtiruvchi maqsad - ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini bilish qobiliyatini, o'qishga, mexnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi-talabada mustaqil ishlash ishtiyoqi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur xukmronlik qiladi. Ta'lim turli bosqichlarda amalga oshadi.

Birinchii bosqich - o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi-talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushuna oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich - ular o'quv materiallarni tushunib oladilar, uning moxiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich - yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o'qituvchining qo'shimcha izoxlari orqali mustaxkamlanadi.

To'rtinchii bosqichda - ular o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining xamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchi va boshqaruvchilik vazifasini o'ynaydi. Bu fikrlarga xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muxim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajradi. Jumladan:

- a) o'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini xosil qiladi.;
- b) ularda duneqarashni, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi;
- v) yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali kishilar bo'lib yetishishlariga, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli xal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mexnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishida ko'rinadi. Bundan tashqari o'qituvchi, o'quvchiga o'z faoliyatining ob'ekti sifatida qiziqib qarashi, uning extiyoy va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

Bundan tashqari o'qituvchi ta'lim jarayonida xar bir o'quvchi-talabani bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va xisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, taxlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik maxorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lish pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olish, ta'lim natijalarini dastlabgi va keyingi ko'rsatgichlar bilan taqqoslash, taxlil qili shva xulosalash kabilar. Xullas, o'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik maxoratga ega bo'lishi lozim.


Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv tarbiya-tarbiya jarayonining xamma bosqichlarini qamrab oladi xamda xar tomonlama yetuk barkamol avlodni yetishtirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shu sababli mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz ta'limni tashkil

etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilanadi. Bular ta'limning ustvorligi, ta'limni demokratlashuvi, ta'limni insonparvarlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar. Jamiyat talab qilayotgan uzluksiz ta'limga tegishli bu qonun-qoidalar o'qitish, bilim berish, ya'ni talim jarayoniga xam samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari aloxida, ya'ni didaktika qismida o'rganiladi. Bu jarayonda ta'lim prinsiplariga xam aloxida to'xtaladi.

Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Tusiy kabi mutafakkirlar ilmiy didaktika asoschilaridir. Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I.G.Pestalotssi, nemis pedagogi A.Disterverglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta xissa qo'shdilar. Ular pedagogik qarashlarining muxim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavzumlashuvi jarayoniga, mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi xamda shakllanishiga e'tibor berganlar.

Sharq xalqlari pedagogikasining buyuk allomasi Yusuf Xos Xojib «Qutadg'u bilig» asari orqali ilm-fan, ma'rifatning ahamiyati, ta'rifi va tavsifida odamlarni tinmay ilm olishga, bilim o'rganishga undadi. Bilimlar rivojida Sharqning yana bir buyuk mutafakkiri Al-Xorazmiyning salmoqli xissalari bor, albatta. Buyuk olim algebra, arifmetika, astronomiya, geografiya va musiqa soxalarida bir qancha asarlar yozgan.

Sharq g'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rivojlanib bordi, didaktika rivojiga buyuk cheh pedagogi Yan Amos Komenskiy xam katta xissa qo'shgan. Uning «**Buyuk didaktika**» asari o'qitishni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi va muallimlarning doimiy foydalaniladigan adabiyoti bo'lib qoldi.



Ta'lim mazmunining davlat ijtimoiy-siyosiy rivojlanish yo'nalishlariga bog'liqlik tamoyili – Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida Respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining 5 ta tamoyilini belgilab bergan.

I.A.Karimov oliy majlis sessiyasida fan, madaniyat arboblari bilan uchrashuvlarda istiqloq mafkurasi masalalariga to'xtalib, ta'lim-tarbiya masalalarida biz umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishimiz kerakligini uqtirdilar. Bu g'oyaviy yo'nalish bizdan umuminsoniy ijobiy xislatlarni shakllantirish yo'nalishida, ya'ni siyosiy partiyalar ta'siri xalq pedagogikasi durdonalari asosida yuz beradi, demakdir.

Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili – o'quvchi bilimlarini xayotda qo'llay olishlari uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish kerak. Shunday sharoit yaratilganda o'quvchida ijodiy tashabbuskorlik va mustaqil tafakkur, nutq madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e'tiqod tarkib topadi.**Ta'limning ko'rsatmalilik tamoyili** – bu o'qitish jarayonining sifatini orttiradi, talabalarning bilim olishlarini osonlashtiradi. O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni ta'kidlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan narsa va xodisalarni bevosita idrok qilishga bog'liq xissiy-amaliy tajriba bo'lgan taqdiridagina ular bilimlarni ongli suratda o'zlashtiradilar.

Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili – ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish, birinchidan, ma'lum bir yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlanayotganida uni bir necha tur modifikatsiyasini (xillarini) tayyorlash imkoniyatlarini beruvchi unifikatsiyalashgan o'quv rejalarini tuzishni ko'zda tutsa, ikkinchidan umumtexnik va umumpedagogik va maxsus predmetlar mazmunini tabaqalashtirish, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishi an'analarini xisobga oladi.

Kasblarga yo'naltirish tamoyili – o'quv rejadagi barcha predmetlar bo'yicha bilimlarning o'zi yetarli emas. Chunki yosh mutaxassis o'qishni bitirib ish boshlagunicha real texnologik jarayonda ko'pgina o'zgarishlar ro'y berib bo'ladi. Shuning uchun xam ta'lim ma'nosi ma'lum bilimlarni ko'zda tutadi. Mutaxassisda tezroq bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kasbiy yo'naltirilganlik ko'nikmalarini taraqqiy ettirish ko'zda tutiladi va xakozolar.

Ta'limni tizimli va izchil bo'lish tamoyili – ta'limda izchilikka rioya qilib o'qitish lozim, toki o'rganilgan bilimlar kecha o'rganilganlarni mustaxkamlasin. ya'ni o'tilayotgan fan yoki bayon qilinayotgan materialning o'quvchilarning oldingi o'zlashtirgan ilmiy bilimlari, ko'nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog'lanishi, shu bilan bir vaqtda o'qitilayotgan materialni o'zlashtirish orqali kelajakda yangi bilimlarni o'zlashtirishga zamin yaratilishi nazarda tutiladi.

Ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyili – ta'lim-tarbiyaning birligi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil qilish va o'qitishning xilma-xil usul va uslublaridan foydalana olishga ko'p jixatdan bog'liqdir. ayniqsa, ta'lim bilan tarbiyaning birligini ta'minlamoq uchun:

- bayon qilinayotgan o'quv materialining mazmuni xam g'oyaviy, xam ilmiy jixatdan to'g'ri tashkil qilinishi;

- o'qitilayotgan mazmunning ilmiy va tarbiyaviy mohiyati ochib berilishi, ta'lim jarayonida xadislardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;

- bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustaxkam o'zlashtirilishi va turmushda unga amal qilinishi;

- ta'limda muammoli jarayonni vujudga keltirish, o'quvchilarning qiziqishlari, faollik va tashabbuskorliklarini ta'minlashga imkon yaratish;

- ta'lim jarayonida o'quvchilarning uyushqoqlik, intizomlilik va javobgarlikni sezish, o'zaro yordam xislarini tarbiyalashni ta'minlamoq zarur.

3-MAVZU: TA'LIM BERISH USULLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI

Reja:

1.Ta'lim berish metodlari (usullari) xaqida tushuncha.

2.Ta'lim metodlarining turlari

3. Ta'lim berish vositalari.

4. Ta'lim berish shakli.

Tayanch so'z va iboralar: metod, usul, o'quv faoliyat, ta'limmaqsadi, ta'limnatijasi, xikoya, tushuntirish, namoyish qilish, ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, mashq, ijodiy mashq, muammolivaziyat, frontal, individual, jamoa, suxbat, evristik suxbat, ko'rgazmali, amaliy usul, didaktik o'yin, motivatsion, rivojlantiruvchi, tashkiliy, ta'limiy, tarbiyaviy, ta'limberish vositalariva shakli...

1. Ta'lim berish usullari (metodlari) xaqida tushuncha.

Ta'lim metodlari(usullari): tushuncha, funksiya, tasnif. Usul – (yunon tilida “**metod**” so'zidan olingan bo'lib izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nolarini anglatadi) aniq vazifani yechishga bo'ysindirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operatsiyalari yoki yo'llarining yig'indisi.

Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Ayni vaqtda pedagogik manbalarda «ta'lim usullari» tushunchasiga berilgan ta'riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Mazkur o'rinda ularning ayrimlarini keltiramiz:

Shuningdek, ta'lim usullarining o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari ekanligi to'g'risidagi fikrlar ham mavjud.

«Ta'lim usullari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq xususiyat, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Usullar boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim usuli o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi»¹.

Ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi **usullar** majmuidir.

Таълим методи – замонавий даражада ўқув-тарбиявий мақсадларга эришишга йўналтирилган педагог ва ўқувчиларнинг ўзаро боғлиқ фаолият усуллари дур (В.И.Загвязинский)

Таълим методлари – ўқув жараёнининг мураккаб таркибий унсурлари (компоненти) бўлиб, ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятининг барча йўналишларини ёри-тишга хизмат қилади, улар ўртасида кўп сонли алоқа ва боғ-ланишларни юзага кел-тиради (Г.И.Хукина)

Таълим методлари деганда ўқитувчининг ўргатувчанлиги ва ўқувчиларнинг ўқув материални эгаллашга йўналтирилган турли дидактик масалалар ечими ни топишга оид ўқувбилиш фаолиятларини ташкил этиш усуллари тушунилади (И.Ф.Харламов)

Таълим методи – белгиланган мақсадга эришишни таъминловчи алгоритмлаштирилган, муайян мазмунга эга ҳаракатлар тизимидур (П.И.Подласый)

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.


Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

Chizmadan anglanib turibdiki, ta'lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: **maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta'lim vositalari.**

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa


aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ta'lim metodi tuzilmasi chizmada quyidagicha namoyon bo'ladi (M.N.Skatkin qarashlariga ko'ra):



Таълим методи тuzилмаси

Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



Таълим методларининг асосий функциялари

«Та'lim metodi» atamasi bilan birga ko'p hollarda «metodik usul» (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi.

Dars jarayonida turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin.

Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi: didaktik maqsad asosida; ta'lim mazmuni asosida; o'quvchilarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida; o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlari majmuasi boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo'llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Didaktikada munozaralarga sabab bo'layotgan yana bir muhim ob'ekt ta'lim metodlarining tasnifidir. «Ta'lim metodlari tasnifi ularning ma'lum belgilari bo'yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda ko'plab ta'lim metodlari ma'lum», - ekanligini ta'kidlagan holda I.P.Podlasiy fikrini quyidagicha davom ettiradi, - «Biroq bugungi kunda yetakchi sanaluvchi didaktik g'oya yagona va o'zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi. O'qitish – favqulodda harakatchan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak»¹.

Ta'lim metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko'p bo'lsada, bu borada yagona to'xtamgan kelinmagan. Ushbu o'rinda ta'lim amaliyotida qo'llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yicha tizimlashtiriladi².

М.А.Данилов ва Б.П.Есиповларнинг қарашларига кўра

1. Билимларни эгаллаш методлари.
2. Кўникма ва малакаларни шакллантириш методлари.
3. Билимларни кўллаш методлари.
4. Назорат (билим, кўникма ва малакаларни мустаҳкамлаш ва текшириш) методлари

Таълим методларининг таснифи

Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar:

1.Materialni og'zaki bayon qilish (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, o'quvchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

2.Suhbat. O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni: ular e'tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'ektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylash va savollarga to'g'ri javob tayyorlashdan iborat.

O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

3.Darslik (umuman, kitob) bilan ishlash (umumlashma va xulosalarni anglash, ularni xotirada saqlashga xizmat qiladi).

Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib bosma matn xizmai qiladi. O'qituvchining rahbarligi esa topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, o'quvchilarga darslik bilan ishlashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlik darajasini tekshirish kabi ko'rinishlarda aks etadi.

4.O'qituvchilarning kuzatuv (sinfda va sinfdan tashqari (shu jumladan, sayohat va ekskursiyalar) jarayonlarda).

O'quvchilarning o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirish holati va hodisalarni kuzata borib, turli fan o'qituvchilarining ko'rsatmalari bo'yicha ularni qismlarga taqsimlab har bir o'quvchining o'ziga xos, o'xshash va muhim jihatlarini aniqlashga yo'naltiriladi.

Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib muayyan predmet (yoki jarayon), tajriba, model, xaritalar xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, ob'ektni belgilash, umumiy rahbarlikni olib borish, qismlarga ajratish, asosiylarini aniqlash va umumlashtirishdan iboratdir.

5. Laboratoriya ishlari. Mazkur jarayonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarni kuzatish yuklanadi. O'quvchilar hodisalarni kechish jarayonini kuzatadilar va tahlil qiladilar.

Bilimlar manbai kuzatilayotgan hodisalar va ularning kechish jarayonidir. O'qituvchi vazifa mohiyatini ifodalaydi, o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, umumiy jarayon va bosqichlarni kuzatish yo'llari hamda yakuniy xulosa chiqarishni o'rgatadi.

6. Mashq (aqliy va faoliyatli mashqlar). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi, nazariy asoslar o'zlashtirilgach, ayrim materiallardagi o'xshash harakatlarning ko'p bora takrorlanishi kuzatiladi.

Bilimlar manbai: o'zlashtirilgan bilimlar va xususiy tajriba sanaladi.

O'qituvchi mashqni bajarish uchun joy hamda vaqtni belgilaydi, topshiriqni ifodalaydi, uni bajarish bosqichlarining borishini nazorat qiladi, boshqaradi, shuningdek, yakuniy natijalarni tekshiradi.

7. Ijodiy mashq. Ushbu metod o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan mustaqil yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Izohli-tasvirli ta'lim metodlari (boshqa nomlanishi axborotli-repsepsiya)ning mohiyati: odatda nazariy bilimlar tayyor holda uzatiladi, o'quvchilar esa ularni qabul qiladilar (repsepsiya). Bu yo'lda turli ta'lim vositalari (shu jumladan, ko'rgazmali vositalar)dan foydalaniladi. O'qituvchi faoliyati bunda nafaqat axborotlarni uzatish, balki ularning o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini ham tashkil etishdan iborat bo'ladi.

Izohli-tasvirli metoddan ta'lim jarayorida foydalanishda quyidagi holatlar yuzaga keladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - Tushuntirish; - Harakatni ko'rsatish; - Dalillardan xabardor qilish; - o'quvchining materialni anglab yetishini rag'batlantirishga yo'naltiruvchi usullar; - turli didaktik materiallardan foydalanish 	<ul style="list-style-type: none"> - axborotlarni qabul qilish; - o'quv materialini tushunib olishga intilish va dastlabki ma'lumotlarni yodda saqlash; - o'quv materialini tushunish

Reproduktiv ta'lim metodlari yuqorida keltirilgan metodlardan quyidagi unsurlarning mavjudligi bilan farqlanadi: o'qituvchining bilimlarni tushuntirishi, ularni o'quvchilarning yodida saqlanishini ta'minlashi va qayta ishlab chiqishi (reproduksiya). O'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishiga ularni ko'a marta takrorlash evaziga erishiladi. Mazkur metod ta'limning barcha bosqichlari, asosan, boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish, arifmetik harakatlarni amalga oshirish ko'nikmalarini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Reproduktiv metoddan foydalanishda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - avval o'zlashtirilgan mavzu, paragraf yoki bob bo'yicha so'rov; - o'quvchilar uchun turli mashqlarni saralash va taklif qilish; - masalalarni yechishdagi o'quv harakatlarining namunasi va algoritmini namoyish qilish; - o'quv harakatlari ko'nikmasi va malakasini shakllantirish 	<ul style="list-style-type: none"> - turli kontekstda bilimlarni qayta ishlash; - namuna bo'yicha topshiriqlarni bajarish; - mashqlarni bajarish; - namunaviy masalalarni yechish usullarini egallash; - namunaviy masalalarni yechish algoritmini egallash

Evristik ta'lim metodini qo'llashda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O'qituvchi bilimlarning bir qismini o'quvchilarga ma'lum qiladi, qolganini esa o'quvchilar bilish topshiriqlarini yechish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi, o'zlari bilimlarni mustaqil egallashadi. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda o'quvchilarning

ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaladi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.


Evristik metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
<ul style="list-style-type: none"> - o'quvchilarni masalaning mohiyatini o'rganishga jalb etish; - yechim rejasini aniqlashda mulohaza yuritish namunasini ko'rsatish; - masalani bosqichlarga ajratish; -evristik suhbat 	<ul style="list-style-type: none"> - evristik suhbatda qatnashish; - masalani yechish rejasini olg'a surish; - izlanuvchan harakat usullarini egallash; - masalalar yechish yo'llarini izlab topish

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:

Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat», «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki, muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib, o'zida sub'ektning aniq yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa, shubhasiz, muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi, ya'ni, muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib yetilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi, biroq, barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal yetadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni, uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.



Муаммоли ўқитиш методининг тузилмаси

Tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi, o'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi

bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi, tajribasini egallaydilar.

I.P.Podlasiy birmuncha keng tarqalgan ta'lim metodlari tasnifiga yaqinlashar ekan, quyidagi fikrni ta'kidlaydi: «Boshqa bir qator ta'lim metodlari tasnifi ham mavjud. Masalan, nemis didakti L.Klinberg ta'lim jarayonida metodlarni hamkorlik shakllari bilan uyg'unlashtirishga alohida urg'u beradi»¹ va quyidagi metodlarni ko'rsatadi:

Monologik metodlar	Hamkorlik shakllari	Dialogik metodlar
Ma'ruza	Individual	Suhbatlar
Hikoya	Guruhli	Intervyu
Namoyish	Frontal	-
-	Jamoaviy	-

Ta'lim metodlari turli shakllar hamda xilma-xil ta'lim vositalari yordamida joriy etiladi.

Ta'lim jarayonida ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim elementlardan biri sifatida ta'lim vositalari e'tirof etiladi. Ta'lim vositalari sirasiga quyidagilar kiradi: texnik hamda axborot qurilmalari (dioproektor, kinedoskop, uskunalar, radio, televidenie, kompyuter, audio hamda video magnitafonlar), laboratoriya jihozlari (kolbalar, probirkalar, kimyoviy reaktivlar, mikroskop), xarita, maketalar, diagrammalar, plakatlari, rasmlar, chizmalar va hokazolardan foydalaniladi.

Ta'lim metodlarining mohiyati va mazmuni. Qayd etib o'tilganidek, ta'lim metodlari tizimida **og'zaki bayon qilish metodlari** muhim o'rin tutadi.

Og'zaki mashqlardan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.



Og'zaki bayon qilish metodlarining turlari

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Hikoya hissa (5-10 daqiqa), shu bilan birga o'quvchilarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak. Bu holat hikoyani boshqa ta'lim metodlari (xususan, namoyish yoki muammoli bayon etish va hokazolalar) bilan birga solishtirganda ro'y berishi mumkin.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatini endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko‘proq o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashhislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko‘rinishlarda, ya’ni, **kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat** tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbat o‘quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad hal etilishi zarur bo‘lgan ishlar mohiyatining o‘quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko‘rishdan iborat. Bunday suhbatlar o‘quvchilarning o‘quv salohiyatini aniqlash, loyihalashtirish ishlarini tashkil etish hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga kirishish oldidan uyushtiriladi.

Yakuniy suhbat o‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexizim (qisqa bayonli) suhbat – o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi hamda ularning yangi o‘quv metodikasini o‘zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali o‘qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so‘ngida qo‘llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo‘naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga «ha» yoki «yo‘q» tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta’minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin.

Demak, evristik suhbat jarayonida o‘quvchilar bilimlarni o‘zlarining tirishqoqliklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o‘zlashtira olsinlar.

Tushuntirish o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko‘p hollarda o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat’iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko‘pligi, bilimlar bayonining tizimliliigi. Maktab ma’ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, ob’ektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma’ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo‘llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma’ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o‘quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o‘rgata boradi.

Maktab ma’ruzasining samaradorligini ta’minlash shartlari¹ quyidagilardan iborat:

- o‘qituvchi tomonidan eng maqbul ma’ruza rejasining tuzilishi;
- rejaning o‘quvchilarni xabardor etish, ularni ma’ruza mavzusining maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;
- rejada aks etgan barcha bandlarning mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etilishi;
- rejaning har bir bandi yoritilgach, ular yuzasidan qisqacha umumlashma asosida xulosalanishi;

- ma'ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning o'rnatilishini ta'minlash;
- bayon qilishning muammoli va emotsional xususiyat kasb etishi;
- jonli til, o'z vaqtida misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish;
- auditoriya, muloqot jarayoni, shuningdek, o'quvchilarning aqliy faoliyatlarini mohirlik bilan boshqarish;
- ma'ruzaning muhim jihatlarini turli tomondan ochib berilishi;
- ma'ruzaning asosiy qismlarini o'quvchilar tomonidan qayd etib (yozib) borilishiga imkon beradigan holatda bayon qilinish tezligi;
- zarur (yozib olinadigan) o'rinlarni oldindan ajratib qo'yish;
- o'rganilayotgan holatlarni yozib olish asosida qabul qilish va ularning mohiyatini aniqlashtirish maqsadida ko'rgazmalar (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalar)dan foydalanish;
- alohida holatlarni chuqur muhokama qilishda ma'ruzani seminar, amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish reseptorlari yordamida o'zlashtiriladi.

Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan «Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi» maqoli ilmiy asosga ega ekan.



K'orgazmali metodlarning turlari

Namoyish metodi o'rganilayotgan ob'ekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy ob'ektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan ob'ektlarning sub'ekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog'ida, turli o'simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan ob'ektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Bu metod yordamida o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ravishda ob'ektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o'quvchilarning yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog‘liq bo‘lsada, didaktikada alohida o‘rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko‘rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko‘rsatishni taqozo etadi.

Namoyish va tasvir metodlari o‘zaro bog‘liqlikda bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o‘quvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur bo‘lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Tasvirning samarasi ko‘pincha o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatuv texnologiyasi qay darajada o‘zlashtirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o‘rganilayotgan ob‘ekt mohiyatini to‘laqonli yoritish bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o‘rinlarda kerakli hajmda ko‘rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o‘quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg‘itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob‘ektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Ko‘rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ko‘rgazmalilikning o‘quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan ob‘ektlar barcha o‘quvchilarga yaxshi ko‘rinib turishi;
- namoyishda uning boshlang‘ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;
- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko‘rsatish asosida tashkil etilishi;
- namoyish va illyustratsiya o‘quv materialining mazmuni bilan uyg‘un bo‘la olishi lozim.

Amaliy ishlar metodlari o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.



Амалий методларнинг турлари

Amaliy ishlar metodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo‘naltirilgan jarayonda qo‘llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnoma yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar e‘tiboriga havola etadi.

Qayd etilganidek, ushbu metodlar o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo‘ladi.

Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.

Yozma mashqlar – ta‘limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlar ham yozma ishlar bilan o'xshash jihatlarga ega bo'lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta'lim)da keng ko'lamda foydalaniladi.

Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo'ladi: mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish; bajarish qoidasini bilish; vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi.

Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat: o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi; o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi; zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

Ayrim holatlarda o'quvchilar ovoz chiqarib o'quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo'ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko'nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod o'quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi: O'qituvchining tushuntirishi, faoliyat mohiyatini nazariy jihatdan anglash bosqichi. Ko'rsatma, yo'l-yo'riq berish bosqichi. Sinov bosqichi (bu bosqichda ikki-uch nafar o'quvchi amaliy harakatlarni bajaradi, qolgan o'quvchilar esa ularning faoliyatini kuzatadi). Faoliyat (harakat)ni bajarish (har bir o'quvchi topshiriqni mustaqil ravishda bajaradi, ayni o'rinda topshiriqni bajarishga qiylanalgan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratilib, ularga yordam ko'rsatiladi). Nazorat bosqichi (bu bosqichda o'quvchilarning ishlari qabul qilinadi va baholanadi; ishning sifati, materialning maqsadga muvofiq tanlanganligi, vaqt nutqai nazardan tezkorlik, topshiriqni bajarish tizimining to'g'riligi va samaradorligi kabi holatlarga alohida e'tibor beriladi).

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda **didaktik o'yinlardan** foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Hozirgi vaqtda o'qituvchilar qo'lida barcha o'quv fanlari bo'yicha didaktik o'yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlarda turli didaktik o'yinlarning ro'yxati yetarli darajada ko'rsatilgan.

Ta'limning globallasuvi ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan kompyuter o'yinlarining maktab amaliyotiga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda o'quvchilarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina ularni

taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi. Pedagogika fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;

- o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;

- xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;

- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;

- u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;

- o'qituvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;

- o'qituvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;

- o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;

- o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatleri;

- o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

3. Ta'lim berish vositalari.

Ta'lim berish vositalari: doska, mel, o'quv qurollari, kitoblar, tarqatma materiallar, slaydlar, avdio-video proektorlar, televizor, kompyuter, slaydlar va boshqalar.

4. Ta'lim berish shakllari.

Ta'lim berish shakllari:

- Individual.

- Gruxlarga bo'lib

- Jamoaviy

4-MAVZU: PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Reja:

1. Zamonaviy ta'lim berish usullarining mohiyati va mazmuni.
2. An'anaviy o'qitishning zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'qitishdan o'ziga xos farqlari.
3. O'qitishning induktiv va deduktiv usullari.
4. Ta'limning interfaol usullari va texnikasi.

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim ko'rsatkichlari, natijalar, ta'lim usuli, mazmun, maqsad, pedagogik jarayon, ta'lim texnologiyasi, ishlab chiqarish texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi, shakl, zamonaviy ta'lim berish usullari, pinbord, ishbilarmonlik o'yinlari, roli o'yinlar, deduktiv, induktiv, reproduktiv metodlar.

1. Zamonaviy ta'lim berish usullarining mohiyati va mazmuni.

Pedagogik texnologiya oqimi AQSh da dunyoga kelgan bulib, XX asrning 70-80 yillarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarniqamrab oldi va YuNESKO tomonidan ma'qullandi. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyixalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi. Bunday yondoshishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan - uni, aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib tashlash yordamida maksimal shakllashtirishdan

iborat.

Pedagogik texnologiyalarning predmeti - ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baxolashgacha loyixalashtirishdan tarkib topgan.

Bizning ta'lim nazariya va amaliyotimizda, o'quv jarayoniga texnologik xarakterni kiritish 50 – yillardan boshlangan. Ular, an'anaviy o'qitish uchun texnik vositalar majmuasini yaratishda o'z ifodasini topgan. Xozirgi vaqtda, pedagogik texnologiyaga oddiygina «o'qitishning texnik vositalaridan yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar sifatida qaralmaydi: bu, o'qitish samaradorligini oshiruvchi omillarni taxlil qilish va qo'llash yo'li bilan xamda qo'llanilayotgan usullarni baxolash vositasida ta'lim jarayonining tamoyillarini aniqlash va optimallashtirish usullarini ishlab chiqish maqsadida tadqiqotlardir». V. P. Bepalko bo'yicha, barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'liga o'tkazish – o'quv amaliyotni, pedagogik jarayonni qurish va amalga oshirishda ixtiyoriylikdan, uning xar bir elementini va bosqichini tartibli asoslashga, ob'ektiv tashxis qilinadigan yakuniy natijaga intilishiga keskin ravishda burilishini ifodalaydi.

Ta'lim berish, xar bir mavzuning mag'zini talabalar ongiga yetkazish maxorati o'qituvchidan ko'p izlanishni, ko'p mutolaa qilishni talab qiladi. Bilim ummoniga boy bo'lgan ustozgina mavzuni mag'zini talabalar ongiga moxirona yetkaza oladi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim usullarini tanlay biladi.

Ta'lim usullaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o'tish, o'quvchilarni xayotda o'z o'rnini topishga, ongining shakllanishiga katta asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilarning ma'lum fan ilmini o'quvchilar ongiga yetkaza olish maxorati, shu o'quvchilarni bo'lg'usi xayot yo'llarini tanlashda muxim axamiyatga ega. Oldin bayon qilganimizdek, ta'limning moxiyati inson kamolotini shakllanishiga xizmat qiladi. Ta'lim usulini tanlash ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liqdir. Usullar o'quvchilarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi. O'qituvchi o'zining shaxsiy sifatleri: komilligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi, ta'limiy maqsad bilan tarbiyaviy maqsad mutanosibli, fan asoslari va g'oyalarni chuqur bilishi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi talab qilinadi.

Bunday o'qituvchilardan bilim olayotgan talabalar nimani bilishi kerak ekanligini idrok qilib beradilar. Nazariy bilimlar amaliyotga ko'chirilganda, uni aniq xis qilib, tasavvur qilib o'zlari amalda bajaradilar, masalalar yechadilar, so'ngra bilimlari moxiyatini tushunib oladilar. Shu mavzu bo'yicha aniq ko'nikmaga ega bo'ladilar. Shu asnoda boshqa fanlardan xam bilim olish va amaliy mashg'ulotlar bajarish evaziga ularda ko'nikmalari boyib boradi.

Talabalar o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatlariga qarab sekin-asta amaliyotga qo'llay boshlaydilar. Talabalar bilan bo'lgan muloqotda, ularga bilim berish jarayonida o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi lozim. Ta'lim tarbiya jarayoni uzviy jarayondir. Ta'lim berish jarayonida tarbiyalayotganligimizni unutmasligimiz lozim. Suxandonlik, kinoyasiz so'zlash, o'qituvchiga xos kiyinish etikasi, fikrni erkin bayon qilish va uni tamasiz yetkaza olish xususiyatlari o'quvchilar uchun amaliy ko'rgazma ekanligini unutmaslik kerak. Ta'lim berishda o'qitish usullari asosiy o'rinni egallaydi.

Pedagogik fan va amaliyotda, «Pedagogik texnologiya», «Ta'lim texnologiyasi», «O'qitish texnologiyasi» kabi atamalar keng foydalaniladi. Shu bilan birga, ularni tushunish paytida aloxida farqlar mavjud. Avvalambor, «Texnik texnologiya» va «Pedagogik texnologiya» tushunchalarining nisbatini aniqlaylik.

«Texnologiya» – yunoncha *«teche»* so'zidan olingan bo'lib, maxorat, san'at va *«logos»* – so'z, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Gumanitar texnologiyalar safiga kiruvchi «Pedagogik texnologiya» tushunchasining mazmunini aniqlaymiz. Bizning fikrimizcha, ushbu keng ishlatiladigan so'zlar birikmasi inglizcha *«en educational technology»*, ya'ni *«Ta'lim texnologiyasi»* ifodasini noaniq tarjima qilishdan kelib chiqqan. Xorijdagidan farqli o'laroq, o'zimizning pedagogik nazariya va amaliyotimizda, xususan, shaxsni shakllantirish, sifatleri va xususiyatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanuvchi tarbiyaviy jarayon va o'rgatuvchi xamda didaktik

texnologiyalarni amalga oshiruvchi ta'lim jarayoni farqlanadi. Shu bilan bog'liq xolda, bizningcha, tarjimon «Pedagogik texnologiya» atamasini ancha keng ma'noda ishlatgan xolda gumanitar, ta'lim texnologiyalarini, texnik va ishlab chiqarish texnologiyalaridan farqini ko'rsatib bergan.

Aynan o'xshashligi bo'yicha «Texnik texnologiya» va undan kelib chiqadigan atamalarni aniqlashda, biz quyidagi tushunchalarni ishlatamiz:

-pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarni barcha, boshqa tushunchalarini belgilash uchun, sinonim sifatida - ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlatish mumkin.

-o'qitish texnologiyasi - birinchidan, pedagogik texnologiyani jarayonli-xarakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va aniq ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi, usul va vositalar (texnologik operatsiyalar) ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni: ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik xamda o'quv faoliyati loyixasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita).

-ta'lim texnologiyasi - pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu «*texnik va inson resurslarini xamda ularni, o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi xamkorligini xisobga olgan xolda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli*»dir.

2. An'anaviy o'qitishning zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'qitishdan o'ziga xos farqlari

Pedagogik texnologiyaning moxiyati – o'qitish jarayonini butunligicha va tugallangan xolda oldindan loyixalashtirishdan iborat:

- aniq tizimlashtirilgan texnologik jarayonda, pedagogik va dars-ish xarakatlari, operatsiyalari va kommunikatsiya (aloqa yo'li)larining zanjiri, kutilayotgan aniq natijalar shakliga ega, qo'yilgan maqsadlarga qat'iy mos ravishda tuziladi;

- texnologik operatsiyalarni bosqichma-bosqich loyixalashtirish va ketma-ket amalga oshirish, bir tomondan, xar qanday ta'lim oluvchi tomondan qayta tiklanishi kerak, boshqa tomondan esa, rejalashtirilayotgan natijalarni barcha ta'lim oluvchilar tomondan erishishini kafolatlashi zarur;

- texnologik jarayon, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bir-biri bilan bog'liq faoliyatini, differensiyalashganlik (differensial-o'zgaruvchan miqdorning cheksiz kichik orttirmasi) tamoyillarini va ularning individualligini xisobga olgan xolda shartnoma asosida, inson va texnik imkoniyatlarni optimal amalga oshirishni, dialogdan va muloqatdan foydalanishni oldindan nazarda tutadi;

- pedagogik texnologiyaning organik qismi - bir xil moxiyatli aniq mezonlarni, faoliyat natijalarini baxolash ko'rsatkichlarini xamda o'lchash instrumentariylarini o'z ichiga olgan tashxis jarayonidir;

- korreksiya (korreksiya-tuzatish, yaxshilash) jarayoni ta'lim oluvchining xatolariga emas, balki ushbu ta'lim oluvchiga nisbatan o'qitish jarayonini tashkil qilish usulini o'zgartirishga yo'naltirilgan.

An'anaviy o'qitishning zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'qitishdan o'ziga xos farqlarini quyida ko'rib chiqamiz. An'anaviy ta'lim - majburlovchi, ta'lim oluvchiga yondashish bo'yicha nasixatgo'ylik aksariyat usul bo'yicha reproduktivli (reproduktiv-esda qolgan narsani tasvirlash vatiklashga oid), o'qitishni qattiqqo'llik bilan tashkil qiluvchi avtoritar, ta'lim oluvchilarning mustaqilligini va tashabbuskorligini bostiruvchi pedagogikaga asoslanadi. O'qitish, qandaydir o'rtacha xolga keltirilgan o'quvchiga, uni bilimlarni o'zlashtirishiga va qayta tiklashiga yo'naltirilgan. *O'qish - eslab qolish funksiyasi, o'qitish esa - yetakchi faoliyat.* Ta'lim paradigmasi: *ta'lim beruvchi-darslik-ta'lim oluvchi* shaxsni xabardorligini uning madaniyati ustidan yuqoriligini ko'rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'qitish esa shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan. Ta'lim oluvchi shaxsning butunligi - ta'lim jarayonining markaziy figurasi. Munosabatlarni insonparvarligi va demokratlashuvi, o'qishga majburlashdan voz kechish.

O'qitishga differensiyalashgan yondashuv: ta'lim oluvchini umuman intellektual rivojlanish darajasini va uni, ushbu predmetni, mavzuni o'zlashtirishini, uning qobiliyatlarini va sifatlarini xisobga olish.

O'qish faoliyati - bilimlarni mustaqil egallash va ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash: xarakteri bo'yicha muammoli-izlanuvchan, ijodiy. Ta'limning yangi paradigmasi: *ta'lim oluvchi-darslik-ta'lim beruvchi*. Ta'lim va tarbiyaning bir butunligi, shaxs madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirish.

3. O'qitishning induktiv va deduktiv usullari

O'qitishning **induktiv** va **deduktiv** (4-mavzu: «Ta'lim nazariyasi»—ularga izox berilgan) usullari — o'quv material mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usulidir.

O'qitishning **induktiv metodi** — o'qituvchi va o'quvchining turli variantlardagi faoliyatdir. Bunda o'qituvchi avval faktlarni tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi, umumlashtirish va tushunchalarni ta'riflash bo'yicha mashqlar bajarishni tashkil etadi. O'quvchilar oldin xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, keyin xulosalar chiqaradilar va o'quv materialini umumlashtiradilar yoki, o'quvchilar oldiga xususiy qoidalardan umumiy xulosalargacha mustaqil mushoxada yuritishni talab qiladigan muammoli topshiriqlar qo'yiladi. O'quvchilar esa faktlar ustida mustaqil xolda fikrlaydilar va tegishli xulosalar chiqaradilar xamda umumlashtirish qiladilar.

Deduktiv metod — o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy xollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Bunda o'quvchilar umumiy qoidalarni idrok etadilar, formulalarni o'zlashtiradilar, keyin esa ulardan kelib chiqadigan natijalarni egallaydilar.

O'qitishning **reproduktiv metodida** ko'rsatmalilik xam qo'llaniladi. Reproductiv yo'sindagi amaliy ishlar o'quvchilarning namuna bo'yicha ilgari yoki endigina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llashi bilan farqlanadi. Ammo bunday ishlarda bilimlarni mustaqil xolda boyitish amalga oshmaydi. O'qitishning muammoli — izlanish metodi muammoli ta'limda qo'llanadi.

Reproduktiv ta'limdan amaliy ta'limga o'tish. Biz maktabda insonga xayotiy masalalarni mustaqil xolda xal qilishni o'rgatamiz. Buning uchun faqat bilimlar emas, balki ularni ishlatish va turli sharoitlarda qo'llash ko'nikmasi xam kerak. Ana shu nuqtai nazardan xozirgi maktabda ustunlik qiladigan o'qitishning reproduktiv usuli maqsadga muvofiq emas.

Masalan, xozir teatrlashtirish keng tarqalgan. Bunda jiddiy spektakllarni qo'yish xaqida gap borayotgani yo'q. Darsda kichik saxnani o'ynash: bolalarga tasodifan qadimgi odam uchrab qolsa, u bilan nimalarni gaplashishlarini o'ylab ko'rishni taklif qilish mumkin. Shu payt birdan shkafning eshigi ochilib, undan «Qadimgi odam» chiqadi.

U teriga o'ralgan va qo'lga so'yil (tayoq) ushlab olgan. Teri bo'lmasa ag'darma nim po'stin kiygan. So'yilning og'irligini chamalab va terini siypalab ko'rib, «Qadimgi odamdan» uning qabiladoshlari va yuz ming yil avval qanday yashaganini so'rash o'quvchilar uchun qiziqarli. Undan gugurtsiz olov yoqishni xam o'rganish mumkindir.

Bilishga doir yurishlar va ekskursiyalar xali barchaga ma'lum. Lekin bunda bolalarning o'zlari muammolarni qo'yishlari, gipotezalarni bayon qilishlari va ularga javob topishlari muximdir. Bu borada daladagi o'simliklarning nima uchun xar xil o'sishi, gunafshaning chiroyliligi va xokazolar xaqida fikr yuritish g'oyat foydalidir. Sinfda o'quv jarayonini bolalarni qiziqtiradigan savollarga javob topish yo'sinida tashkil qilish mumkin.

Xech qachon unutmashlik kerakki, pedagogik jarayonning ikkita qatnashchisida — o'qituvchi va o'quvchida ikki xil maqsad bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchini tabiat xodisalari bilan tanishtirishni istasa, o'quvchi o'yin uchun vaqt topish xaqida o'ylaydi. Buni bitta yo'ldan ikki xil maqsadga qarab borish desa bo'ladi.

Faoliyatga intilishning eng yaxshi omillaridan birig'ayratlanishdir. O'qituvchilardan o'quvchi darsdan nima olib ketishi kerakligini so'ralsa, ular uyga vazifa, yangi bilimlar, baxolar, deb javob beradilar. Aslida o'quvchi uyiga zavq-shavq va qoniqish bilan, yana darsga kelish

ishtiyoqi bilan qaytishi kerak. O'qituvchining darsda nimanidir amalga oshirishda ulgurmagani xech gap emas. Uning bolalarda uyg'otgan qiziqishi keyingi safar kamchilikni to'ldirishda unga yordam beradi. Dars oxirida o'qituvchi bolalarni g'ayratlantiradigan savolni ochiq qoldirsa, bolalar sarguzashtlarning davomini kutgandek u bilan yana uchrashishga intiladilar.

Afsuski, darsliklarimizdagi matnlarda aqlga nomuvofiq fikrlar uchramaydi, barcha ziddiyatlar bartaraf etilgan va shunga ko'ra darsliklar zerikarli. Odatda dastlabki manbalarda aqlga nomuvofiq fikrlar, ziddiyatlar, to'qnashuvlar juda ko'p bo'ladi. Dastlabki manbalardan foydalanish yaxshi, lekin ularni o'qish qiyin. Shuning uchun, bir tomondan, bolalar tushunadigan tilda yozilgan, ikkinchi tomondan, o'zaro zid fikrlar uyg'otadigan mazmundagi o'quv matnlari zarur.

Bizning juda bo'sh o'quv materiallarimizni xayoliy qo'shimchalar bilan jonlantirish mumkin va bu ish murakkab emas. Masalan, o'qituvchi darsni quyidagicha boshlaydi: «O'zimizni kosmik kemada uzoq galaktikadagi noma'lum planetaga uchib kelgandek xis qilamiz. Undagixamma sharoit xuddi yerdagidek, lekin faqat tortish kuchi kam. Unda qanday xayvonlar yashashi mumkin?» Bu xolda bolalarning maqsadi mazkur planetada xayvonot dunyosini ko'paytirishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi esa ularga yerdagi xayvonot dunyosini o'rgatishni ko'zlaydi. O'qituvchi xam, o'quvchilar xam o'z maqsadlariga erishadilar, binobarin taqqoslash bilishning yaxshi yo'lidir.

Maktablarimizdagi o'quv predmetlarimizning mazmunida asosiy e'tibor definisiyalarga, ya'ni tushunchalarni ta'riflashga qaratilgan. Lekin ana shu tushunchalarga turli nuqtai nazardan qarash g'oyat foydalidir. Xar qanday ob'ekt o'zi xaqidagi tushunchaning ta'rifidan ancha boydir. Bolaning miyasiga tushunchalar ta'rifini qanchalik ko'p tiqishtirsak, ana shu boylikning imkoniyatlari shunchalik yo'qolib boradi.

O'qituvchining materialni takrorlash va mustaxkamlashga qaratilgan vazifalari xam o'quvchilarning faoliyatini kuchaytirishi lozim. Uyga beriladigan vazifaning o'qish va so'zlashdangina iborat bo'lishi ma'qul emas. Undan ko'ra bolalarning o'qituvchiga savollar bergani yaxshiroqdir. Ammo o'tilgan mavzu bo'yicha berilgan savollar o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyorlashi kerak. Suv solingan idish isitilsa, itarilish kuchi qanday o'zgaradi. O'qituvchi darsda isbotlagan qoidalarni amalda sinab ko'rishni bolalarga tavsiya etish mumkin. Chunki baxslashish uchun bilim kerak.

Xozir maktablarda o'quvchilarga o'zlari o'rganadigan predmetlarni yoki mavzularni tanlash xuquqini berish mumkinligi xususida gaplar bo'layotir. Boladan ko'chaga chiqishdan oddin etigini kiyish yoki kiymasligini so'rash kerak emas. Chunki u «kiymayman» deyishi mumkin va so'ragan kishi mulzam bo'lib qoladi. Undan etikni avval chap yoki o'ng oyoqqa kiyishini so'rash boshqa gap. U o'zining tanlash xuquqidan qoniqish bilan foydalanadi.

4. Ta'limning faol usullari va texnikasi

Pedagogik jarayon - ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi berilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan va belgilangan natijaga olib keluvchi o'zaro ta'sir jarayonidir.

Rasmdan ko'rinib turibiki, ta'lim natijalari bevosita quyidagilarga bog'liq:

-ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchining o'zaro munosabatiga;

-ta'lim texnologiyalariga.

Sxemadan ko'rinib turibiki, usul - bu loyixalashtirilgan maqsad bilan yakuniy natija o'rtasidagi bog'lab turuvchi aloqadir.

Maqsadlar, bizning ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatimizda vositalar yordamida amalga oshiriladi, usullar esa, ularni amaliy bajarilishini ta'minlaydi.

Dars berish usullari - ta'lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir, o'qish usullari esa ta'lim oluvchining faoliyatini tashkil qilish vositasidir.

Ma'ruza - katta xajmdagi o'quv materialni nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etish. Bu usulning asosiy vazifasi - ta'lim berish va o'rgatish. Belgilari: qat'iy tuzilmaga ega; nutqiy-mantiqiy bayon qilish, berilayotgan axborotning ko'pligi.

Ma'ruzani o'qituvchi xikoya qiladi, o'quvchilar esa ularni sustlik bilan tinglaydilar. Buning uchun ma'ruza o'tkazishning faol usullaridan qo'llanilsa, ta'lim maqsadiga erishishning faol usulini xam tadbiiq qilish mumkin: *muammoli ma'ruzalar; ma'ruza-konferensiyalar;*

konspektsiz ma'ruzalar - fikrni so'z bilan ifodalash; mualliflik ma'ruzalari; ma'ruza munozaralar; qaytar aloqa texnikasi qo'llangan ma'ruzalar; aniq vaziyatni taxlil qilish ma'ruzalari.

Ma'ruza qilayotganda o'qituvchi o'quvchilarni ishtirok etish elementlarini kiritishi mumkin: savol berib tinglovchilarning javoblaridan foydalanishi; vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat etishi; aniq vaziyatlarni taxlil qilishi; kundalik xayotdan misollar keltirishi; ularni savol berishga undashi; ilgari o'rganilgan dalil va vaziyatlarni yangilari bilan taqqoslashni amalga oshirishi; materialni qiziqarli qilib jonli bayon qilishi.

Pedagogik texnikadan foydalanish: nutq oxangini o'zgartirish (auditoriya bo'ylab xarakterda bo'lish), imo-ishoralardan foydalanish; berilib, qiziqarli ma'ruza qilish, darsni qiziqroq va faolroq qiladi; O'quv materialni bayon qilish sur'ati (temp) xam katta axamiyat beradi (o'quvchilar asosiy joylarini yozib olishlari uchun sekinroq aytib turilishi lozim).

Ko'rgazmali qurollardan (illyustatsiya, vidio va boshq.) foydalanish xam materialni samarali qabul qilishga va tushunishga yordam beradi.

Tushuntirish- bayon qilinayotgan materialni turli xolatlarini taxlil qilish, tushuntirish, izox berish va isbotlash yordamida o'quv materialni bayon qilish.

Agar o'qituvchi quyidagi didaktik masalalarni yechmoqchi bo'lsa, bu usullar birgalikda bilimni mantiqiy, tartibli, tushunarli, xis-xayajonli qilib yetkazish uchun qo'llaniladi: tushuntirish, tasvirlash, eslash, sanash; toifalar bo'yicha taxsimplash; ta'riflab berish; baxolash; motivlashtirish (mavzu, sabab, dalil) va x.k.

Namoyish - o'quvchilarni tabiiy xolatda xodisalar, jarayonlar, ob'ektlar bilan ko'rgazmali-xissiy tanishtirish.

Bu usulning yetakchi vazifasi-o'qitish.

Doskada soddagina ko'rinishi yoki sxemalar chizish tarzida (tushunishni yengillashtiradi).

Namoyish natijasida ma'lumotlar o'quvchilar ongiga to'laroq, osonroq va tezroq singadi.

Buning uchun: ob'ektlarni to'g'ri tanlash; o'quvchilar diqqatini namoyish qilinayotgan xodisalarning muxim taraflariga yo'naltirish; namoyish jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilar namoyish qilinayotgan ob'ektlarni nafaqat ko'z bilan ko'ra bilishlari, iloji bo'lsa, ularni barcha sezish a'zolari bilan qabul qilishlari lozim; o'quvchilarga ob'ektning o'rganilayotgan sifatlarini mustaqil o'lchash imkonini yaratish.

Illyustratsiya - xodisa, narsa, jarayonlarni tasviriy shaklda sxema, reproduksiya, yassi modellar yordamida ko'rsatish va qabul qilishni ko'zlaydi.

Bu usulning asosiy vazifasi - o'rgatish. Ilyustatsiya usulining vositasi bo'lib suratlar, jadvallar, rangli xaritalar, albomlar va atlaslar xizmat qiladi.

Ko'rgazma qurollarini va illyustratsiya shakllarini tanlayotganda o'qituvchi uning bilim olish jarayonidagi ta'lim-tarbiyaviy vazifasini, joyini, rolini puxta o'ylab ko'rishi va ko'rgazma materiallarini eng ma'qul xajmini tanlab olishi kerak bo'ladi. Katta xajmdagi illyustratsiya o'quvchini o'rganilayotgan xodisalarning tub mohiyatini aniqlashdan chalg'itadi. Ilyustatsiyalarni o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yishi va o'qitish jarayonida kerak bo'lgandagina ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Vidiousul - axborotni ko'proq ko'rgazmali o'zlashtirishga asoslangan bo'lib, unda kinoskop, proektor, konoapparat, o'quv televideniyesi, vidiomagnitafon, axborotni displeyda aks ettiruvchi kompyuterlardan foydalaniladi.

Ushbu usulning samaradorligi vidio qurollarining va qo'llanilayotgan texnik vositalarning sifatiga xam bog'liqdir. O'qituvchidan o'quvchilarni o'rganilayotgan muammolar doirasiga kiritish, ularning faoliyatini yo'lga solish, umumlashtiruvchi xulosalar yasash, mustaqil ish jarayonida ularga aloxida yordam berish talab etiladi.

Kitob bilan ishlash, laboratoriya usuli, mashqlar. Ushbu gurux usullari. O'quvchilarning nafaqat tayyor bilimlarini o'zlashtirishni va xotirada saqlab qolishni, balki bevosita ta'lim beruvchining raxbarligi ostida algoritm (namuna) bo'yicha xarakatlarni bajarish maxorati va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan reproduktiv faoliyatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Laboratoriya usuli- bu shunday ta'lim usuliki, unda o'quvchi o'qituvchi raxbarligida

oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o'tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi va shu jarayonda yangi bilimni anglaydi va tushunib yetadi.

Mashq - ta'lim usuli bo'lib, o'tilgan materiallarni amaliyotda qo'llash maqsadida, reja bilan tashkil etilgan amallarni ko'p marotaba bajarishdir.

Bu usulning asosiy funksiyalari: o'rgatuvchi va rivojlantiruvchi. Bu usul o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Mashqlarning quyidagi turlari mavjud: -maxsus; sharxlangan; yozma; og'zaki; ishlab chiqarish - mexnat; laboratoriya - amaliy.

Suxbat - o'qitish va o'qishning diologik savol-javob usuli.

Munozara - faol ta'lim usuli bo'lib muxokama, ma'lum muammo bo'yicha fikr almashinuv ko'rinishida o'tadi.


Munozara usuli barcha funksiyalarni bajaradi. Ushbu usuldan, quyidagi maqsadlar uchun foydalanamiz: yangi bilimlarni shakllantirish; o'quvchilarda u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, tub ma'nosiga yetishga motivatsiyani ta'minlash; o'quvchilarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishni o'rgatish; kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilarga o'z fikrida mustaxkam turish va uni ximoya qilishga yordam berish.

Munozara rivojlanishi mumkin, qachonki: erkin munozara bo'lsa; yoki biror yo'nalishda - boshqariladigan munozara bo'lsa.

Miyaga xujum (breynstorming) - g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Qtnashchilar birlashgan xolda qiyin muammoni yechishga xarakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar (generatsiya qiladilar).

Bu usul barcha funksiyalarni bajaradi: lekin uning asosiy vazifasi - muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta'lim oluvchilarni motivatsiyasini uyg'otish.

Pinbord (inglizchadan: pin-mustaxkamlash; board-doska). Bu o'qitish usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suxbati amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik munozara olib borish funksiyalari - rivojlantiruvchiva tarbiyalovchi vazifadir: o'quvchilarda muloqat yuritish va madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish maxorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.



1. Ma'ruza, doklad	Eshitganimizning 5%
2. O'qish	O'qiganimizning 10%
3. Video, rasm, ko'rgazmalarni ko'rish	Ko'rganimizning 20%
4. Tajribani namoyish qilish	Ko'rgan va eshitganimizning 30%
5. Munozara	Birga muxokama qilganimizning 40%
6. Mashq	O'qigan, yozgan, gapirganlarimizning 50%
7. Ishbilarmon o'yin, loyixa usuli	Mustaqil o'qiganlarimizning, taxlil qilganlarimizning, muxokama, ximoya va yozganlarimizning, namoyish qilganlarimizning 75%
8. Boshqalar ni o'qitish	Boshqalarni o'qitgan narsalarimizning 90% ni

Rolli o'yin, ishbilarmonlik o'yini kabi, vaziyatda ko'rsatilgan muammoni yechish bo'yicha qatnashchilarning birgalikda faol ish olib borishlariga asoslangan. Mavzu qatnashchilarning bitta majburiy maqsadlari bor - muammoni yechish. Lekin individual maqsadlar, ishbilarmonlik o'yinidagi kabi kelishib olinmaydi. Rolli o'yin qatnashchilarining har birini maqsadi - g'alaba qozonish, o'zini ko'rsatish. Vaziyatli o'yin yakunlarini baxolash

faqatgina umumiy maqsadga erishish natijalariga qarab emas, balki xar bir qatnashchining maqsadga erishishiga qarab belgilanadi.

Muammoli vazifalar usuli. Muammoli vazifalar usuli – o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U, aniq vaziyatlarni taxlil qilishi, baxolashi va keyinchalik qaror qabul qilishidan iboratdir. «Piramida»da, pog‘ona ko‘rinishida, o‘quv natijalariga erishishning xar bir usulni xissasi ko‘rsatilgan.

«Piramida» asosida ta‘lim usullarining eng unumlilari o‘rin olgan.

O‘quv guruxidagi ta‘lim oluvchilarning soni muxim ahamiyatga ega. Agar ular ko‘pchilik bo‘lmasa, eng faol usuldan foydalanib, o‘qitishni jadal sur‘atda olib borish mumkin. Agar o‘quvchilar ko‘p bo‘lsa, agar siz faol usullardan o‘zini oqlamagan darajada ko‘p foydalansangiz, ularning xar biriga yetarli e‘tibor berish uchun vaqtingiz yetishi amri maxol. Katta guruxlar uchun o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish usullari (ma‘ruza, xikoya, tushuntirish) ko‘proq mos keladi.

5-MAVZU: TALIM MAZMUNI. DTS XAQIDA TUSHUNCHA.

Reja:

1. Ta‘lim mazmuni xaqida tushuncha
2. Boshlang‘ich maktab ta‘limi mazmunini qayta ko‘rib chiqishniig asosiy yo‘nalishlari.
3. O‘quv reja, dasturlar va darsliklar xaqida tushuncha.
4. DTS xaqida tushuncha. Umumiy o‘rta ta‘limning DTS xaqida.
5. O‘zbekistonda xalq ta‘limi tizimi. Xalq ta‘limi tizimini tashkil etish tamoyillari. Xalq ta‘limi tashkilotlari va turlari.
6. O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimi.
7. Chet el mamlakatlaridagi ta‘limning mazmuni

Tayanch so‘z va iboralar: ta‘lim, bilim, ta‘limolish, ta‘limberish me‘yoriy xujjat, tayanch o‘quv reja, ishchi o‘quv reja, namunaviy o‘quv reja, o‘quv dastur, o‘quv qo‘llanma, darslik, DTS, standart...

1. Ta‘lim mazmuni xaqida tushuncha.

Ta‘limning asosida jamiyat rivojlanishining ob‘ektiv ehtiyojlari turadi. Ta‘lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo‘shilishini ta‘minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanishi yo‘liga o‘tgan O‘zbekistonda hozirgi bosqichda xalq ta‘limi tizimiga, pedagogika faniga, yosh avlodda mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e‘tibor berilmoqda.

XXI asr pedagoglari va psixologlarining diqqat markazida o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarinig shakllantirish, ularni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirish jarayonlarini uyg‘unlashtirish, faoliyat va ongning o‘zaro bog‘liqligi nazariyasini ishlab chiqish, mustaqil o‘quv bilish ishlari, o‘qishni faollashtirish, ta‘lim jarayonlarini optimallashtirish, faol ta‘limning shakl va metodlaridan foydalanish kabi muammolar asosiy o‘rin oldi. Ularni ishlab chiqish mamlakat pedagogika va psixologiya fanlarida jahon bo‘yicha haqli ravisha e‘tirof etilgan turli yo‘nalishlar va maktablar vujudga kelishini oldindan bilish imkonini berdi.

Ta‘lim — jarayon bo‘lib, u natija va tizimdir. Ta‘lim jarayon sifatida bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning ma‘lum yigindisini faoliyat va munosabatlarining tegishli tajribasini o‘zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta‘lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasshsh o‘zlashtirishda erishilgan darajadir. Ta‘lim tizimi sifatida - davlat muassasalari va boshqarish organlariniig majmuasi bo‘lib ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa ta‘lim doimo bir yo‘la tarbiyalash jarayonini ham, o‘qitish jarayonini ham ifodalaydi.

Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning kamol topishi, o‘z mavqeini anglashi va o‘zini ko‘rsatishi masalalari birinchi o‘rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o‘zi tomonidan tasodifiy ravishda qam, maqsadga

muvofoq yo'sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbkorlikni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da'vat etilgan.

Ta'lim deganda shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topishi jarayonini, uning ongli ravishda ayrim ibratli qiyofalarga yo'nalishi va tarixan maydonga kelib, ijtimoiy ongda ma'lum darajada yorqin iz qoldirgan ijtimoiy namuna (masalan, sparta jangchisi, xushahloq ruhoniylar yoki serg'ayrat ishbiarmondek) bo'lishga, har tomonlama barkamollikka intidish jarayonini tushunish mumkin. Ana shu tushunchaga ko'ra ta'lim butun jamiyat va shaxslar hayotining ajralmas jixati sifatida namoyon bo'ladi va so'zning keng ma'nosidagi «tarbiya» tushunchasiga o'xshaydi. Lskin ko'p ma'noliligi ko'rsatilmasa «ta'lim» so'zini to'liq anglab bo'lmaydi. Masalan, ta'lim deganda ma'lum hajmdagi bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tushuniladi. Ta'limga shaxsni o'qitish va kamol toptirish jarayonining tegishli yo'sinda tashkil etish sifatida qarash ham mutlaqo to'g'ridir. Bulardan tashqari, shubhasiz, ta'lim bilimlar, ko'nikmalar hamda malakalarni berish va o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyat tizimi, shuningdek, ma'lum ijtimoiy institut (o'ziga xos vazifalarni bajarish uchun tuzilgan muassasalar tizimi)dir.

Ko'ramizki, ta'lim turli shakllarda namoyon bo'ladigai ko'p tomonli hodisa (darajada, jarayon, faoliyat)dir. O'quv-tarbiya jarayoni tizimining strukturasi, ana shu jarayonning mazmuni, pedagoglar va o'quvchilarning faoliyati, shuningdek, amalga oshirilgan ishlarning natijasi mazkur tizim jamiyatning qanday tarixiy tipiga mansubligiga bog'liqdir. Mana shularning hammasini hisobga olib quyidagilarni aytish o'rinlidir: ta'lim — nisbatan mustaqil tizim bo'lib, uning vazifalari jamiyat a'zolarini muntazam ravishda o'qitish va tarbiyalash orqali ularni ma'lum boyliklar, ko'nikma va malakalar hamda axloq normalari bilan qurollantirishdir. Ana shunday o'qitish va tarbiyalashning mazmunini pirovard natijada mazkur jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi hamda moddiy texnik taraqqiyotining darajasi belgilaydi.

Endilikda har bir xalqning faqat o'z milliy madaniyati asosida o'qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, ujahon madaniyati boyliklarini ham anglashi zarurligi to'g'risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek, an'anaviy vazifa o'rniga atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni yetishtirish vazifasi olg'a surilmokda. Ilgari ma'lumotlilik darajasi o'rganilgan qoidalar, tahlil qilingan asarlar, yodlangan she'rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko'nikmasi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda bu daraja miqyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni qo'ya bilish har qanday ishga ijodiy yondoshish kabi xislatlar ma'lumotlilik darajasini ko'rsatadi. Avvalgi vaqtlarda o'quvchilarni axborotlardan xabardor qilingan bo'lsa, endi ularda hayotni o'zgartirish, uni yaxshi tomonga burish ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berish zarur. Eng muhimi butun tarbiyaviy jarayonni insonga qaratishdir. Ta'lim insonni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi va takomillashtirishi ham kerak. Boshqacha aytganda, jamiyatda ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari tobora keng yoyilmoqda. Shubhasizki, jamiyat va maktabni insonparvarlashtirish muammosi ta'limning og'zaki axborot — usulini unumli, yaratuvchilik usuliga aylantirish bilangina hal bo'lmaydi. Mazkur jarayonning eng muhim yo'nalishi ta'lim mazmunini insonparvar qilishdir. Bu tadbir birinchidan, shaxsda madaniyatni shakllantirishda fanlarning rolini oshirishdan, xalq milliy madaniyatining barqaror boyliklarini tushunishdan, ikkinchidan, tabiiy-ilmiiy va texnika fanlarini ekologik hamda iastimoiy ahamiyatli jihatlar bilan boyitishdan iboratdir.

Ta'limni insonparvarlashtirishning eng zarur tomonlaridan biri maktab faqat o'quvchilarga ma'lum hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda yordam berib qolmay, balki ularni madaniyatga, uning boyliklari va xilma-xilligiga jalb etishi kerak. Hozir o'zbek maktabining milliy xarakteri muammosi g'oyat jiddiydir.

2. Boshlang'ich maktab ta'limi mazmunini qayta ko'rib chiqishniig asosiy yo'nalishlari

Boshlang'ich maktab har bir bola uchun baravar imkoniyat va sharoitlarni ta'minlashi tufayli insonni o'qitish va tarbiyalashning umumiy tizimida muhim rol o'ynaydi. Ana shu davrda bolaga singdiriladigan bilim inson shaxsini, duneqarashini shakllantirish, uni kamol toptirish darajasini belgilaydi. Boshlang'ich maktabda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va

malaka, faqat yoshlarning maktabda yoki boshqa o'quv yurtida keyinchalik o'qitish va tarbiyalashning asosini emas, balki yetuk insonning amaliy, ijtimoiy faoliyati sifatini ham ko'rsatadi.

Hozirgi bosqichda boshlang'ich maktab uzluksiz ta'limning umumiy tizimida **muhim qism, birinchi zveno** hisoblanadi. Shuning uchun unga quyidagi vazifalar qo'yiladi: **o'quvchilarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarni tarkib toptirish; o'quvchilarning ongini boyitish, bilimga qiziqishlarini oshirish; o'quvchilarni o'rta maktabning navbatdagi bosqichida muvaffaqiyatli o'qishga tayyorlash.** *Maktabdagi to'rt yillik boshlang'ich ta'lim dasturida o'quvchilarga muayyan bilim, ko'nikma va malakalar tizimini berishdan tashqari, ularni tabiat va jamiyat haqidagi dastlabki bilimlar asosida dunyoning umumiy manzarasi bilan tanishtirish, ularda dunyoni yanada chuqurroq bilish uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish, tevarak olamga to'g'ri qarash va munosabatni tarbiyalash ham nazarda tutiladi.*

Boshlang'ich maktab nutqning ma'lum darajada o'sishini, o'qish, yozish va hisoblash malakalarini o'zlashtirishni hamda ta'limning keyingi bosqichlarida dasturni muvaffaqiyatli o'rganish imkonini beradigan umumiy kamolotni ta'minlashi kerak. Ta'limning dastlabki bosqichida bolalarning axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyasiga hamda ularning sog'lig'ini saqlash masalalariga katta ahamiyat beriladi.

Asta-sekin bolaga faqat bilim berishgagina emas, balki uni tarbiyalashga ham qaratilgan o'qitishning yo'nalishini belgilaydigan qoidalar amalga oshiriladi.

O'zbekistonda xalq maorifining tashkil topishi va rivojlanishining qar bir bosqichida boshlang'ich ta'lim bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishildi. *1934 yildayoq respublikada boshlang'ich maktab (to'rt yillik bosqich maktabi) hajmidagi umumiy ta'lim masalasi ham hal qilindi. Shundan keyin respublikamizda rivojlanishning ikkinchi bosqichi boshlanib, boshlang'ich maktabni bitirgan hamma bolalar uchun yetti yillik umumiy majburiy ta'limni joriy etish vazifasi qo'yildi va hal etildi.*

Boshlang'ich maktab rivojlanishining xususiyatlarini baholash uchun shuni qayd etish kerakki, o'sha paytda o'qish 8 yoshdan boshlanadigan to'rt yillik boshlang'ich maktab tizimi to'la tarkib topdi. Keyinchalik u zamonaviy boshlang'ich ta'limni qurish asosida tobora takomillashdi. Bu esa keyingi o'qish va amaliy faoliyat imkoniyatini ta'minlaydigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning mukammal doirasidan iborat birinchi bosqich bo'ldi. Unda ona tili, arifmetika, geografiya, tabyathunoslik yetarli darajada o'rganildi.

O'sha paytlarda tashabbuskor o'qituvchilar, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Oqilxon Sharofutdinov, Siddiq Rajabov va boshqalar mashhur pedagoglar ilg'or g'oyalarini keng miqyosda amalga oshirdilar. Ijodiy kuchlarni o'sishi va faollashuvi boshlang'ich ta'lim-tarbiyaning yanada rivojlanishida g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Ilg'or o'qituvchilar va metodistlar, xalq maorifining tashkilotchilari pedagogika fani oldiga boshlang'ich ta'limni qayta qurish vazifasini qo'ydilar.

Zamonaviy boshlang'ich maktabni to'g'ri baholash uchun uni qayta qurishning xarakterini, yo'nalishini belgilaydigan eng muhim umumiy talablar ishlab chiqildi. Ana shular asosida o'quvchilarning haddan tashqari qiynalishi bartaraf etildi, maktab dasturidan ortiqcha tafsilotlar, ikkinchi darajali va bir-birini aynan takrorlaydigan o'quv materiallari olib tashlandi.

Ilg'or tajribalarni sinchiklab tahlil qilish, metodistlar, pedagoglar va psixologlarning tadqiqotlari iatijalarini hisobga olish bilan asosiy pedagogik mezonlar ishlab chiqildi. Bu mezonlar konsepsiya dasturlar, darsliklar hamda metodikalarda qam amalga oshirilib, ta'limda qo'llandi. Mazkur mezonlar quyidagilardan iborat edi:

-o'zlashtirishga tavsiya etiladigan yangi bilimlar o'quvchilarning ongi amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqishi, ularga qiziqish uyutishi kerak;

-bolalarning o'zlashtirishi ularning maqsadga muvofiq faoliyati sharoitida amalga oshishi dardkor, bu faoliyatning usullarini esa muntazam ravishda o'rgatish lozim;

-o'quv faoliyati muvaffaqiyati o'quvchilarning yuksak darajada faolligi va mustaqilligiga bog'liq. O'qituvchi esa ularga mana shu sifatlarni shakllantirish maqsadida yordam berishi zarur. Buning muhim omili o'quv faoliyatining ta'lim motivlarini tarkib toptirish, bolalarda bilimga

qiziqish uygʻotishdir. Shunga koʻra oʻqitishning yangi metodlari va usullarini ishlab chiqish, ularni faollashtirish, oʻquv faoliyatini metodik jihatdan taʼminlash kerak;

-oʻqitish jarayonida barvaqtroq umumlashtirishlar qilish va ularga oʻquvchilarni jalb etish lozim;

-har bir darsda bilimlarni faqat kengaytirishga emas, balki boshqacha sharoitlarda qoʻllashga ham yordam beradigan yangi element boʻlishi kerak;

-takrorlash har bir mashgʻulotda muntazam ravishda amalga oshirilishi, ularda faqat eslash emas, balki boshqa akliy ijodiy ishlar ham qoʻllanishi zarur; takrorlash uchun maxsus darslar shaklida vaqt ajratilmaydi;

-darslarning materiallaridan oʻquvchilarni tarbiyalash maqsadlarida koʻp foydalaniladi. Bunda oʻqituvchi oʻquvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularga asosan muayyan tushunchalar shaklida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, etik va mehnatga doir bilishmlar beradi, bolalarda voqealarga, faktlar va hodisalarga toʻgʻri munosabatni vujudga keltiradi, ularni oʻz xatti-harakatlaridan ana shu bilimlardan foydalanishga oʻrgatadi. Ana shu mezonlarga amal qilinsa taʼlim-tarbiya samaradorligi yanada oshadi.

3. Oʻquv reja, dasturlar va darsliklar

Barcha maktab predmetlarida beriladigan taʼlimning mazmuni davlat hujjatlarida, oʻquv rejasida, oʻquv dasturlari va darsliklarida aks etgan. Ana shu hujjatlar respublikadagi barcha maktablar uchun majburiydir.

Oʻquv rejasi. Maktabning oʻquv rejasi maktabda oʻrgatish uchun tanlangan oʻquv predmetlarini, ularning taʼlim olish yoʻllari boʻyicha taqsimlanishini, har bir predmetga ajratilgan soatlar miqdorini va shu soatlarning haftalarga boʻlinishini belgilaydi.

Oʻquv rejalari xalq taʼlimi vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. Oʻquv rejalarini tuzishga predmetli oʻqitish prinsipi asos boʻladi.

Oʻquv rejasi taʼlimning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat boʻlib, unda mazkur oʻquv yurtida oʻrganiladigan oʻquv predmetlarining tarkibi, ularning oʻquv yillari va haftalari boʻyicha taqsimlanishi hamda har bir oʻquv predmeti uchun ajratilgan vaqtlar miqdori ana shularga muvofiq ifodalanadi. Oʻquv rejasi aslida taʼlim mazmunining qabul qilingan u yoki bu nazariy konsepsiyasini normativ yoʻsinda va yaxlit holda aks ettiradigan asosiy hujjatdir.

Taʼlimning mazmunini ifodalovchi hujjat sifatidagi oʻquv rejasi ijtimoiy buyurtmaning pedagogik talqini natijasida tarkib topgan taʼlim mazmunining ifodasiga bevosita bogʻliq boʻladi.

Jahon pedagogikasida oʻquv rejasini ayrim oʻquv predmetlaridan tuzish kerakmi yoki turli fanlarga doir bilimlar qandaydir amaliy ish yoki tadqiqot doirasi guruxlanadigan komplekslar va loyihalardan tuzish kerakmi, degan masala xususidagi munozara bormoqda. «Amerika Qoʻshma Shtatlarida kompleks oʻqitish uzoq muddatli elementar maktabdagina emas, balki oʻrta maktabda ham davom etadi. Komplekslik gʻoyasining oʻzi nihoyatda keng tus olgan. Amerika pedagogikasida oʻquv dasturlarini predmetlar boʻyicha tuzishga qarshi kurash boshlanganiga yarim asrdan oshdi.» Ish tajribalari va anchagina pedagogik tadqiqotlardan koʻrinishicha, maktabda oʻrgatish uchun tanlangan oʻquv predmetlarini bir yoʻla oʻrganish mumkin emas. Chunki, birinchidan, bunga jiddiy chegaralangan, oʻquv vaqti imkon bermaydi; ikkinchidan, ayrim oʻquv predmetlarini oʻzlashtirish uchun oldin boshqa oʻquv predmetlarini oʻrganish shart. Oʻtmishda ana shunday fikr yuritish maʼlum predmetlarini jiddiy izchillik prinsipini mustahkamlashga urinish imkonini berdi.

Oʻquv rejalari oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. Oʻquv rejasiga mazkur yoshdagi oʻquvchilarga mos predmetlar tegishli hajmda kiritiladi va ular oʻquvchilarning har tomonlama muvaffaqiyatli kamol topishiga yordam berishi koʻzlanadi. Har bir predmet uchun oʻquv soatlarning miqdorini belgilashda, birinchidan, predmetning taʼlim tizimidagi roli va ahamiyati, ikkinchidan, mazkur predmet boʻyicha oʻrganilishi lozim boʻlgan oʻk.uv materialining hajmi, uchinchidan, u yoki bu predmetni oʻrganishning didaktik xususiyatlari eʼtiborga olinadi.

Oʻquv rejasining tushuntirish xatida ikkita qoida yeritiladi: oʻquv rejasining tuzilishi prinsiplari taʼlim mazmunining tarkibi va strukturasi taʼsir etadigai, uni toʻgʻrilaydigan

omillardan biri sifatida ifodalanadi; ta'lim mazmunining, ta'lim konsepsiyasini aks ettiradigan hujjat sifatidagi o'quv rejasining vazifalarining kengaytirmay turib, rejada va o'quv dasturlarida ta'lim mazmunining tarkibi va strukturasi to'liq yoritib bo'lmaydi.

O'quv rejasida o'quv predmetlarining yaxlit kontegratsiyalangan tizimi ikki marta: maktabdagi ta'limning dastlabki va oxirgi pog'onalarida, o'qitishning boshlang'ich va yakunlovchi bosqichlarida ifodalanadi. Maktabning o'rta zvenosida predmetlarni tabaqali o'rganish asosiy o'rin oladi. Ta'limning boshlang'ich bosqichida integratsiyalangan kurslar kiritilishining sababi bolalarda yaqqol tabaqalangan kurslarga qiziqish bo'lmasligi, ya'ni ana shu davrda ular dunyoni yaxlit bilishi va idrok etishidir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchini bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'zi qiziqtiradi. Predmetni bilishga qiziqish aqliy faoliyatning murakkab shakllari rivojlanishiga va keyinchalik predmetlarning tavsiflanishiga bog'liq holda vujudga keladi.

Amaliyotdan ko'rinadiki, yangi tipdagi maktablarni yaratish, ta'lim mazmunidan ortiqcha mafkuraviylashtirish va cheklashlarni chiqarib tashlash orqali ta'limdagi qoliplarning barham topishi ancha tezlashmoqda. Lekin ta'lim jarayonining o'zini qayta qurish, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatining uslublarini o'zgartirish natijalari yaxshi sezilmayotir.

Maktablarda ta'limning mazmunini yangilash borasidagi tadbirlar va yechimlar orasidagi o'rta maktab o'quv materiallarini quyi sinflarga oddiygina ko'chirish bilan o'quvchilarning qobiliyatini tezroq rivojlantirishga, ta'limning sifatini oshirishga intilishlar ham uchramoqda. Bunday materiallar esa bolalar o'zlashtirishining psixologik xususiyatlariga ham, quyi sinfdagi o'qitish metodlariga ham to'g'ri kelmaydi. Shunga ko'ra mazkur tadbir ortiqcha so'zlarni kiritish, axborotlarni ko'paytirish bilan ta'limning mazmunini murakkablashtiradi va hajmini oshiradi, bolaning xotirasi cheksiz bo'lsada, uning uchun o'quv mashg'ulotini qiyinlashtiradi xolos.

Insonparvar munosabatni barpo etish qadriyatlarining o'zgarishini talab qiladi. Endilikda boshlang'ich ta'limda bilimlarning tayyor shakllarini o'zlashtirish va asosan faoliyatning qayta tiklash turlaridan foydalanish emas, balki bola faoliyatining bilim olish jarayoniga bog'liq izlanish turlarini faollashtirish kerak.

Psixologlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ta'lim ana shu yo'sinda qayta qurilsa, bola to'liq kamol topish sub'ektiga aylanadi. Shunda u faqat qayta tyklash va to'ldirish lozim bo'lgan bilimlar bilan ta'minlanadigan pedagogik ta'sir ko'rsatish ob'ekti hisoblanmaydi.

Bola faoliyatining jamoaga taqsimlangan shakllarida yoki o'qituvchi bilan birga ishlashda mustaqil bilim olish jarayoniga faol kirishadi va o'zining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan mustaqil bilim olish jarayonidagi faol izlanish ishlari, hatto qiyinchiliklarga duch kelinsa ham, bolaning sog'ligiga ijobiy ta'sir etadi. Shifokorlar va psixologlarning tasdiqlashicha, bolalar faolligining ro'yobga chiqmasligi ularga yomon ta'sir ko'rsatishi, intizomsizlikni, huquq buzish hollarini vujudga keltirishi, bolalarni «yuqoriga» emas, balki «pastga» yetaklashi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim mazmunini qayta qurishning butun murakkabligi shundaki, bolalarni kamol toptirish talabi ularning ijodiy ishlashini kuchaytiradigan metodlarni faol qo'llashga olib boradi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarurligi esa tafakkurning reproduktiv komponentlaridan voz kechishga yo'l qo'ymaydi. Bunda ularni oqilona birlashtirish, tafakkurning samarali va reproduktiv komponentlari shakllanishining dialektik birligiga erishish, ayrim tadqiqotchilar taklif qilayotganidek, reproduktiv komponentlarni inkor qilmaslik kerak.

Jamiyat uchun nihoyatda zarur alternativ maktablarga bolalarning yaxshi o'sgan va tayyorlangan sara qismi yigilayotgani, qolgan barcha bolalarni o'qitish odatdagi maktablarga yuklanayotgani sababli insonparvar pedagogika g'oyalarini amalga oshirish yo'liga kirgan ommaviy maktabning vazifasi juda murakkablashmoqda. Tabiiyki, bunday maktablarda ham bolalarga ma'lum bilimlar doirasida axborotlar berish va juz'iy ko'nikmalarni singdirish bilan cheklanish mumkin emas: ularni imkoni boricha yuqori darajada kamol toptirish kerak.

Dasturlik. Dastur va mukammal darslik o'qituvchi hamda o'quvchilar uchun, o'quv-metodik qo'llanmalarni tuzuvchilar uchun asosiy normativ materiallardir. Lekin o'qituvchilar dastur va darsliklar bilan ishlashda ularning normativ va ijodiy jihatlarini farqday olishlari kerak.

O'quv predmeti darsida ta'limning mazmuni asosan dasturda masalalar ro'yxati bilan ifodalanadi.

Dasturning asosiy vazifasi — o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo'linishi, ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi, Hatto, dasturdagi masalalar ro'yxati ham undagi boshqa bo'limlarning mazmunidan tashqari, protsessual yo'nalishi ham mavjudligidan dalolat beradi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limning mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, u darslikka o'tishni taerlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo'llanma hisoblanadi.

Masalalar ro'yxati — dasturning markaziy bo'limidir, ammo unda boshqa bo'limshar ham bo'lib, ular darslikning tuzuvchilari fikrini va o'qituvchilarning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solishi kerak. Har bir o'quv predmeti bo'yicha haqiqiy dastur umuman to'rt qismdan tushuntirish xati (har xil dasturda mazmuni turlicha); ro'yxat ko'rinishidagi mazmunning o'zi (mavzular, masalalar, laboratoriyalar va amaliy ishlar, namoyishlar, ekskursiyalar); predmetlararo aloqalar ko'rsatilgan bo'lim hamda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar ifodalangan bo'limlardan iborat bo'ladi.

Kursning maqsadlari va vazifalarini ifodalash — dasturning eng muhim elementidir. Xususan ana shu maqsad va vazifalar darsyaik muallifining dasturni amalga oshirishdagi ma'lum nuqtai nazarini va o'qituvchining darslikni to'g'rilashi hamda o'qitish jarayonini tashkil etishi uchun tegishli yo'nalishni belgilaydi. O'qituvchi, ayniqsa, yosh o'qituvchilar o'z izlanishlarining yo'nalishini belgilab olish uchun kursning maqsadini chuqur anglashlari kerak. Dasturlarda shunday vazifalar xam beriladiki, o'qituvchi ularni hal qilish uchun institutda tayyorlanmagan bo'ladi. Buning misoli sifatida ta'lim mazmuniga metodologik bilimlarning kiritilishini aytish mumkin. Kursga mana shunday talablar qo'yilishining o'zi o'qituvchilarni chuqur o'ylashga majbur etadi. Tajribali pedagog o'tgan yillardagi dasturlarda bunday vazifalar bo'lmaganini sezadi. Bu hol uning mustaqil bilim olishi, ijodiy izlanishi, shuningdek metodik birlashmada ishlashi uchun turtki bo'ladi.

Darslik. Dasturda ta'limning mazmuni masalalar ro'yxati orqali ifodalanadi. O'quv material o'quvchilarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar va didaktik materiallarda, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalarda yoritiladi. Darslik asosiy normativ hujjat hisoblanadi.

Darslik — o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda taxlil qilinadigan o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchiga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg'otishi, shu soha bo'yicha mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirishi kerak.

Darslik o'qituvchi uchun ham metodik yo'llanma sifatida xizmat qiladi: tushunchalarni kiritish tartibini, ularni yoritish chuqurligini, kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi.

Obrazli qilib aytganda, darslik o'qitish jarayonining «ssenariysi»dir. Unda o'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash yo'llarsh belgilanadi, emotsional qimmatli qadriyatlarni tarbiyalashning ayrim vositalari ko'rsatiladi. Darslikda ta'limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o'quvchilarning ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bosqichlar bo'yicha joylashtiriladi. Lekin boshlang'ich maktab darsliklari bag'oyat o'ziga xosdir. Ularning hammasida metodik apparat kichkina bo'lib u sinflar sayin astasekin vujudga keladi. O'rta maktabda ba'zan o'quvchi darslikdan tamomila mustaqil holda foydalana olish-olmasligi muhokama qilinsa, boshlang'ich maktabda bu ishga o'qituvchining rahbarligi majburiydir.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning tajribasini taxlil qilib, juda muhim kuzatishni amalga oshirish mumkin. Ular darslik va o'zlarining metodik qo'llanmalaridan aqida sifatida emas, balki normativ model sifatida foydalanadilar. Aslida o'qituvchylar sinfining ehtiyojini, shaxsiy imkoniyatlarini nazarda tutib o'z darsliklarini yozadilar. Ular darslikka zid ishlamaydilar, balki uni to'ldirib, kengaytirib va chuqurlashtirib, uning mualliflari bilan hamkorlikka kirishib ish olib

boradilar. Binobarin muallif bolalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, ularga tabaqali yendoshish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

O'qituvchi doimo o'quv yili boshlanishidan oldin va keyinchalik har kuni darslikka murojaat qiladi. Uning bundan maqsadi hargal xar xil bo'ladi. Darslik o'qituvchining qo'lida juda ko'p vazifalarni bajaradi. U avvalo predmetni o'qitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi ana shu vazifani biladi va uni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi.

4. DTS xaqida tushuncha. Umumiy o'rta ta'limning DTS xaqida.

Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti o'quvchilarning tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan eng kam mezonni belgilaydi.

Davlat ta'lim standarti bo'yicha ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari baholanadi. Standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'lim barqaror darajaga keltiriladi. Demak, ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qizi-qishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishdan qat'i nazar, barcha ta'lim muassasalari uchun majburiy hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjatlar asos qilib olinadi:

«Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bilan bog'liq farmonlari, farmoyishlari va asarlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davrlar ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5-son hamda «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» 1998 yil 13 maydagi 203-son qarorlari;

O'zRST 1.0—92. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi;

O'zRST1.1—92. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi. O'zbekiston Respublikasi davlat standartini ishlab chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi;

GOST 1.5—93. Davlatlararo standartlash ishlarini olib borish qoidalari. Standartlarning tuzilishi, bayoni, rasmiylashtirilishi va mazmuniga bo'lgan talablar;

O'zRST 1.9—95. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi, Tarmoqlar standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

Umumiy o'rta ta'lim - davlat ta'lim standartining tayanch o'quv rejasi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yori hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini minimum hajmdagi miqdorini o'zida aks ettiradi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar. Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lib, boshlang'ich 1—4-sinflar va umumiy o'rta ta'lim 1—9-sinflarni qamrab oladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich hamda umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning eng kam darajasini belshlab beradi.

Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dastur-larida o'z aksini topgan.

1—4-sinflar

A. Ona tili va o'qish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tili va o'qish bo'yicha quyidagi bilim, ko'nykma va malakalarni egallashlari shart:

a) O'qish texnikasi bo'yicha.

Miqdoriy ko'rsatkich; bir daqiqada 80—90 so'zni o'qiy olish.

Talablari. harflarni to'g'ri talaffuz etish; so'zlarni to'g'ri o'qish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o'qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish; sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish; so'z urg'ulariga rioya qilish; ohangga rioya qilish; ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish. b) Matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglash malakasi bo'yicha: Miqdoriy ko'rsatkich: 10 daqiqada 4—5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish.

Talablari. Og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi. Ideologik nutqda ta'sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo'lishi. Monologik nutqning ravon bo'lishi. Diktant yozish malakasi. Miqdoriy ko'rsatkich: 75—80 so'zdan iborat diktant yoza olish.

Talablari. Imlo xatolarga yo'l qo'yimaslik; ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi; berilgan izoxlarning aniqligi; lug'atlarning to'g'ri va aniq berilishi. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo'yicha: Mikdoriy ko'rsatkich: 5—6 gapdan iborat bo'lgan matnni fikr ehtiyoji bilan bog'liq mavzu asosida yaratish.

Talablari. Matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi ko'rsatilgan mavzu doirasida birlashishi; harf va tinish belgilarini to'g'ri yozish; husnixatda qatorlarni to'g'ri joylashtirish; so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilash; tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish; matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo'llay olish; matnda xat boshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta'minlash; uyadosh so'zlardan foydalana olish. Boshlang'ich ta'lim yakunida o'quvchilar kamida 20 ta kichik hajmdagi she'rlarni yoddan aytib bera olishlari shart.

B. O'zbek tili

«Ta'lim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun».

Ta'lim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib bo-riladigan maktablarning 1—4-sinflarida davlat tili ta'limidan o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart: o'zbek tilidagi 700 ta so'zni nutqlarida qo'llay olish; yozma va ogzaki nutq malakalariga ega bo'lish; fikr bayon qilish uchun zarur bo'lgan ayrim grammatik vositalarni o'z o'rnida qo'llay olish; bog'lanishli nutq elementlaridan to'g'ri foydalangan holda sodda matn tuza olish; xalq og'zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalariidan olingan parchalarni o'qib tushuna olish; mamlakatimiz mustaqilligi, ramzlari va bayramlari haqida so'zlab berish.

V. Matematika.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar matematikadan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart: a) Sonlar va hisoblashlarga oid: sonlarni o'qish va yozish, ularni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi ko'rinishidagi yozuvini tushunish; sanoq texnikasini o'rganish; sondan oldin va keyin keluvchi sonni aytish, kabi; natural sonlarni o'zaro taqqoslash «,» va «-» belgilarini to'g'ri qo'llash; sonlarni yozma qo'shish, uch xonali va to'rt xonali sonlarni yozish, bir xonali va ikki xonali songa ko'paytirish va bo'lish; Qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishning jadvali hollari natijalarini bilish, murakkab bo'lmagan hollarda 100 ichida og'zaki hisoblashlarni bajara olish; «yig'indi», «ayirma», «ko'paytma» va «bo'linma» atamalari ma'nosini tushunish va sonli ifodalarni o'qishda ularni qo'llay olish; 2—3 amalli sonli (shu jumladan, qavfli) ifodaning qiymatini topish; «... taortiq», «... takam», «... marta ortiq», «...marta kam» munosabatlarining, «hammasi», «qoldi», «teng» munosabatlarning ma'nosini tushunish va ularga tayangan holda sodda masalalarni yecha olish; miqdorlar (mahsulot narxi, mikdori va qiymati, to'g'ri chiziqli Harakatda yo'l, tezlik va vaqt) orasidagi boglanishlarni qo'llab, amaliy mazmundagi masalalarni yechish;

«yarim», «uchdan biri», «toʻrtburchak biri» atamaları maʼnosini tushunish va ularni qoʻllash, kasrlar yordamida ulushlarni yozish, doira va boshqa geometrik figuralar modelida $1/2$, $1/3$ larni koʻrsatish, amaliy mazmundagi masalalarni yechishda sonning ulushini va ulushiga koʻra sonni topa olish.

b) Geometrik figuralarga oid. rasmlarda kesma, uchburchak, toʻrtburchaklar (jumladan, toʻgʻri toʻrtburchak va kvadratlar), besh-burchak va aylanani tanish; tevarak-atrofdagi geometrik shakllarni tanish va topa olish; kesma uzunligini oʻlchash, berilgan uzunlikdagi kesmani yasash, kesma uzunligini koʻz bilan chamalab oʻlchay olish; chizgich va sirkuldan foydalanib toʻgʻri toʻrtburchak, kvadrat, uchburchak va aylanalar yasay olish; koʻpburchak perimetrini, toʻgʻri toʻrtburchak yuzini va kvadrat birliklarda tuzilgan figuralarning yuzini hisoblay olish; uzunlik (mm, sm, dm, m, km (va yuza) **sm, kv, dm, kv, m, kv**) oʻlchovi birliklarini, ular orasidagi asosiy nisbatlarni bilish, ularni oʻz oʻrnida qoʻllay olish.

G. Tabiiyot.

Bolangʻich sinflarda oʻquvchilar tabiiyot oʻquv faniga oid quyidagi bilim, koʻnikma va malakalarni egallashlari shart: a) Tasavvur qidish va bilish: jonli va jonsiz tabiatni, jism va moddalarni; tabiat hodisalari: haratsat, yetssiqlik, tovush, elektr, yorugʻlik hodisalarini; Yer, Quyosh, Oy va yulduzlarning qiyosiy kattaliklarini hamda bir-biridan qanchalik uzoqligini;

Erning oʻz oʻqi atrofida va Quyosh atrofida aylanishini, kecha va kunduz almashinishini; suvning suyuq, qattiq va gaz holatlarini; tabiatda suvning aylanishini; suvni tejash va asrash zarurligini; havoning ahamiyati va uni muhofaza qilish zarurligini; atmosferadagi tabiat hodisalari, shamol, tuman, bulut, yomgʻir va ulardan foydalanishni;

kompyuter va uning imkoniyatlarini; hozirgi zamon fan-texnikasining taraqqiyotini; Yer yuzining asosiy shakllari togʻ, tekislik va okeanni; tuproq va togʻ jinslarini, foydali qazilmalarni; ufqning asosiy tomonlarini; Madaniy va yovvoyi oʻsimliyutarni; daraxt, buta va oʻtlarni; uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni; hasharotlar, qushlar, suvda yashaydigan hayvonlar, suvda ham, quruqlikda ham yashaydigan hayvonlar, yirtqich hayvonlarni; oʻsimlik va hayvonlarning inson hayotidagi oʻrni; Oʻzbekiston tabiatini; Oʻzbekiston Respublikasining poytaxti, vi-loyatlari va Qoraqalpogʻiston Respublikasini; oʻzi yashaydigan qishloq (shahar) tabiatini; Oʻzbekistondagi yirik qoʻriqxonalarini.

b) Amalda qoʻllay olish: termometr yordamida suv va havo haroratini oʻlchay olish; tarozi yordamidajism massasini oʻlchay olish; quyoshga, kompasga, mahalliy belgilarga qarab, ufqning asosiy tomonlarini topa olish; dunyo xaritasidan Oʻzbekiston hududini topa olish; Oʻzbekiston xaritasidan mamlakatimiz poytaxti, har bir viloyati va Qoraqalpokiston Respublikasini koʻrsata olish; kundalik turmushda qoʻllaniladigan elektr asboblaridan va tabiiy gazdan xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda foydalana olish; xona oʻsimliklarini va uy hayvonlarini parvarish qila olish.

5. Oʻzbekistonda xalq taʼlimi tizimi. Xalq taʼlimi tizimini tashkil etish tamoyillari.

Xalq taʼlimi tashkilotlari va turlari.

Xalq taʼlimi tizimi deganda aniq maqsadni koʻzlab mamlakat yoshlariga taʼlim-tarbiya beradigan muassasalar tushuniladi.

Har bir mamlakat xalq taʼlimi tizimining tarakkiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga taʼsir etadigan ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga va milliy xususiyatga bogʻliq boʻladi.

Mamlakatimiz istiqbolga erishganidan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yetuk mutaxassis kadrlar taerlashga katta eʼtibor berilmoqda. Bunga hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator qonunlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Oʻzbekiston Konstitutsiyasi va Hukumat qarorlariga asoslangan holda hozirgi vaqtda xalq taʼlimining quyidagi tamoyillari qaror topdi: Oʻzbekiston fuqarolarining millatidan, dinidan, jinsidan, ijtimoiy ahvolidan qatʼi nazar taʼlim olishga tenghuquqliligi tamoyili. By tamoyil Xalq maorifining demokratik ruhidan darak beradi.

Hamma maktab yoshidagi yoshlar uchun bilim olish majburiy ekanligi tamoyili. Bu tamoyil yoshlarimizni maʼlumotli boʻlishi, zamon talabiga javob beradigan ilmiy bilimlarni egallashi, haetda oʻz oʻrnini topa olishlari haqida Davlatimiz. gʻamxoʻpligidan darak beradi.

Barcha ta'lim muassasalari davlat va ijtimoiy xususiyatga ega ekanligi tamoyili. Bu O'zbekistondagi barcha ta'lim-tarbiya muassasalari davlat ixtiyorida ekanligini, bu tashkilotlarni davlat mablag' bilan ta'minlashini nazarda tutadi. Ta'lim-tarbiya muassasalarining faoliyati davlat tomonidan boshqarilib boriladi. Shu kabi tadbirlar davlatni xalq ta'limi xususidagi siyosatini amalga oshirish, o'quv-reja va dasturlarini yagona bo'lishini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Qaysi tilda o'qitish ota-onalarning istagiga bog'liqligi tamoyili. O'z farzandini qaysi tilda o'qitish erkinligi davlatimizning baynalmilallik, insonparvarlik siyosatining yorqin namunasidir. O'zbekistonda yashayotgan har bir millat a'zosi xohlagan tilda bolalarini o'qitish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida Respublikada davlat tili o'zbek tili deb belgilangan. Lekin shunta qaramay, Respublika xududida yashayotgan boshqa xalqlarga hurmat bilan qarash, shu tillarni rivojlanishiga shart-sharoit yaratib berish ko'zda tutilgan. Buning yorqin misoli bo'lib, O'zbekiston maktablarida o'quv yetti tilda olib borilayotganligini keltirish mumkin.

Ta'limning bepullik tamoyili. Konstitutsiyada Respublikamizning har bir fuqarosining bepul ta'lim olish huquqi, ta'limning davlat nazoratida ekanligi kafolatangan. Ta'limning hamma turlari bepul bo'lishi mamlakatimizda yana boshqa qator moliyaviy choralar bilan qo'llab-qo'vvatlanib kelinmoqda. Masalan: ayrim kam ta'minlangan o'quvchilarni davlatning o'zi ta'minlashi, talabalarni stipendiya bilan ta'minlanishi va ularga boshqa moddiy yordamlar ko'rsatilishi kabilar Pecpublikada Xalq Maorifi rivojlanishiga ta'sir etadigan omillardan hisoblanadi. Hozir ko'pgina ta'lim-tarbiya muassasalarida bolalar davlat hisobidan tarbiyalanib kelinmoqda. Shunga misol tariqasida ayrim maktabgacha tarbiya muassasalarida, defektologik maktablarning barcha turlarida nogiron bolalar uchun ochilgan cog'lomlashtirish sanatoriylarida ta'limning bepul ekanligini ta'kidlash mumkin.

Ta'lim olib Boriladigan til	Maktablarning soni		O'quvchilar soni	O'quvchilarumu soni nisb.foiz
	mustaqil	aralash		
O'zbek tili	6661	1055	3855977	82.0
Rus tili	222	778	459753	12.2
Qozoq tili	266	339	144970	2.9
Qoraqolpoq tili	218	127	125060	2.6
Qirg'iz tili	26	32	11569	0.2
Tojik tili	260	61	129971	2.8
Turkmen tili	39	31	19221	0.3
Boshqa tillarda	2	1	327	*

O'quvchilarni har tomonlama kamol toptirish, ularni qarovsiz qolmasligi uchun moddiy manbasi imkon bergan maktablarda kuni o'zaytirilgan guruhlar to'zilan, yetim bolalar uchun bolalar uylari, maktab-internatlar tashkil etilgan. Stipendiya bilan fakat Oliy maktab talabalarigina emas, balki o'rta maxsus bilim yurtlari talabalari ham ta'minlangan.

Ta'limning ilmiylik va dunyoviylik tamoyili. Bilimlarning ilmiy xususiyatga ega bo'lishi va bu fan va texnika yutuqlarini hisobga olgan holda doimo o'zgarib, yangilanib borishi ilmiylik tamoyili deyiladi. O'zbekiston hududidagi barcha ta'lim muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi. Bu tamoyilga so'zsiz amal qilish bolalarga beriladigan bilimlar mazmunini vaqt-vaqti bilak qaytadan ko'rib, o'zgartirib turishni taqozo qiladi.

O'zbekistonda xalq ta'limi tashkilotlarining turlari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni» (1997 y. 29 avgust) «Ta'lim turlari» xususidagi 10-moddasida shunday deyiladi:

«O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha tarbiya;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va kayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha tarbiya. Xalq ta'limi tizimida birinchi bosqich - maktabgacha tarbiya. Uning asosiy vazifasi bolalarni sog'lom va yetuk qilib tarbiyalash, ularni maktabga ham pedagogik, ham psixologii tarbiyalashdan, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. «Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi».

Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinf.) Umummaktab ta'limida boshlang'ich maktabning ahamiyati muhimdir. Chunki boshlang'ich maktab umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan bilim, o'quv ko'nikmalari bilan qurollantiradi. Boshlang'ich maktablar alohida maktab turi sifatida, ayniqsa qishloq joylarida ko'p tarqalgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari (V-IX sinflar). Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rta ma'lumot olishni ta'minlaydi. Zamonaviy bilimlar beradi. Bolalarning fikrlash qobiliyatini ustirib, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llashga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida kasb tanlashga yo'naltiradi, biror-bir kasbni egallash imkoniyatini beradi.

Xalq xo'jaligining turli soxalarida mehnat qilayotgan va umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lmagan yigit va qizlar uchun kechki (navbatli) maktablar va kattalar uchun ta'lim markazlari tashkil etilgan.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi. O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi yoshlarni mehnat va kasb-kor ko'nikmalari riga o'rgatish, ishchi xodimlar tayyorlash, ularni malakasini oshirish va qayta tayyorgarlikdan o'tkazishdir. Hunar-texnika ta'limi, malakali ishchilar tayyorlash Respublikaning o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari, o'quv-ishlab chiqarish, o'quv kurs korxonalari, markazlari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. O'zbekistonda Halq xo'jaligi uchun malakali mutaxassislar tayyorlab berishda hunar-texnika bilim yurtlari katta ahamiyatga ega. Respublikada bunday o'quv muassasalarining bir necha turlari mavjud.

Oliy ta'lim. Xalq ta'limi tizimida muhim o'rin egallab, ijtimoiy va ilmiy tarakkiyotni belgilab beradi. Xalq xujaligi va madaniyatining turli sohalarini yetuk oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Respublikada oliy ta'lim o'z ichiga universitetlarni, pedagogika, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, iqtisod, yuridik politexnika va boshqa institutlarni qamrab oladi. Universitetlar yetakchi bilim yurtlaridan bulib ular tabiiy-matematik va gumanitar mutaxassislar bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlaydi. Respublikamizning ko'pgina viloyatlaridagi pedagogika institutlarini universitetlarga aylantirilishi ham hukumatimizning yetuk o'qituvchi kadrlar tayyorlash borasidagi g'amxo'rligining dalolati hisoblanadi.

O'quv yurtlaridan keyingi ta'lim. Institut, universitetlar uchun yuqori darajali ilmiy kadrlar tayyorlashni nazarda tutadi. Bu aspirantura, doktorantura orqali amalga oshiriladi. Aspiranturaga oliy ma'lumotli, ilmiy-tadqiqot ishlariga moyil shaxslar imtihon topshirib, tanlov asosida qabul qilinadi.

Dissertatsiya himoyasidan keyin bunday shaxslarga fan nomzodi ilmiy darajasi beriladi. O'z sohasida chukur izlanishlar olib borgan, monografiyalari yozgan va doktorlik dissertatsiyasini ximoya qilgan shaxslarga fan doktori ilmiy darajasi beriladi. Institut pedagogik faoliyati bilan shug'ullangan va ilmiy-tadqiqot olib borayotganlarga dotsent va professorlik unvoni beriladi.

Maktabdan tashqari ta'dim-tarbiya. O'zbekiston Respublikasi Ta'lym to'g'risidagi qonunning 10-moddasiga asoslangan bolalar va o'smirlarning ehtiyojlarini, xohish-istaklarini to'laroq ro'yobga chiqarish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida davlat muassasalari, turli mulk shakllariga ega bo'lgan korxonalar, jamoat tashkilotlari ilmiy-badiiy, ilmiy-tabiiy, texnik, sport va boshqa yo'nalishdagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. O'zbekistonda shunday maktabdan tashqari tarbiya muassasalari faoliyati davlat tomonidan qo'llab-kuvvatlanadi, halq ta'limi bo'limlari tomonidan ular ishi nazorat qilinadi.

Maktabdan tashqari muassasalarning asosiy vazifasi maktab bilan hamkorlikda maktab yoshidagi bolalarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning mayl va xohishlariga qarab turli to'garak ishlariga jalb etishdan, qobiliyatini rivojlantirishdan va olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llashga, o'rgatishdan iborat.

Maktabdan tashqari muassasalarning butun yil davomida har xil tadbirlar o'tkazishi; predmetlar bo'yicha olimpiadalar, slyot va spartakiadalar, o'lkani o'rganish uchun yurishlar, arxeologik va etnografik sayohatlar uyushtirish - bu yoshlarning o'z vatanining tarixini, madaniyatini chuqur o'rganishga ta'sir etibgina qolmay, slyotlar, olimpiadalar kabi tadbirlar maktabda olgan bilimlarini chuqurlashtirishga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashga imkon beradi.

Xozir O'zbekiston xududida faoliyat ko'rsatib turgan maktabdan tashqari muassasalar quyidagilar:

- o'quvchilar saroylari va uylari;
- yosh texniklar stansiyalari;
- yosh tabiatshunoslar stansiyasi;

-yosh turistlar stansiyasi va bazalari.

Bunday maktabdan tashkari ta'lim muassasalari Respublikamizda olti yuzdan ortiqroq bo'lib, ular tarkibiga 265 o'quvchilar saroylari va uylari, 133 yosh texniklar markazi va stansiyalari, 40 ta yosh sayoxatchilar va o'lkashunoslar stansiyalari va boshqalar kiradi. Bu muassasalar tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlarda har yili 5 ming nafardan ortiq bolalar ishtirok etadilar.

6. O'zbekistonda o'zluksiz ta'lim tizimi

Xalq ta'limi tizimi deb muayyan mamlakatlar ichki va tashqi taraqqiyotiga tavsif beruvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi.

O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi respublikamizning ijtimoiy-iktisodiy va madaniy rivojlantirishning ustivor sohasi hisoblanadi. Xalq ta'limi tizimi respublikamizning ilm borasidagi kuch-quvvatini, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Xalq ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi Qonunga muvofiq tashkil etiladi va nazorat qilinadi. Respublikamiz Konstitutsiyasining 18- va 41-moddasida ko'rsatilganidan barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqaidan qat'i nazar bilim olish huquqiga egadirlar. Shuningdek, fuqarolarning bepul umumiy ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlangandir. Bu huquq ilm olishning hamma turlari tekinligi, yoshlarga umumiy majburiy o'rta ta'lim berishni amalga oshirishni o'qitishni hayot, unumli mehnat bilan bog'lash asosida rivojlantirish negizida izohlanadi.

Fan-texnika taraqqiy etayotgan hozirgi davrda xalq ta'limi tizimining barcha tarmoqlarini muttasil takomillashtirish, uni oqilona uyushtirish va boshqarish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda.

Taniqli venesiyalik sayyox Marko Polo uzoq vaqt hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasi hududida yashagan xalqlarning an'analari, urf-odatlarini o'rgandi. U o'z esdaliklarida yosh avlodni hayotga taerlashda ko'p asrlar davomida ko'llanilgan usul va vositalarga tayangan holda «Nur sharqdan tarqaladi» degan edi. Qadimgi Ovro'poda keng tarqalgan mazkur hikmatda Sharq xalqlarining insoniyat madaniyat poydevorining yaratishdagi ulkan hissasi tan olinganini ifodalagandir. Lekin ma'naviyatni tiklashga bo'lgan harakat faqat Ovro'poda yoki faqat sharqda boshlangan deyish, g'arbu sharqni bir-biriga qarama-qarshi quyish ham noto'g'ri. Ota-bobolarimizning, «O'tmishni unutganning kelajagi bo'lmaydi» degan hikmatli gapi bor. Biz bu tariximizni qanchalik chukur o'rgansak, bu yosh avlodga shunchalik to'g'ri ta'lim berishimizda asqotadi. Markaziy Osiyoda falsafiy, axloqiy-ma'rifiy tafakkurning ilk kurtaklari xalq og'zaki ijodida o'z aksini topgan. Ularda yozuv paydo bo'lgunga qadar va undan keyin ham xalq ruxi va ma'naviy faolligi ifoda etgan.

Sharqda, jumladan O'zbekiston hududida azalazaldan ta'lim-tarbiya sohasiga juda katta e'tibor berilgan edi. Bolalarni kichik yoshdan ilmga qiziqtirish, axloqan pok, vijdonli, mehr-shafqatli qilib voyaga yetkazish masalalariga ota-bobolarimiz jiddiy karaganlar.

Sharq pedagoglari bolalarni o'qishga qiziqtirish uchun kitobdagi voqealarni qush va hayvonlar tilidan hikoya qilar edilar. Masalan, «Kobusnoma», «Axloqi Muhsiniy», «Kalila va Dimna» kabi asarlarda naql-rivoyatlarga odob-axloq qoidalari singdirib yuborilgan.

Markaziy Osiyo arablar tomonidan fath qilingan paytlarda ham rivojlangan o'lkalardan biri bo'lganligi tarixiy qo'lyozmalardan ma'lumdir.

VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoni arablar fath etgach, islom dini asosidagi sifat jihatdan yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya muassasalari vujudga keldi. Arab tilini o'rganish joriy qilindi.

Maktablarda bolalarga yozish va hisoblash o'rgatilgan, bundan tashqari, o'smirlarga savdo san'ati, arab tili, mantiq, notiqlik, husnixat va arifmetikadan dars berilgan. Har bir maktab talabasining soni 30-40 dan oshmagan. Bulardan tashqari, masjid qoshidagi maktablarda ham 15-20 nafar talaba tahsil ko'rgan. Maktab, madrasalar bilan bir qatorda korxonalar ham mavjud bo'lib, ularda yozuv o'rgatilmagan, talabalar, Quroni Karimni yod olishgan, xolos. «Madrasa» so'zi arabcha «dars o'tiladigan joy» ma'nosini bildiradi. Ma'lumki o'sha joylardagi dars keng ma'noda qo'llanilib, uning tarkibiga ta'lim-tarbiya, pand-nasihatlari, ustoz-shogird

munosabatlari, donishmandlarning davra suhbatlari, juda katta hayotiy tajribalar sabog‘i kirgan. «Mudarris» so‘zining lug‘aviy ma‘nosi «dars beruvchi o‘qituvchi» demakdir.

1991 yilning birinchi sentyabrida respublikamiz hayotida tarixiy voqea yuz berdi: Istiqlol e‘lon kilindi. Shu munosabat bilan jahon tajribalaridan kelib chiqib, eng birinchi navbatda mustaqil respublikamizning xalq ta‘limi sohasida, islohot o‘tkazish masalasi ko‘tarildi. Nihoyat O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim tug‘risida»gi Konuni ta‘lim tizimining yangilanishiga sabab bo‘ldi. Oldingi qabul kilingan qonunlardan farqli o‘laroq, xalq ta‘limi tizimi tuzilishining bir qancha yangi qoidalari joriy etildi. Va bajarilishi majburiy, deb qayd qilindi. Bu qoidalar:

1. *Ta‘lim va tarbiyaning insonparvarligi hamda demokratikligi.* Buning mohiyati shundaki, bizdagi barcha xalq ta‘limi tizimiga kiruvchi muassasalarda berilayotgan ta‘lim va tarbiya insonlarni, ularni moddiy va ma‘naviy kamolatini, aql-zakovatining o‘shishini, insoniy faoliyatini barq urishini va nihoyat o‘zligini bilish va haq-xukuklari uchun kurashadigan vatanparvar bo‘lib yetishishlarini maqsad qilib qo‘yadi.

2. *Ta‘lim tizimining uzluksizligi va izchilligi.* Mustaqil O‘zbekistonimizning xalq ta‘limi muassasalarida berilayotgan ta‘lim va tarbiya uzluksiz o‘zaro bog‘liqdir. Har bir boshlang‘ich ta‘lim o‘quv reja va dasturlari asosida keyingi bosqichlar oldingilarining davomi sifatida amalda bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida bir maktabdan ikkinchisiga, bir oliy o‘quv yurtidan ikkinchi oliy o‘quv yurtiga ko‘chib o‘tish imkoniyatini beradi. Ta‘lim o‘quv rejasi va dasturi asosida tizimli, izchil faoliyatda bo‘ladi.

3. *Davlat ta‘limi tizimining ilmiyligi va dunyo-viyligi.*

Respublikamizdagi barcha ta‘lim muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi. U ilmiy asoslarga ega bo‘lib, fan, texnika madaniyatining eng yangi muvaffakiyatlari va inson aql-zakovat tufayli takomillashib boradi. Ular o‘quvchilarning ob‘ektiv dunyoni bevosita bilish, tegishli xulosalar chiqarish, o‘zining jamiyatda tutgan o‘rni va vazifalarini aniqlab olishga, biror-bir kasbni ongli egallashlariga yo‘naltirilganidir.

4. *Ta‘limda umuminsoniy va milliy-ma‘naviy qadriyatlarining ustivorligi.*

Ta‘lim tizimiga kiruvchi barcha ta‘lim-tarbiya maskanlarida berilayotgan bilim ajdodlarimizning minglab yillar mobaynida shakllangan an‘analariga tayanadi.

5. *Davlat ta‘lim standartlari qoidasida hammaning ta‘lim olishi uchun imkoniyat yaratilganligi.*

Yangi qonunning 4-moddasida ta‘kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy kelib chiqish, jinsi, tili, yoshi, irqi, millati, turar joyi, Respublika hududida qachondan beri yashayotganligidan kat’i nazar barchaning ta‘lim olishi uchun teng huquklar kafolatlanadi.

6. *Tayanch ta‘limining majburiyligi.*

Mamlakatimizda 1930 yilda boshlang‘ich, 1949 yilda yetti yillik, 1958 yilda sakkiz yillik, 1970 yilda o‘rta umumiy majburiy ta‘limga asos solindi. 1984 yildan boshlab 11 yillik majburiy ta‘limga o‘tildi. Tayanch ta‘limi majburiy bo‘lib ta‘lim oluvchilarga o‘qishni o‘rta ta‘lim muassasalarida, turli xil hunar va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida davom ettirish huquqini beradi.

7. *Ta‘lim ma‘naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan o‘quv reja va dasturlarini tasdiqlaydi.* Ularning bajarilishi nazorat qilinadi. Olib boriladigan ta‘lim-tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma‘naviy; ruxan tetik, jismonan baquvvat, axloqan pok va mehnatsevar bo‘lib voyaga yetishi uchun barcha moddiy va ma‘naviy sharoit hozirlaydi.

8. *Bilimdonlik va iste‘dodni rag‘batlantirish.*

Ta‘lim-tarbiya muassasalarida ta‘lim olayotgan bilimdon va iste‘dodli o‘quvchilarni rag‘batlantirish stipendiya, turli ko‘rinishdagi maqtov yorliqlari moddiy yordam shaklida tashkil etiladi. Oliy o‘quv yurtlari qaramog‘ida matematika, fizika, biologiya va boshqa fanlar yuzasidan iste‘dodli bolalar uchun sirtqi maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

9. *Ta‘lim muassasalarida chet tillarni o‘rganish, din tarixi va jahon madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish.*

Xalq ta'limi tizimi va yangi. konuni asosida o'quvchilarning bilim va iste'dodlarining vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Din va madaniyat tarixi bo'yicha maktab rejalariga yangi fanlar kiritildi.

10. Ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarining ta'siridan xoli bo'lishi.

Yosh avlodga dunyoviy bilimlar berish tom ma'noda hayotga va bilimga, turmushga tayyorlash, yoshlarni chalg'itmaslik, guruhbozlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida ta'lim-tarbiya muassasalari siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlardan xoli deb topildi.

11. Tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarni hurmatlash.

Ta'lim tizimida barcha pedagoglarga davlat talablari darajasida o'qitish majburiy hisoblangan fanlarni reja va o'quv dasturlari asosida olib borish, tarbiyalanuvchi va ta'lim oluvchilarning insoniy qadr-qimmatlarini hurmat qilish mas'uliyati yuklatildi.

12. Pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini xurmatlash.

Oldingi qabul qilingan qoidalardan farqli o'laroq Yangi qonunda pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash lozimligi belgilab qo'yildi.

O'qituvchi-tarbiyachilar sha'nini himoya qilish, ta'lim shakli, usuli va vositalarini tanlash tashabbuslariga keng yo'l ochish pedagogik faoliyatda tanilgan o'qituvchi, tarbiyachilarni davlatimiz orden va medallari bilan mukofotlash, ularni kishloq va shaxar, tuman, viloyat va respublika oliy organlariga daptatlikka saylash umumxalq vazifasi deb topildi. Shu bilan birga ular zimmasiga axloq-odob qoidalariga rioya qilishga, o'quvchi va talaba shaxsini xurmatlash mas'uliyati yuklatilgan.

13. Amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning teng huquqligi, ularning mustaqilligi, ta'lim muassasasi mustaqil yuridik shaxs bo'lib, qonunlarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Davlat tasarrufida bo'lmagan ta'lim muassasasi davlat ruyxatidan utkazilgan vaqtdan boshlab yuridik shaxs huquqini qo'lga kiritadi. Ta'lim muassasalariga muayyan maqom (gimnaziya, litsey, dorilfunun, akademiya va shu kabilar makomi) berilishini ta'limni boshqarishning tegishli idoralari tomonidan attestatsiya asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalari o'zaro bitim to'zishga, o'quv-tarbiya komplekslari va o'quv ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalari tarkibiga kirishga haqlidirlar.

Bunday kompleks va birlashmalar tarkibiga kiruvchi muassasalarning vazifalari, huquqlari va majburiyatlari o'z ustavlarida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning yagona tizimiga amal qilinadi. Yagona tizim kuyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Maktabgacha tarbiya.
2. Umumiy ta'lim.
3. Xunar-texnika ta'limi.
4. O'rta maxsus ta'lim.
5. Oliy ta'lim.
6. Ilmiy va ilmiy pedagogik xodimlar tayyorlash.
7. Kadrlarning kasb-kor malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.
8. Oiladagi ta'lim.
9. Mustaqil ta'lim.

Ta'lim tizimida. o'quv rejaları va dasturlari muvofiqlashtiriladi. Ta'lim bosqichlari va shaqllarining standartlarga mos kelishi ta'minlanadi.

1. Maktabgacha ta'lim.

Maktabgacha ta'lim tarmog'iga 1-3 yoshdan 6-7 yoshgacha bulgan bolalarga ta'lim-tarbiya beruvchi yasli va botcha muassasalari, shuningdek, oiladagi ta'lim-tarbiya kiradi. Bundan ko'zlangan maqsad bola kamolati asoslarini shakllantirishdan, uni bilimga qiziqishini ta'minlashdan madaniy-ax-loqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini, ilmga muhabbat kuyishni o'stirishdan iboratdir.

2. Umumiy talim.

Umumiy ta'lim o'zluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'g'in bo'lib, ta'lim oluvchilarning ilmiy bilim, mehnat va boshlang'ich kasb-kor ko'nikma va malakalarini

ishbilarmonlik asoslarini egallashlarini, shuningdek, o'z ijodiy qobiliyatlari, fazilatlarini rivojlantirishlarini ta'minlaydi. Umumiy ta'lim uch bosqichdan: 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bulgan bolalarga ta'lim beruvchi boshlangich (I-IV sinflar), 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan (V— IX sinflar) tayanch va 15-16 yoshdan 17-18 yoshgacha bo'lgan bolalarga (X-XI-XII sinflar) o'rta ta'limlardan iborat bo'lib, boshlang'ich tayanch, o'rta ta'lim maktablari, gimnaziya, litsey va boshqa o'quv yurtlarida amalga oshiriladi.

O'rta umumiy ta'lim muassasalarida ixtisoslashgan ta'lim amalga oshirilishi o'quvchilar tanlovi bo'yicha kurslar joriy etilishi va fanlar chuqur o'rgatilishi mumkin. Bunday kurslarning dasturlari umumta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

3. Maktabdan tashqari ta'lim.

Bolalar va o'smirlarning talab va ehtiyojlarini to'laroq qondirish, ularning dam olishini tashkil etish maqsadida davlat idoralari mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar, jamoat birlashmalari va madaniy, ilmiy, texnika, sport va boshqa yo'nalishdagi maktablardan tashqari ta'lim muassasalari barpo etiladi.

Turli xildagi maktabdan tashqari muassasalar faoliyatiga davlat tomonidan ko'mak beriladi va nazorat qilinadi.

4. Hunar-texnika ta'limi.

Hunar-texnika ta'limi, mehnat va kasb-kor mahorati hamda ishchi va kadrlar tayyorlashni, ularni qayta tayyorlash va malakalarini oshirishni maqsad qiladi.

Ta'lim bilim yurtlarida o'quv ishlab chiqarish, o'quv-kurs kombinatlarida, markazlarda va boshqa o'quv yurtlarida yoki bevosita ishlab chiqarishda olib boriladi.

Hunar-texnika ta'lim tayanch ta'limi asosida bir vaqtning o'zida umumiy o'rta ta'lim berish yoki faqatgina kasb o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

5. O'rta maxsus ta'lim.

O'rta maxsus ta'limi kasb-hunar kollejlari, pedagogika litseylari va kollejlari, shuningdek o'zga shakldagi o'quv yurtlari bilan qo'shilgan o'rta maxsus o'quv yurtlarida, tayanch o'rta va kasb-hunar ta'lim negizida amalga oshiriladi.

6. Oliy ta'lim.

Oliy ta'lim tanlangan faoliyat sohasida chuqur umummilliy va maxsus bilimni zarur kasb-kor ko'nikmasi bilan. uyg'unlashtiradigan yuqori malakali mutaxassislarni, shuningdek, ilmiy va ilmiy pedagog xodimlar tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim ikki bosqich asosida bakalavr va magistr darajasini berish orqali amalga oshiriladi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi oliy ma'lumot olishga haqlidir. Oliy o'quv yurtlari konunga belgilangan tartibda vaqt-vaqti bilan attestatsiya va akkreditsiyadan utkazib turiladi.

7. Ilmiy va ilmiy pedagog xodimlar tayyorlash.

Ilmiy va ilmiy pedagog xodimlar tayyorlash uzluksiz ta'lim tizimida oliy bosqich hisoblanib, shaxs va jamiyat ehtiyojlarini, shuningdek, jamiyatning bunday kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojini qondirishni ta'minlaydi.

Ilmiy va ilmiy pedagogik xodimlar tayyorlash ilmiy darajalar (fan nomzodi, fan doktori) va ilmiy unvonlar (dotsent, katta ilmiy xodim, professor va xokazo) berish tartibi qonunlar bilan belgilanadi.

9. Oiladagi ta'lim.

Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaning jismoniy, ma'naviy kamolatiga va aql-zakovatini o'stirishga, ma'lumotli bo'lishiga javobgardirlar. Bolalariga oilada ta'lim berishni zimmalariga olgan ota-onalar ta'lim muassasalari, ta'limni boshqaruvchi tegishli idoralar bilan shartnoma tuzadilar. Oiladagi ta'lim o'quv yurtlarining dasturdari buyicha amalga oshiriladi. Keyinchalik eksternat tartibida attestatsiyadan utkaziladi. Attestatsiyadan o'tgach, ta'limning istalgan bosqichidan boshlab o'quv muassasalarida o'qishni davom ettirishlari mumkin.

10. Mustaqil ravishda ta'lim olish.

Davlat fuqarolarining mustaqil ravishda o'z ma'lumotlari, madaniy kasb-kor saviyalarini oshirishga bo'lgan intilishlari, qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydi, ularga shart-sharoit yaratadi.

Bilim va malaka darajasini mustaqil ravishda oshirgan shaxslarga eksternat tartibida imtixon topshirish imkoniyatini beradi.

Mustaqil Respublikamiz raxbariyati xalq ta'limi tizimini mazmunan yanada yaxshilash borasida juda katta tadbirlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tug'risida»gi qonuni fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi va har kimning bilim olish huquqini ta'minlashga karatiladi.

Ta'lim tug'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan hamda boshqa qonun xujjatlaridan iborat.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim tug'risidagi qonun hujjatlaridan o'zgacha qonun belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma koidalari qo'llaniladi.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustivor deb e'lon qilinadi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning o'zluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlarida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashish, bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va boshqaruvni uygunlashtirish;

Jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar har kimga bilim olishga teng huquq yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

7. Chet el mamlakatlaridagi ta'limning mazmuni

Biz jahonning 73 mamlakatida o'qitish boshlanadigan yosh to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lsak, shularning 54 tasida bolalar olti va undan kichikroq yoshidan, 43 mamlakatda olti yoshdan, 3 mamlakatda besh yoshdan maktabda o'qiy boshlaydi, 8 mamlakatda maktabga bolalarni besh yoshida ham, olti yoshida ham qabul qilish yuklangan.

Uquv rejasi. Turli mamlakatlarda o'quv rejasining haftadik hajmi (hafta) sinflardagi mashg'ulotlar soni har xildir. Shuningdek, turli mamlakatlarda darslarning davom etishi ham bir xil emas. Masalan, Yaponiyada 45 va AQShda 40 daqiqali darslar joriy qilingan. Angliyada darslar tanaffussiz ketma-ket o'tila veriladi.

Buyuk Britaniyada o'quv yili sentyabrda boshlanib, iyul oyining oxirida tugaydi. O'quv haftasi besh kunlik. Bu mamlakatda hozirgacha yagona maktab dasturlari va darsliklari mavjud emas. O'quv dasturlari ishlab chiqish huquqi maktab direktorlari va katta o'qituvchilar zimmasiga yuklangan. Lekin o'qituvchilar maktab to'g'risida 1986 yili qabul qilingan 2-qonunga muvofiq o'quv dasturlari xususida Mahalliy maorif organlari bilan kelishishlari shart. Hukumat mufassal va balanslangan, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va hozirgi hayot talablariga muvofiq tarzda tabaqalangan o'quv dasturini joriy etish yo'li bilan ta'limiy imkoniyatlarni kengaytirishdan manfaatdordir. Angliya va Uelsdagi boshlang'ich hamda birlashgan o'rta maktabga umumiy-ilmiy o'quv dasturini joriy etish mo'ljallanmagan. Bu dasturga ko'ra o'quv vaqtining 70 foizi asosiy predmetlarni maorif va fan departamenti tavsiya etgan hajmda o'rganishga ajratilgan. Qolgan vaqtdan istalgan predmetlarni o'rganish uchun foydalanish mumkin,

Bulardan tashqari, yana quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko'zlanmoqda: 7, 11, 14 va 16 yoshli 16-11 bolalar uchun asosiy predmetlar bo'yicha imtihonlar joriy etish; maktablardagi o'quvchilar sonini maorif va fan departamenti tayinlagan normalarga asosan belgilash; maktablar zimmasiga tayyorgarligi va qobiliyatlaridan qat'i nazar barcha bolalarni, lekin belgilangan normalar chegarasida qabul qilish majburiyatini yuklash; o'quvchilarning soni 200 nafardan ortiq maktablarga o'zining moliyaviy, kadrlari masalalarini mustaqil hal qilish ququqini, shuningdek, mahalliy maorif organlarining nazorati ostidan chiqish va bevosita maorif va fan

departamentiga bo'ysunish huquqini berish. Ana shunday jarayonlar Shotlandiya va Shimoliy Irlandiyadagi maktab ta'limida ham ro'y berayotir.

Angliyada besh yoshga to'lgan bolalar butun o'quv yili mobaynida maktabga qabul qilinaveradi. Bitta sinfda 5—6 va 7 yoshli bolalar o'qiyveradi.

Bolalar bir necha oy maktabga qatnaganlaridan so'ng ularni yaxshiroq o'sgan va sustroq o'sgan bolalar guruhlariga bo'linadi.

Bolalar sinf xonalarida o'ynaydilar, shug'ullanadilar va ovqatlanadilar. Xonalarda rasm chizish, yelimplash va o'yinchoqlar yasash uchun turli ashyolar, hisoblash, tortish uchun har xil priborlar, asboblar va boshqa didaktik vositalar mavjud bo'ladi. Har bir sinfda kichkina kutubxona tashkil etiladi. Hamma mashg'ulotlarni bitta o'qituvchi olib boradi. Bolalarning ko'p vaqti ochiq havoda o'tadi.

Yaponiyada ko'p mamlakatlardan farqli ravishda o'quv yili 1 aprelda boshlanib, keyingi yilning 31 martida tugaydi. Boshlang'ich va kichik o'rta maktabda o'quv yili uchta semestr (aprel, iyul, sentyabr, dekabr, yanvar, mart)ga bo'linadi. Katta o'rta maktabda o'quv yili ikki uchta semestrga bo'linadi. Yozgi, qmshki (yangi yildan oldin va keyin) hamda bahorgi (yillik imtihonlardan keyin) ta'tillar belgilanadi. Yozgi ta'tillarning boshlanishi hududlar va o'quv yurtlarining tiplari bo'yicha har xildir. Ular ko'p boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda iyulning oxirida boshlanib, avgustning oxirida tugaydi. Ayrim qishloq xo'jaligi hududlarida bahorda va kuzda yozgi ta'tilni qisqartirish hisobiga mavsumiy fermerlik ta'tillari ham bo'ladi.

Yaponiya maktablaridagi o'quv yili AQSh maktablaridagiga nisbatan 60 kun uzunroq, ya'ni 240 kun davom etadi. Mashg'ulotlar ish va shanba kunlari ertalab 8.30 dan 15.15 gacha, ya'ni 7 soatdan o'tkaziladi. Shuningdek, o'quvchilar mashg'ulotlardan keyin haftada 2—3 soat sinfdan tashqari klub ishlari bilan shug'ullanadilar hamda haftada 7 soatgacha vaqtlarini maxsus repititorlik maktablarida o'tkazadilar, Yaponiyalik o'quvchilar AQSh dagi o'rta maktab o'quvchilariga nisbatan ko'proq vaqtlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarga sarflaydilar. Ta'lim milliy instituti o'tkazgan savol-javob ma'lumotlariga ko'ra katta o'rta maktab o'quvchilarining 36 foizi qaftada 10 soatgacha va undan ko'proq vaqt mustaqil ishlash bilan shug'ullanadi. Bu esa amerikalik o'quvchilar mustaqil ishlaydigan vaqtdan 6 marta ko'pdir.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktabda o'rganilishi lozim bo'lgan fanlar, shuningdek, yil davomida ularni o'rganish uchun ajratiladigan soatlar miqdori ta'lim vazirligining farmoyishi bilan belgilanadi. Mazkur vazirlik ta'limning har bir bosqichidagi o'quv fanlarining maqsadi va mazmunini ham belgilaydi.

Bularga ko'shimcha ravishda ijtimoiy maktablarda haftasiga bir marta majburiy axloq tarbiyasi mashgulotlari o'tkaziladi, xususiy maktablarda esa bu mashg'ulotaar diniy ta'lim bilan almashtirilishi mumkin.

Yaponiyadagi o'quv rejasi doimo 3 ta bo'lim (o'qish, axloq, tarbiyasi va maxsus faoliyat)dan iborat bo'ladi.

Ta'lim vazirligining farmoyishiga muvofiq katta o'rta maktabni bitirish uchun eng kami 80 ta sinov birligini olish zarur. Maktablar majburiy predmetlshrga qo'shimcha raviigda xohishga qarab ingliz tilini va boshqa chet tillarini, shuningdek, maxsus tsxnik fanlarini taklif qilish mumkin.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktabda bilimlarning asoslari tarkib toptiriladi: ularning o'quv rejalarida keng qamrovli va bolalardagi o'sishning darajasiga ko'ra murakkablashib boradigan o'quv kursini o'rganish nazarda tutiladi. Boshlang'ich va kichik o'rta maktabda til bo'yicha tayyorlanish yetakchi o'rinda turadi, bunday mashg'ulotlarga ayniqsa II-IV sinflarda o'quv soatlarining eng ko'p qismi ajratiladi. Tilni o'rganishda eslab qolish bo'yicha o'tkaziladigan mashgulotlarga alohida e'tibor» bsriladi. Urgapishga ajratilgan soatlar miqdori bo'yicha arifmetika va matematika ikkinchi o'rshshi ishgol etadi, ulardan keyin jamiyatshunoslik turadi.

Yapon maktablari uchun chiqariladigan deyarli barcha darsliklar xususiy nashriyotlarda chop etiladi. Darsliklarning mazmuni va bahosini Ta'lim vazirligi ma'qullaydi. Davlat maktablarida foydalaniladigan darsliklarni 3 yilda 1 marta ta'lim bo'yicha mahalliy kengashlar qabul qiladi. Davlatga qarashli va xususiy boshlang'ich hamda kichik o'rta maktablarning barcha

o'quvchilari darsliklarini mildiy hukumat hisobiga bepul oladilar. Katta o'rta maktablarning o'quvchilari esa darsliklarni sotib olishadi. Darsliklar arzon narxda sotiladi, 6—15 yoshli bolalarning hammasi olti yillik boshlang'ich maktabga qatnashi majburiydir. Majburiy to'qqiz yillik ta'lim xam barcha bolalar uchun bepul. Ehtiyojmand oilalarning bolalariga maktabdagi tushliklar, ekskursiyalarga to'lovlar, tibbiy xizmat uchun milliy hamda mahalliy boshqaruv organlari tomonidan yordam puli beriladi.

Boshlang'ich maktabni bitirgap bola kichik o'rta maktabda o'qishni davom ettirishga majbur. Ijtimoiy kichik o'rta maktablar o'z tumanida yashaydigan jismoniy yeki ruhiy noqis bolani qabul qiladi. Mazkur maktablarda bolalarni tanlashning qandaydir qoidalari yoki qabul qilishning hech qanday shartlari yo'q. Lekin ota-onalari o'z bolalarini boshlang'ich maktabdan oliy o'quv yurtigacha ta'limning barcha bosqichlaridagi xususiy pullik bilim maskanlariga berish huquqiga ega. Xususiy o'quv yurtlarida o'quvchilarni tanlash qoidasi joriy etilgan va unga amal qilinadi.

Yaponiyada uch xil: kunduzgi, kechki va sirtqi katta maktablar mavjud. O'qish muddati kunduzgi maktabda uch yil. Kechki va sirtqi maktablarni bitirganlar katta o'rta maktabni bitirganlik to'g'risidagi diplomga teng diplom oladilar. Katta o'rta maktablardagi o'quvchilarining taxminiy 95 foizi kunduzgi smenada o'qiydi. Katta o'rta maktablar o'quv rejalarining xarakteri bo'yicha: umumiy (akademik) maktablarga, texnika, tijorat, mahalliy san'at maktablari va hrkazolarga bo'linadi. Katta o'rta maktablarning 30 foiziga yaqini ta'limning ham umumiy, ham kasbkorlik kurslarini, 47 foizdan ko'progi faqat umumiy kurslarni va qolganlari kasbkorlik kurslarini tashkil qiladi. Katta o'rta maktablardagi o'quvchilarning taxminan 70 foizi umumiy o'quv rejalarini bo'yicha ta'lim oladi. Katta o'rta maktablarga o'quvchilarni kichik o'rta maktabni bitirgani to'g'risidagi hujjatlar va kirish imtihonlarining natijalari asosida qabul qilinadi. Ijtimoiy va xususiy sektorlarla tegishli yosh guruhidagi o'g'il va qizlarning 98 foizi ixtiyoriy o'rta ta'limga jalb etilgan, ya'ni u umumiy ta'lim hisoblanadi.

Xitoy maktabining tarixi juda uzoqdir, uning ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi xitoy faylasufi va pedagog, eramizdan oldingi V-IV asrlarda yashagan Kunszi (Konfusiy) qator ajoyib pedagogik g'oyalarni olg'a surgan va xususiy o'qitishga asos solgan.

XXR tashkil topgunicha boshlang'ich maktab 1946 yilda rivojlanishning eng yuqori darajasiga yetgan. O'sha paytda Xitoyda 290 mingdan ortiq maktablar mavjud bo'lib, ularda 23 million nafardan ziyod o'quvchilar ta'lim olgan. 1946 yilda boshlang'ich ta'limga bolalarning taxminan 20 foizi jalb qilingan. Shu bilan birga katta yoshli aholining 90 foizidan ko'prog'i savodsiz edi.

1949 yilda xalq inqilobi g'alaba qozonganidan keyin Xitoyda savodsizlikni tugatish va maktab ta'limini keng tus oldirish bo'yicha juda katta miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Xalq ta'limini isloh qilish to'rrisidagi (1951 yilgi) qarorda bolalar va o'smirlar uchun ham, kattalar uchun ham boshlang'ich hamda o'rta maktablarning keng tarmogini yaratish ko'zda tutilgan edi. Islohotga muvofiq o'qish muddati boshlang'ich maktabda 5 yil va o'rta maktabda 6 (3—3) yil qilib belgilandi. Lekin keyinchalik boshlang'ich maktab qam 6 yillik bo'ldi.

XXR tashkil topgan dastlabki yillarda mamlakatdagi maktablar tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalariga muvofiq jiddiy takomillashtirildi. Ammo 1958 yilda Mao Szedun va uning guruhi «katta sakrash» yo'li bilan barcha sohalaridagi, shu jumladan ta'lim borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atini sun'iy ravishda tezlashtirishga qaror qildi. Shundan so'ng moddiy sharoitlar hisobga olinmay, ta'limning sur'atlarini jadallashtirish boshlandi, bu harakat ta'lim va tarbiyaning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yangi tashkil qilingan minglarcha boshlang'ich maktablar tegishli binolarga, darsliklar va o'quv qo'llanmalariga, zarur asbob-anjomlar va yaxshi tayyorlangan o'qituvchilarga ega emasdi. Maktab ta'limining inqirozi 1966 yilda nihoyatda kuchaydi.

Mamlakatda uzoq vaqt davom etgan 1966—1976 yillardagi «madaniy inqilob» aslida xalq ta'limini kuchsizlantirish natijasida xitoy xalqining aqliy imkoniyatlarini ham zaiflashtirdi. Shunga ko'ra mamlakat rahbariyati ta'lim tizimini qayta tiklash va yanada takomillashtirish tomon faol qadam tashlash tadbirlarini qo'llashga kirishdi.

XKP MK ning 1985 yil 27 mayda qabul qilingan «Ta'lim tizimini isloh qilish to'g'risida»gi qarori hozirgi bosqichda ATR ta'limini rivojlantirishning muhim omili bo'ldi. Unda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini qayta qurish va takomillashtirish tadbirlari belgilandi. 1986 yil 12 aprelda Umumxitoy xalq vakillari majlisining sessiyasida Xitoy xalq Respublikasining majburiy ta'lim to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi va bu qonun 1986 yil 1 iyuldan kuchga kirdi.

Mana shu Qonunga muvofiq majburiy ta'limning muddati boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktabda 9 yil, to'liq o'rta maktabda 3 yil qilib belgilandi.

Hozir Xitoyda boshlang'ich maktablarning ikki turi mavjud bo'lib birinchi xilida o'qish muddati 5 yil va ikkinchi xilida 6 yil. Boshlang'ich va o'rta maktablardagi ta'lim hamma tushunadigan putunxua tilida olib boriladiki, u xitoy tilining pekin shevasiga asoslangan.»

Xitoydagi bolalarning bir qismi boshlang'ich maktabga kirishdan oldin bolalar bog'chalarida tayyorlanadi.

Xitoyda so'nggi 20 yil mobaynida har qaysi oila bittadan bolaga ega bo'lishi siyosati yurgizilishi sababli o'quvchilarning soni ancha kamaydi.

Boshlang'ich maktab o'quv rejasiga 9 ta predmet: axloqiy tarbiya, ona tili, arifmetika, «Jamiyat» (tarix, geografiya), tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, ashula va musiqa, badiiy tarbiya, mehnat ta'limi kiritilgan. Mana shu asosiy o'quv predmetlaridan tashqari, haftada 6—8 soat faoliyatning har xil turlariga: mustaqil tayyorlanishga, (1—2 soat), sinf majlislari o'tkazishga (1 soat), sport o'yinlariga (2—3 soat), qiziqishlar bo'yicha mashg'ulotlarga (2 soat) ajratiladi.

Lotin Amerikasi mamlakatlari 1961 yilda AQSh taklif etgan iqtisodiy yordam dasturini, ya'ni «Taraqqiyot yo'lidagi ittifoq» dasturini qabul qilishga majbur bo'ldi. Unda xalq ta'limini rivojlantirishning o'n yillik rejasi ham ifodalangan, umuman mazkur dasturda maktablar tarmog'ini kengaytirish, o'quv maskanlarini bartaraf etishning, butun jamiyatni zamonaviylashtirishning asosiy omili ekani qayd etilgan, ammo dasturda asosan xorijiy mustamlakachilar va mahalliy zodagonlarning maqsad hamda manfaatlarini nazarda tutilgan bo'lib, ularning niyati avvalo xodimlarni yetishtirish va taraqqiyparvar jamoatchilikning diqqat-e'tiborini dolzarb siyosiy muammolardan chalg'itish edi.

60—70 yillarda Lotin Amerikasidagi barcha mamlakatlarda maorif organlarining faoliyati keskin kuchaydi. Hukumat maktab va universitetlar ishiga, ularni moliyaviy ta'minlashga jiddiy e'tibor berdi. Amerika davlatlararo organlari va BTM tashkilotlarining, avvalo YuNESKO ning harakatlari tufayli o'qituvchilar tayyorlash, shuningdek maktab xodimlariga yangicha o'qitish usullarini o'rgatish keng tus oldi. 60 - yillar oxiridan ko'pgina Lotin Amerikasi mamlakatlarida maktab va universitet ta'limi tizimi isloh qilina boshlandi. Islohotning asosiy g'oyasi o'quv maskanlarini ma'rifiy mazmundagi yoki mahalliy maqsadlarni ko'zlangan vazifalarni bajarishga, fantexnikani takomillashtirish negizida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirishdan iborat edi.

Ta'lim siyosatini ana shu tariqa o'zlashtirishlarini Shimoliy Amerika o'quv markazlari asosida ta'limni zamonaviylashtirish deb baholash mumkin edi. Mazkur o'zlashtirishlar pedagogik jihatdan muayyan amaliy maqsadlarni ko'zlashga da'vat etdi. Yosh avlodni o'qitish sohasidagi mazkur o'zgarishlar ko'pchilikni ishonchini oqlamadi va umidini puchga chiqardi. Tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirmay, ta'lim sohasida ham muvaffaqiyatlarga erishib bo'lmashligi to'g'risidagi fikrlarni isbotladi.

60—70 yillarda ta'lim sohasini rejalashtirish astasekim yo'lga qo'yildi, o'quv yurtlarini mablag' bilan ta'minlash tartibga solindi. Maktab ishlarini markazlashtirish kuchaydi va bu hol o'quv dasturlarini tuzish, kadrlardan foydalanish, maktab binolarini qurish kabi ishlarni muvofiqlashtirish imkonini berdi.

Mintaqadagi (Barbasdan boshqa) hamma mamlakatlarda bolayaarni majburiy ravishda 14 yoshgacha (Peruda 16 yoshgacha) o'qitish joriy etildi. Boshlang'ich maktabdagi, ayrim mamlakatlarda, hatto o'rta maktabdagi o'qimsh ham bepul qilindi. Lekin bu qoida faqat davlat sektoriga qarapli maktablarga taalluqli edi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining ba'zilarida maktablarning azaliy strukturasi o'zgartirish bo'yicha ham islohotlar o'tkazildi. Boshlang'ich maktablarni va o'rta maktablarning

dastlabki bosqichlarini birlashtirgan maktab ta'limi bazaviy turkumi tuzildi. Chunki boshlang'ich maktabga asoslanib kelgan kasbkorlik maktablarining umum-ta'limiy saviyasini oshirish zarur edi. Dastlab 1965-yilda Chilida 8 yilga mo'ljallangan bazaviy turkum tashkil topgan bo'lib, 70-yillarda Boliviya va Braziliyada ham 8 yillik, Peru, Salvador va Venesuelada 9 yillik, Argentinada 6 yillik, Yamayka va Kolumbiyada 5 yillik aia shupday turkumlar joriy etildi. Peru, Panama va boshqa qator mamlakatlarda majburiy ta'lim faqat boshlang'ich maktablarga emas, balki butun bazaviy turkumga ham tatbiq qilindi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining ayrimlaridagi o'quv dasturlarining tor ixtisoslashuvi va muayyan amaliy yo'nalishiga ega bo'lishi yoshlarning umumta'limiy tayyorgarligi uchun zararli bo'lib, apa shu taysrgarlik darajasi pasayishiga olib boradi. Braziliya, Kolumbiya, Venesueladagi maktablar ixtisoslashtirilganining oqibati ana shu fikrni yaqqol isbotlaydi. Mazkur islohot aholini ish bilan ta'minlashning, davlat korxonalarini uchun kadrlar tayyorlashning ba'zi muhim milliy muammosini va boshqa ba'zi masalalarini hal etish imkonini bergan bo'lsada, qator salbiy natijalarga olib borishi ham muqarrardir. Chunki ushbu ixtisoslashtirish bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, maktab tizimining amerikalashuviga, uning insonparvarligi buzilishiga sabab bo'ladi. Mintaqadagi mazkur o'zgartirishlardan ko'zlangan asosiy maqsad ajpabiy monopoliyalar va mahalliy katta kompaniyalar korxonalarini yerlik mehnat resurslari hisobidan malakali kadrlar bilan ta'minlash edi. Shunga ko'ra ta'limning isloh qilish dasturining bir tomonlama xarakteri tez orada yaqqol ayon bo'ldi.

Shunga qaramay, mintaqada ta'limni isloh qilish, shu jumladan, o'rta maktablarni ixtisoslashtirish milliy iqtisodietni kadrlar bilan ta'minlashda ma'lum darajada yordam berdi. Shuning uchun ham davlat boshlang'ich maktablar bilan bir qatorda o'rta va oliy o'quv yurtlarini ham mablag' bilan ta'minlashni kuchaytirib bordi. Mintaqada xususiy o'quv yurtlari tarmog'i ham kengaydi. Ta'limning hamma bosqichlaridagi o'quvchilar kontingvnti ancha ortdi. Lotin Amerikasi mintaqasi 1975 yilda bolalarni boshlang'ich ta'limga jalb etish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chikdi va qolgan hamma ko'rsatkichlar bo'yicha rivojlanayotgan hamma mamlakatlardan ancha ilgarilab ketdi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining taraqqiy etar va jamoatchiligi keng xalq ommasiga xizmat qiladigan xalq maorifi masalalarini mustaqillik, demokratik va yuktimoiy taraqqiyot uchun kurashish orqaligina hal etish mumkinligiga ishonch hosil qildi va xuddi ana shu yo'nalishdan borishga intilmokda.

6-MAVZU: ShAXS RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

Reja:

- 1.Shaxs, inson, individ tushunchalariga izox bering.
- 2.Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.
- 3.Shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari xamda jixatlari.
- 4.Shaxs rivojlanishida muxitning roli.
- 5.Rivojlanishning yoshi va o'ziga xos xususiyatlari.
- 6.Shaxsning ijtimoyilashuvi.

Tayanch so'z va iboralar: shaxs, individ, inson, rivojlanish, muHit, shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchiomillar, fiziologik, biologikva psixologik ta'sir, O'spirinlikdavri, balog`at yosh, faoliyat...

1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a`zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog`i kerak.

“Individ” nima? Bola ma`lum yoshga qadar “individ” sanaladi. **Individ** (lotincha “individium” so`zidan olingan bo`lib, «bo`linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma`nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o`ziga xos xususiyatlari bo`lib, uning namoyon bo`lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o`rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo`lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o`quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo`lgan qiziqish hamda iste`dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub`ekti va ob`ekti, ta`lim sohasidagi xizmatlarining iste`molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta`riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma`naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uninghar tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo`lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fukaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo`nalishi bo`yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida **shaxsga aylanishi** uchun **ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya** kerak bo`ladi. Ana shular ta`sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o`zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o`sishida namoyon bo`ladigan miqdor va sifat o`zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o`tish, yangilanish, yangining paydo bo`lishi, eskining yo`qolib borishi, miqdor o`zgarishining sifat o`zgarishiga o`tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o`rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi **inson ijtimoiy mavjudotdir** degan falsafiy ta`limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson **tirik, biologik** mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga **biologik va ijtimoiy** qonuniyatlar birgalikda ta`sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo`lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta`sir etadi.

Inson butun umri davomida o`zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo`lsa, u jamiyat a`zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o`ziga **munosib o`rin egallaydi**. Chunki rivojlanish tarbiya ta`siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to`g`ri ko`rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to`g`ri hal etish uchun uning xulqiga ta`sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta`sir etishi uchun o`sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, **rivojlanish va tarbiya** o`rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs tarbiyasiga ta`sir etuvchi omillar. Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga **biologik** va **ijtimoiy** omillarning ta`siri o`rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko`pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida **ijtimoiy hodisalarning** ta`siri kuchli bo`ladimi? **Yokitabiiy omillar**etakchi o`rin tutadimi? Balki **tarbiyaning** ta`siri yuqoridir? Ular o`rtasidagi o`zaro munosabat qanday?

Fanda **biologik yoʻnalish** deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi oʻrinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar **tabiiy-biologik** omillarni yuqori qoʻyadi. Ular tugʻma **imkoniyatlar, taqdir, tole** har kimning hayotdagi oʻrnini belgilab bergan, deyдилar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan **preformizm** oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, **ijtimoiy muhit** va **tarbiyaning** rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan boʻlib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga oʻtib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur taʼlimot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Prognatizm oqimi va uning vakillari D.Dʼyul, A.Kombe ham shaxs **rivojlanishini biologik** nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faʼsat miqdoriy oʻzgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni **inson taqdiridahal** qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni **biologik (nasliy)** omilga bogʻlaydilar.

Biologik oqimga qarshi **falsafiy** oqim vakillari rivojlanishi **ijtimoiy omil** omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining **jismoniy, psixik rivojlanishi** u yashaydigan muhitga bogʻliq deb koʻrsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi taʼsir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani oʻzi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs boʻlib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning taʼsirini aniqlashda ilgʻor pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar taʼlimotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy hayotdagi **murakkab voqelik** deb qaraladi. Ular individning maʼnaviy boyligi uning munosabatlariga bogʻliq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa oʻz navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs maʼlum **ijtimoiy tuzum mahsulidir**. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishi yoki yoʻq qilishi mumkin.

Faylasuflar **shaxsni tabiatning bir boʻlagi** deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari boʻlib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan gʻoyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat oʻrtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi **tabiat, muhit, inson** oʻrtasidagi murakkab aloqa taʼsiri ostida roʻy beradi, inson ularga faol taʼsir etadi va shu yoʻl bilan hayoti va oʻz tabiatini oʻzgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning taʼsiri ham muhim. Bu **tarbiya tizimi** orqali amalga oshiriladi. Yaʼni,

Birinchidan, tarbiya taʼsirida muhit bera olmagan bilim, maʼlumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bogʻliq koʻnikma va malakalar hosil boʻladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tugʻma kamchiliklar ham oʻzgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy taʼsirini ham yoʻqotish mumkin.

Toʻrtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga taʼsir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi oʻringa ega boʻlib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit taʼsirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'rnini. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? **Faoliyat** shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalaridan iborat. Faoliyatning asosiy turi – **muloqotdir**.

Faoliyat **faol va passiv** bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonidagi faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilan faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha **ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi** ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yaganligidir.

Shuning uchun ham **inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi** hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar **yosh xususiyatlari** deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun **temperamentning** umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament

(lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati») ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.

2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3. Maktabgacha bo'lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.

4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar) – 7 yoshdan 11,12 yoshgacha.

5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) 14-15 yosh.

6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) – 16-18 yosh.

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rni endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi.

Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O'rta maktab yoshi (o'smirlar 12-15 yosh). O'smirlarlikning murakkabligi **anatomik-fiziologik va psixologik** xususiyatdagi kuchli **o'zgarishlar** bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni **o'tish davri** ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi **pasayadi**, intizomi **bo'shashadi**.

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi.

2. O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda, o'smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o'smirlarning hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38 foiz o'smir hech qaysi o'quv fanlarini o'qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o'quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o'quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o'smirlar qiziqishi o'qituviga bog'liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o'qishlari ham barqaror emas.

Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q.

Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi.

Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O'smirlarda **biror narsaga erishishga** nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti "qiyin" vazifalarga to'liq bo'ladi.

Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. "Dangasa", "qo'pol", "bee'tibor", "qobiliyatsiz" degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar.

O'smir yoshida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa – o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar.

Shuning uchun o'smirlar o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

Katta maktab yoshi – kollej, litsey o'quvchilari (o'spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik bu asliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada, ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustahil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan,

ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda otanalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

7-MAVZU: O'QUV-TARBIYAVIY VAZIYATLARNI LOYIXALASHTIRISH ASOSLARI

Reja:

1. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning mohiyati
2. Tarbiya qonuniyatlari va qoidalari.
3. Tarbiyada o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarni xisobga olish
4. Tarbiya berish usullari va vositalari
5. Tarbiya turlari.

Tayanch so'z va iboralar: komil inson, insoniy sifatlar, tanbex, xato, jazo, tarbiya, tarbiyalanganlik, adolat, sub'ektiv va ob'ektiv nuqtaiy nazar, ogoxlantirish, uyaltirish, amaliy namuna.

1. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning mohiyati

Ta'lim nazariyasi bo'limini o'rganishda o'quv jarayoni o'zining butun mazmuni, tashkil etishi, o'qituvchining faoliyat xarakteri bilan o'quvchilarni faqat bilimlar bilan qurollantirishga emas, balki ularni yaxshi xulq-atvor egalari qilib tarbiyalashga xam qaratilganligiga ishonch xosil qildik. Biroq tarbiya vazifalarini to'la ma'noda faqat o'quv jarayonida xal etish mumkin emas.

Tarbiya, ta'lim berish bilan mustaxkam aloqada bo'lgani xolda o'ziga xos qonuniyatlarga xam egadir. Ta'lim va tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi avvalo ular maqsadining umumiyligidan iborat.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa xayotni bilish, unga tayyorlanishdek ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarini bilimlar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiyada o'quvchining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, axloqiy malaka va ko'nikmalarini, extiyoj va intilishlarini tarkib toptirish muximdir.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida inson kamolatida tarbiyaning rolini aloxida ta'kidlab shunday degandi: "Janobi xaq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshiila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, xar kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasixatni qulog'iga olmaydigan, xar xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, joxil bir rasvoyi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar Tabib kabiturki, Tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jaxl maraziga "yaxshi xulq" degan davoniichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir.

O'quv jarayonini boshqarish nisbatan oson, uning natijalari darxol namoyon bo'ladi va ularni tekshirish mumkin. Tarbiya xaqida buni aytish mumkin emas.

Bolaning o'sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ijtimoiy foydali

mexnat, ijtimoiy ishlar, o'yin va o'qish faoliyati, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar bolalarining xayotida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bolalarning bunday xilma-xil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish, uni yaxshi aloxida sifatlar, xarakter xislatlari, odatlar tarkib toptirishga qaratish tarbiyaning muxim vazifasi xisoblanadi.

Bolalarini tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtdan boshlanadi va muntazam ravishda ta'lim berish bilan birga olib boriladi. Bola maktabga borganidan keyin bu jarayon davom ettiriladi. Maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan rejalashtiriladigan ulkan ishning bir qismi xolos. U bolaning ilgarigi tajribalarini xisobga olgan xolda tashkil etiladi. Tarbiya o'quvchi maktabni tamomlaganidan keyin xam tugallanmaydi, balki muntazam davom qildiriladi.

Pedagogikada tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl va usullari tarbiyalanuvchi shaxsining qaror topishi bilan mustaxkam bog'liq xolda qarab chiqiladi.

Tarbiya tarbiyalanuvchining ruxiyatiga tarbiyachiga ma'qul bo'lgan sifatlarni singdirish uchun, maqsadga muvofiq suratda va muntazam ravishda ta'sir etishdir.

O'qituvchi - tarbiyachi tomonidan tarbiyaviy jarayonga raxbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir tartib bo'lishi mumkin. Shunday qilib, tarbiya avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish jarayoniga raxbarlik qilishini taqazo etadi.

Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, xayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topib boradi. U tarbiyalanuvchining xulq-atvori xamda tevarak-atrofdagi muxitning xilma-xil ta'sirlariga uning munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning bu tutgan yo'li qancha aniq va izchil bo'lsa, tevarak-atrofdagi xayot sharoitlarining turlicha salbiy ta'siri shuncha kuchsiz bo'ladi.

Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlar o'qituvchi-tarbiyachilar, sinf raxbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular tarbiyani jamiyatning maqsadi xamda vazifalariga muvofiq ravishda tashkil etadilar.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan mustaxkam boo'langan. O'z-o'zini tarbiyalash kishining o'z shaxsini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri tarbiya berish bilan birga sodir bo'ladi va ayni vaqtda to'g'ri tarbiya natijasi xisoblanadi.

O'z-o'zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchi o'zini to'g'ri baxolay bilishga o'rganishi, xayotda o'ziintilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan xolda o'zidagijobiy sifatlarni va kamchiliklarni ko'ra olishi muxim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari o'zaro mustaxkam bog'langan bo'lib, inson shaxsini tarkib toptirishning bir butun jarayonida doimo bir-biriga ta'sir o'tkazadi.

2. Tarbiya qonuniyatlari va qoidalari

Xar bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining xam o'ziga xos bir qator muxim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi, chunonchi:

1. Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
2. Tarbiyaning xayot, mexnat bilan, O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoyiishlar bilan bog'lanishi;
3. Shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
4. Tarbiyada bola shaxsini xurmat qilish va unga talabchanlik;
5. Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi xamda birligi;
6. Tarbiyada o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish.

Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi. Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi - xar tamonlama kamol topgan - mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi va xar bir o'qituvchi tarbiyachi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi xamda maktab ish sharoitlarini xisobga olgan xolda o'quvchilarning tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

Tarbiyaning xayot bilan bog'liqligi qoidasi tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishni talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini xayot bilan bog'lar ekanlar, ularga o'zlarida imon-e'tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar.

Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat xayotiga faolroq jalb qilinadi, bu esa o'quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'qituvchilar axil jamoa bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo'ladi va muvaffaqiyatli ta'minlanadi. Yaxshi uyushgan, sog'lom jamoada o'quvchilar jamoatchiligining fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi va tarbiyada o'qituvchilarning tayanchiga aylanadi.

O'z manfaatini jamiyat manfaatlari bilan qo'sha bilish, bir-biriga o'zaro yordam berish kabi qimmatli fazilatlar avvalo jamoada shakllanadi. O'quvchilar jamoasida xar bir shaxsning kamolga yetishi, xamda sinfda va umuman maktabda do'stlik rishtalarini mustaxkamlash uchun qulay sharoit yaratmoq darkor. Shuni xam aytish kerakki, ba'zan tarbiya jarayonida jamoa bilan shaxs o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishga xam to'g'ri keladi.

O'quvchilarda jamoa manfaatini ko'zlash, jamoachilik xissi avvalo birgalikda o'qish va mexnat qilish jarayonida mustaxkamlanadi.

O'qituvchi va tarbiyachi o'zining tarbiyaviy ishlarida xamma vaqt o'quvchilar jamoasiga va ular orasidagi faol o'quvchilarga tayanmog'i, o'quvchilarni turliishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoatchilik ruxini singdirib borishi lozim.

O'qituvchi va tarbiyachilar o'quvchilarga nisbatan talabchan bo'lishlari va qo'yan talablarining o'quvchilar tomonidan so'zsiz bajarilishiga erishmoqlari lozim. Bu esa bolalarni kattalar tomonidan qo'yilgan oqilona talablarni o'z vaqtida bajarishga odatlantiradi. Shu bilan birga bolalar o'zlariga nisbatan xam talabchan bo'ladilar.

Tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan o'qituvchilar, ota-onalar, bolalar va yoshlar tashkilotlari xamda barcha jamoatchilik tomonidan bir xilda talab bo'lishini ta'min etish g'oyat muximdir.

Xullas, o'quvchilarga nisbatan talabchan bo'lish, ularga samimiy muxabbat va xurmat bilan qarash qoidasini oqilona xamda moxirlik bilan to'g'ri qo'llanishi, o'quvchilarning kuchiga, imkoniyatlariga ishonch bilan qarash – tarbiyaning muvaffaqiyatli borishiga yordam beradi.

3. Tarbiyada o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarni xisobga olish

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. **Yosh xususiyatlari** muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlarini: bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, pallalarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida ular xayot, inson va tabiat, umuman atrofimizni qrab olgan dunyo xaqida aniq bilimlarga ega bo'ladilar. Ularning axloqi xam o'zgarib boradi. Shu yillar ichida bolaning axloqiy tuyg'ulari rivojlanadi, ongi bilan xulqi o'rtasida uyg'unlik vujudga keladi, xarakteri tarkib topadi, o'z xulqi va xatti-xarakatlarini extiyojga va sharoitga muvofiqlashtirga intilish odatlari tarbiyalanadi.

Bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko'ra ularga beriladigan tarbiyaning mazmuni, pedagogik xabarlikning xarakteri xam o'zgarib boradi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdagi o'z asosiy vazifalarini: o'zini maktabda, uyda, ko'chada qanday tutish qoidalarini bilib oladilar. Bunday odatlar ularga namuna ko'rsatish, tushuntirish yo'li bilan singdiriladi.

Bolalarning yoshi ulg'yan sari ularga talab xam orta boradi. Shu tufayli o'rta va katta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularni mustaqilligiga suyanib ish ko'rish yaxshi natija beradi. Tarbiyada bolalarning kuchi va imkoniyatlarini to'la ishga solish yaxshi, lekin ularning kuchiga ortiqcha baxo berib yuborish xam yaramaydi.

Tarbiya berishda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan tashqari, xar qaysi bolaning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish xam katta axamiyatga ega. Bolalarning yoshi bo'yi bir

xil bo'lsada, ularning mijoz, fazilatlar, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari xar xil bo'ladi. Bu farqlar bolalarning, xulqida, o'qish va mehnatida aks etadi.

Bir o'quvchiga nisbatan muvofiq bo'lgan tarbiya uslubini boshqa bir o'quvchiga nisbatan qo'llaganda u kutilgan natijani bermasligi mumkin. Sinfdagi o'quvchilarning ba'zilariga oddiy tanbexning o'ziyoq samarali ta'sir ko'rsatadi, ammo boshqa o'quvchilarga tanbex berishning o'zi kifoya qilmaydi. Unga nisbatan jiddiyroq choralar ko'rishga to'g'ri keladi. Ba'zan bir o'quvchi ayrim axloqiy fazilatlarini tezda o'qib oladi va unga amal qiladi, ikkinchisi esa unga amal qilmaydi, ayrim bolalar esa bu sifatlarni o'zlariga juda sekinlik bilan singdiradilar.

Ayrim o'quvchilar o'zlarining faolligi, saronjom-sarishtaligi, intizomlili, faxm-farosati bilan o'qituvchi va bolalar jamoasining ishonchi va xurmatiga sazovor bo'ladilar, boshqalari esa, intizomsizligi, pala-partishligi, betga choparligi, bema'ni qiliqlari bilan tezda "tanilib" qoladilar.

Demak, xar bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi, xis-tuyg'ularini kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, tarbiyaviy ishlarda ularni xisobga olish tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi.

Avvalo ta'lim va tarbiya bir maqsadni - barkamol inson shaxsini tarbiyalashni nazarda tutadi. Ya'ni ta'lim ishi tarbiya bilan birga qo'shib ketadi va bir-birini to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Dars jarayonida olib borilgan tarbiyaviy ishlar sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bilan qo'shiladi.

Bolalar bilan olib boriladigan xar bir tarbiyaviy ish butun tarbiya ishlarining ajralmas qismi sifatida amalga oshirgan taqdirdagina ta'siri kuchli bo'ladi.

Tarbiya ishidagi izchillik va tizimlilik shundan iboratki, xar bir tarbiya ishi maktabning umumiy tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, oldingi ishlarning mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida qilinayotgan ishlarni rivojlantiradi, mustaxkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi.

4. Tarbiya berish usullari va vositalari

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalar kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiya metodlari (usullari) — o'qituvchi - tarbiyachining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning xayoti va faoliyatini tarbiyaviy jixatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir, aniqrog'i, tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta'sir etish yo'llariga aytiladi. Tarbiya usullari tarbiyaing maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgandir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqati nazaridan baholash mumkin.

Ajdodlarimiz davr sinovidan o'tgan ajoyib insoniy fazilatlar xamda ularni amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarni ijtimoiy xayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Bolalarda insoniy xis-tuyg'ularni tarbiyalashning asosi— kishilarga mexr-muxabbat qo'yish, izzat-xurmat bilan muomala qilish, insoniy xuquqlarni ximoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, xalol va rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq pedagogikasining muxim axamiyatga ega bo'lgan xususiyatlaridan yana biri **folklor materiallarida** xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiya yo'llari, usuli va vositalarining yoritilishidir.

Mexnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalangan. Chunonchi, **tushuntirish, odatlantirish (o'rgatish, mashq qildirish), bolalarning kundalik xayoti rejimi, ibrat (namuna, o'rnak) ko'rsatish, maslaxat berish, o'git-nasixat, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolborish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, maqtash, raxmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash, taqiq qilish, man etish, ta'na, gina, (o'pka) qilish, qoralash, olloxdan qo'rqishga undash, tanbex berish, uzr so'rash, majbur qilish, masxara-mazax qilish, zaxarxandalik, ayblash, uyaltirish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, nafrat bildirish, aybiga iqrор qildirish, ont-qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish-kaltaklash; jamoa xukmiga xavola qilish** kabi usullar tarbiyada qo'l kelganligi ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, bolalar yashab turgan muxitdagi yashash tarzi ular tarbiyasiga katta ta'sir o'tkazgan. Jumladan, mexnat jarayoni, turli shakldagi qasharlar, bolalar o'yini; bolalar ijodi, choyxona gurungi, xalfana, tuy marosimlari — aqiqa, beshik to'yi, sunnat to'yi, nikox tui, sayillar - dala sayli, gul sayli, qovun sayli, yig'in-tomosha, tug'ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz majlisi, istiroxat bog'larida bo'lish, ommaviy yig'in xamda tomoshalarga qatnashish (va xokazolar) **tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qilib kelgan.**

Ayni vaqtda tarbiya mazmunining ko'p qirraliligi va kengligi tufayli tarbiya usullari xam xilma-xil bo'lib, muayyan sharoitda ulardan qaysibirini tanlash va qo'llash o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida vujudga kelgan munosabatlarga, tarbiyaning qaysi soxasi xal qilinayotganligiga (o'quvchilarda burchga munosabat, ota-ona, kattalarga xurmat, odob qoidalariga rioya qilish, savob va gunox ishlar, xushxulqlik xamda badxulqlik xaqida), ayni vaqtda vujudga kelgan vaziyatga bog'liqsir.

Tarbiya usuli xam ta'lim usuli kabi yolg'iz o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyatinigina emas, balki o'quvchilarning faol ishtirokini xam o'z ichiga oladi. Bolalarning yoshi ulg'aygan sari ularning tarbiya jarayonidagi faolligi va mustaqilligi osha boradi, ular tarbiyachilar raxbarligida va o'z tashabbuslari, intilish va istaklari bilan yangi-yangi axloqiy fazilatlar orttirib, mukammallashtirib boradilar.

O'qituvchi qo'llayotgan usul va vositalar ta'sirida bolaning ongida va xulqida xam o'z shaxsini o'zgartirish istagi vujudga keladi. Bola o'zini-o'zitarbiyalamasa, aql-farosatiniishga solmasa, tarbiyadan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Xar bir bola o'zining xulq-atvoriga talabchan bo'lishiva o'zida eng yaxshy insoniy fazilatlarining tarkib topishi uchun astoydil tirishmog'i lozim. O'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni kichik yoshdan boshlab o'zini o'zi eplash, tuta bilish, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilish, rost so'zlash, kattalarga xurmatda bo'lish, o'zidan kichiklarga mexribonlik ko'rsatish kabilarga o'rgatib, odatlantirib borishlari lozim. Umuman, o'zini o'zi tarbiyalash axloqiy barkamollikka ishtiyoq tug'dirishdir.

O'z-O'zini tarbiyalash bolaning doimiy ishibo'lmog'i va uzluksiz davom etmog'i zarur. Chunki xaqiqiy tarbiya bolani o'z kuchi, layoqatlari va qobiliyatiniishga solishga undaydi, uning ideallarini, shaxsiy muloxazalarini, e'tiqodini tarkib toptiradi. Natijada bola shaxsini xar tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayon o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi.

Tarbiya usullari nazariyasida yana **yo'l** va **vosita** tushunchasi xam qo'llanadi. Yo'l usulga nisbatan xususiy tushuncha bo'lib, usulga bo'ysunadi, xizmat qiladi. Masalan: bolalarni axloq-odob qoidalariga o'rgatish, odatlantirish uchun mashqlardan foydalanamiz. Bu usulga turli yo'llari xizmat qiladi, ya'ni ko'rsatamiz, o'rgatamiz, ta'kidlab, esiga tushirib turamiz yoki ma'ruza, suxbatlar orqali axloqiy fazilatlar mazmunini ochib beramiz.

Bu o'quvchining ongiga ta'sir etish maqsadidagi ishontirish yo'llaridir. Lekin ishontirishda bolaning faqat ongigagina ta'sir etish orqali natijaga erishish qiyin bo'ladi. Shuning uchun aytayotganlarimizning to'g'riliginiisbotlash va unianiqlashtirish uchun ko'rsatish usulidan foydalanamiz: xushxulqlik va badxulqlikka oid xikoyat, rivoyat, xikmatlardan foydalanamiz va xokazo. Bularning biri odatlantirish usulining yo'li bo'lsa, ikkinchisiishontirish usulining yo'lidir.

Xalq pedagogikasida tarbiya usullari. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish).
2. Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
3. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish).
4. Nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
5. Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar e'tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Bolalar narsa, hodisa va jarayonlarning mohiyatiga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasidan foydalanadi, ya'ni, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Bu holatda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'g'iti asosida narsa, hodisa yoki jarayonlarning mohiyatini anglaydilar. Bordiyu, bu holatda ham kutilgan natijaga erishilmasa yoki bolalar e'tibor qaratilgan holatning mohiyatini tushunishni istamasalar, eng so'nggi chora sifatida qoralash va jazo metodida foydalanishga to'g'ri keladi. Biroq, bu eng so'nggi chora. Zamonaviy pedagogika g'oyalariga ko'ra qoralash va jazo metodlarini so'nggi, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlangan.

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar yordamida qo'llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayillar, oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, shuningdek, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o'ziga xos tarbiya vositasidan foydalaniladi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar qo'llaniladi.

O'quvchilarda g'oyaviy ongliklik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichik va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim.

Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan usuldir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasining mohiyati tushuntiriladi.

Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

a)etik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

b)estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

v)siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar);

g)ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Suhbatlarning, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish, huquqiy, ekologik, iqtisodiy va gigienik mavzularda ham tashkil etilishi o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish juda muhimdir. Bu borada bahs-munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boylar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofidagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak.

Ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma'lumotlar, adabiy asar, kinofilm va spektakllar qahramonlarining xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z ota-onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunada xalq pedagogikasi g'oyalariidan ham foydalaniladi. Ota-onalar o'z farzandlarini hamisha katta hayotiy tajribaga ega, dunyoqarashi va bilim doirasi keng kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko'rganini qiladi». Juda oddiy xulosa. Shu oddiy xulosa ostida qancha fikrlar jamlanib yotgavnligini hamisha ham fahmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq xalq «uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi», «bola oldida birovlarining g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi», demoqchi.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. **O'z-o'zini tarbiyalash metodlari** o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullardir.

O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish va o'quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qish, tarbiya va dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish o‘z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishga yordamlash zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni, tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganligidir. Ushbu metodni qo‘llash sinfning o‘quvchilarining umumiy yoki jamoa a’zolarining shaxsiy xususiyatlarini bilishga asoslanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo‘llaniladi: «Shunday harakat qilish kerak», «Hamma shunday qiladi». O‘smirlar bilan ishlaganda ma’naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma’nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo‘llaniladi:

1) yangi ma’naviy-axloqiy sifatlarni yoki xulq ko‘nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;

2) tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o‘quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to‘g‘ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o‘quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta’sir etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hamda o‘smirlar ishonuvchan bo‘lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma’lum ko‘rsatmani qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta’sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular («Did haqida bahs», «Mashhur bo‘lish yo‘llari», «Biz madaniyatli kishilarmizmi?») va hokazolar)da o‘tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to‘qnashgan vaziyatda o‘quvchilarda ma’lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadga muvofiq. Munozara uchun mustaqil mulohaza va qarashni yuzaga keltiruvchi 5-6 ta savol tayyorlanadi. Ushbu savollar bilan munozara ishtirokchilari oldindan tanishtiriladilar. Ba’zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o‘zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisq bo‘lishi zarur. Matnni yozish kerak emas, agar shunday holat yuz bersa munozara zerikarli tus oladi. Pedagog munozara ishtirokchilariga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O‘qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O‘quvchilar odatlarni o‘z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli, tjobiy jarayondir. Mashq natijasini ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma‘naviy-axloqiy sifatleri boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir. O‘qituvchi bu harakatlarni ko‘rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:


- 1) faoliyatda mashq qilish;
- 2) kun tartibi mashqlari;
- 3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o‘zaro munosabatni yo‘lga qo‘yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog‘liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko‘nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Topshiriq o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul. O‘quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O‘shuvchilar o‘z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas‘uliyatni his etishga o‘rganadilar, Mehnat qilish o‘quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me‘yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma‘lum harakatlarni rag‘batlantiruvchi yoki to‘xtatuvchi hamda o‘quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usulidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglash olishi zarur. Shundagina o‘quvchi o‘zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o‘z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o‘z o‘rniga ega. O‘qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanadi. O‘quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo‘lishga intilishiga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag‘batlantirishning quyidagi turlari qo‘llaniladi:




Har qanday rag'batlantirish mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi zarur, shuningdek, o'quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslash, ularni kamsitmaslik, talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabi shartlarga muvofiq qo'llaniladi.

Jazolash tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o'quvchining individual xatti-harakatlari va umumjamoaning faoliyati uchun qo'llaniladigan eng so'nggi tarbiya usuli. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash kabi usullardan foydalanish mumkin emas, o'quvchini qo'rqitish, g'azablantirish ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, o'quvchi qo'rqanda yolg'on gapirishni o'rganadi, ikki yuzlamachi bo'lib qoladi.

Maktablarda qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:



Жазолаш турлари

Tanbeh berish – eng muhim jazo chorasidir. O'qituvchi o'qituvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish – sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Hayfsan berish – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, uning aybi qay darajada bo'lishi va intizomni qanday sharoitda buzganligini inobatga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish - o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan sub'ektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo puxta o'ylab qo'llanilishi lozim, aksincha, jahl ustida jazolash mumkin emas. Jazolar yakka xarakterda, ya'ni, birgina usulni qo'llash asosida bo'lsin, o'quvchining aybiga mos, muvofiq bo'lishi, tez-tez qo'llanilmasligi, jazolanuvchida jazoning to'g'ri belgilanganligiga nisbatan shubha tug'ilmasin va ular o'z ayblarini sezsin. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Barcha holatlarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlariga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha'nini yerga urmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda yuqorida ta'riflangan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Bu guruhlar o'z navbatida bir qator tarbiya elementlarini tashkil etadi. Chunonchi, shaxs ongini shakllantirish metodlariga: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, ishontirish, nasihat, yo'riqnoma, munozara, ma'ruza, namuna; faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlariga mashqlantirish, odatlantirish, pedagogik talablar, jamoat fikri,


topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat; xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlariga: musobaqa, rag'batlantirish va jazolash kiradi.

Tarbiya jarayonining umumiy holatidan kelib chiqqan holda tarbiya metodlarini quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:



Тарбия методларининг турлари

Tarbiya berish vositalari. Tarbiyaviy vosita ancha keng tushuncha bo'lib, har qanday tarbiyaviy vazifani xal qilish uchun o'qllanilayotgan usuliy yo'lning muvaffaqiyatli chiqishiga ko'maklashadi. Tarbiyaviy vositaga **turli xil predmetlar, faoliyat turlari, tarbiyaviy maqsadda qo'llanayotgan texnik imkoniyatlar, ko'rsatmali qurollar, ajdodlarimiz merosi, xalq og'zaki ijodi materiallari, bolalar adabiyoti, ommaviy aloqa vositalari (radio eshittirish, maktab radiosi, oynai jaxon ko'rsatuvi yoki kino-film va boshqalar)ni kiritish mumkin.**



Tarbiya berish vositalari

Moxir tarbiyachi bolaga tarbiyaviy ta'sir etishda uning yoshi va shaxsiy xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasi, o'zi bilan bola o'rtasida vujudga kelgan munosabat, o'quvchi intilishlarining o'ziga xosligi, faoliyatda qatnashishdan bolaning ko'zlagan maqsadini xisobga olib, bolaga ta'sir etishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan usulni to'g'ri tanlay oladi.

Usullar tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'zaro bog'liq bo'lib, uning bir turi ikkinchisi bilan qo'shilib ketadi. Xech bir usulni aloxida, yakka xolda qo'llab bo'lmaydi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinf qo'uvchilari bilan ishlashda, ular uchun yangi bo'lgan o'quv mexnatini o'rgatish ishini o'quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, maktabda va uyda kun tartibi aniq bo'lishi muximligini, qunt bilan, zo'r berib mexnat qilish zarurligini uqtirishda tushuntirish yo'lini qo'llaydi. Tushuntirish bilan bir qatbrda o'qytuvchi o'z o'quvchilarini har kuni **axloq-odob qoidalarini** mashq qildiradi, sinfga to'g'ri kirib kelishga, o'qituvchi va bolalar bilan salomlashishga, parta qopqog'ini taraqlatmay ochib-yopishga, ish joyida tartib saqlashga, o'qituvchiga murojaat qilish va xokazolarga odatlantirib boradi.

O'quvchilarni o'quv mexnatiga jalb qilish o'qituvchidan o'quv ishi natijalarini rag'batlantirishni talab etadi. Shu bilan birga, birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlaganda ma'qullash, maqtash singari ta'sir vositalarini, shuningdek, beparvolik, qunt qilib ishlamaganlik uchun **ogoxlantirish, tanbex berish, uyaltirish usullarini** qo'llay boshlaydi.

O'qituvchi birinchi sinf o'quvchilarini dastlabki kundan boshlab o'z ustida ishlashga, o'z-o'zini tarbiyalash malakalarini egallashga qaratadi.

Ko'rib turibmizki, o'qituvchi bolalar bilan ishlashda tarbiyaning xilma-xil usul va vositalarini qo'llaydi, bunda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini va butun sinf jamoasining manfaatlarini ko'zlab biron-bir qaror qabul qilishni talab etadigan tarbiyaviy vaziyatni xisobga oladi.

Tarbiyaviy usullarni ularning vazifasiga qarab quyidagi asosiy guruxlarga ajratish mumkin:

Ijtimoiy axloqni tarkib toptirish va o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish usullari: o'rgatish ibrat-namuna, ishontirish, o'yin, musobaqalar.

Bular yordamida o'quvchida **axloqiy odatlar** xosil bo'ladi. O'quvchining xulqida tarbiyaning mazmuniga muvofiq axloqiy nafosat, mehnat qilish odatlari qaror topib boradi. Bunday odatlar asosan faoliyat zaminida tarkib topadi. Demak, bola shaxsini ifodalaydigan ijtimoiy xulq odatlarini xosil qilish uchun uni faoliyatga jalb etish yo'li bilan ijtimoiy aloqalar sharoitiga qo'yamiz va uning shaxsiy xususiyatlarini belgilaydigan odatlar xosil qilamiz. Bu gurux usullarga vazifalari bir-biridan farq qiladigan juda ko'p yo'l va vositalar kiradi. Masalan, **o'quvchiga sharqona urf-odat, tarbiyani o'rgatish, mashq qildirish, ibrat namuna, talab etish, ishontirish, o'yin, jamoatchilik fikridan foydalanish** shular jumlasidandir.

O'quvchilar jamoasida vujudga keladigan sharoit (vaziyat) xam katta ahamiyatga ega. Agar o'quvchilar hech narsadan cho'chimay o'z o'rtoqlarining xatti-xarakatini baxolay olsalar, tortishsalar, o'qituvchiga xoxlagan savollarini bersalar, bunday vaziyat ularning axloq qoidalariga bo'lgan munosabatlariga ijobiy ta'sir etadi. Kattalarning o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilikning bolalar xulq-atvori, yurish-turishini nazorat qilib turishi xam ishda muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu nazoratning muntazam, tizimli va puxta bo'lishi juda muximdir. Ana shunda u o'quvchilarda axloq-odob fazilatlarining tarbiyalanishiga olib keladi.

O'rgatish usuli bolalarning yoshi va tarbiya sharoitlariga qarab o'zgarib turishi mumkin. Tarbiyachi ma'lum bir topshiriqni (tuvakdagi gullarga suv xuyish, parvarish qilish, sinfdagi tozalikka rioya qilishni kuzatib borish va xokazo) berishi mumkin. O'quvchi bu topshiriqni bajarish davomida zarur axloq-odob qoidalarini egallab oladi.

Tarbiyada mashqlardan faqat axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish yo'li sifatida xam foydalanish mumkin. Shuning uchun o'rgatish va odatlantirish usullaridan foydalanishda bolalarning axloq borasida erishilgan natijalaridan qanoatlanish va o'z shaxslarini takomillashtirib borishga intilish xissini sezishlari muximdir.

Ibrat-namuna usuli. Bolalar tarbiyasida ibrat-namunaning ahamiyati kattadir. Namuna yoki ibrat usuli bolalardagi taqlidchanlikka asoslanadi. Taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurish-turishini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir.

Odatda bolalar o'zlarining yaqinlari, tevarak-atrofdagi kishilarning (ota-onalari, opa-akalari, muallimlari, kattalar, tengqurlari) xulq-atvorini va xatti-xarakatlarini kuzatib boradilar, ularga taqlid qiladilar. Lekin ko'pincha bularning nimasi yaxshi-yu, nimasi yomon ekanini farqlay olmaydilar, ular o'zlari uchun ma'qul bo'lganlariga taqlid etadilar va qabul qiladilar.

Bolalardagi bu xususiyatlar shuni ko'rsatadiki, ularning axloq-odob qoidalarini o'zlashtirishi, axloqiy tasavvurlarni xosil qilishi ana shundan, ya'ni ibratdan boshlanadi. Dastlab bola oila a'zolaridan ibrat ola boshlaydi. Ota-ona va oilaning katta yoshdagi a'zolari namunasi kichik yoshdagi bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda asosiy manbadir.

Bola maktabga borishi bilan u taqlid etadigan va ergashadigan kishilar doirasi kengayadi.

Yosh bolalar yon-atroflaridagi kishilarning xamma xatti-xarakatlarini takrorlay berish o'rinli emasligini xali tushunib yetmaydilar.

Bola yoshi ulg'ayib, katta bo'lgan sari nima yaxshi-yu, nima yomon, qaysi xulq-atvor odamlarga xuzur bag'ishlashi, qaysi qiliq, xatti-xarakat noxushlik keltirishini faxmlay boshlaydi.

Bola katta bo'lib es-xushini taniy boshlagan sari yurish-turish, muomala-munosabatda o'z nuqtai nazari va fikriga tayanib ish qiladi.

U kattalarning xulq-atvori va yurish-turishlariga ko‘proq tanqidiy ko‘z bilan qaray boshlaydi va ijobiy xislatlargagina taqlid qilishga urinadi.

Bolalarga xayotdagi yaxshi odamlar, badiiy adabiyotdagi ijobiy obrazlar, mexnat qaxramonlari, ota-bobolarimizning o‘lmas jasratlari, ezgu ishlari taqlid qilish uchun yaxshi namuna bo‘ladi. Shuni aloxida qayd etish kerakki, bolalar xamma vaqt xam ijobiy xulq-atvor va xatti-xarakatlarga taqlid qilavermaydilar.

Shuning uchun o‘qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalarning o‘zlari xammadan burun bolaga namuna bo‘lmog‘lari, o‘zlarida eng yaxshi fazilatlarini aks ettirmog‘lari kerak. Shu bilan birga o‘qituvchilar ibrat uchun namunalarni xalq og‘zaki ijodi, bolalar adabiyoti, maktab, sinf xayoti, ota-onalar faoliyatidan olmoqlari kerak. Bolalarda ijobiy xulq-atvor ko‘nikmalarini tarbiyalashda oila muxiti, ota-onaning xayot tarzi, oiladagi kattalarning yaxshi ibrati g‘oyat muximdir. Xalqimiz «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», — deb bejiz aytmagan. Oilada er-xotin o‘zaro totuv, aqil bo‘lishsa, bir-birlarini xurmat qilishsa, bolalar tarbiyasida barobar jon kuydirishsa, oiladagi kattalar siylanib, izzat-xurmat qilinsa, aka-uka, opa-singillar bir-biriga mexribon bo‘lishsa; qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘, yoru birodarlar o‘rtasida mexr-oqibat, bordi-keldi bo‘lsa, bunday oilada voyaga yetayotgan bola xam millatimizga, xalqimizga xos urf-odatlarini o‘rganadi va ularga amal qilib boradi.

Ishontirish usullari. Bu bo‘limga o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va ishonch-e‘tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, xis-tuyg‘ulari va irodasiga xar tomonlama ta’sir ko‘rsatish usullari kiradi.

Yuqorida bola shaxsining shakllanish jarayoni asosan, kundalik turmush va faoliyatda xosil qilinadigan tajriba, kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarga bog‘liqligi ta’kidlab o‘tilgan edi. Biroq, avval tajriba to‘planadi, so‘ngra esa tegishli tushuncha shakllantiriladi, yoxud aksincha deb, qandaydir navbat belgilab, qo‘yish noto‘g‘ri bo‘lur edi.

Boshlang‘ich maktabda ishontirishning tarbiyaviy jixatdan muxim va qimmatli bo‘lgan tushuntirib berish va ishontirish, xikoya va suxbat, sinfdan tashqari o‘qish, namuna ko‘rsatib ishontirish singari shakl va usullaridan keng foydalaniladi.

Chunonchi, o‘qituvchi 1-sinfdan boshlab bolalarga kattalarni xurmat qilish, ularga baqirib-chaqirib emas, balki shirin muomala qilish kerakligi, ko‘chada yurganda esa ko‘cha qoidalariga rioya qilish, jamoat orasida yurganda, to‘y-xasham, ma’rakalarda o‘zini tutish, bilib muomala qilish, dastyorchilik, o‘zbekona urf-odatlarini o‘rniga qo‘ya olish kabi odatlarimiz aniq tushuntiriladi.

Ota-ona, aka-opalarni xurmatlash, siylash, sizlash, ularning so‘zlaridan chiqmaslik odobdan ekanligi uqtiriladi.

Tushuntirish va uqtirish. Tushuntirishning moxiyati jamiyatning ma’naviy va moddiy xayotidagi eng muxim voqealar to‘g‘risida axborot berish asosida o‘quvchilar diqqatini tevarak-atrofdagi vokelikka, o‘z fuqarolik burchlariga ongli munosabatni shakllantirishga qaratishdan iboratdir. Ko‘pincha o‘quvchilarning o‘z burchlari to‘g‘risidagi bilimlari tasodifiy, yuzaki bo‘ladi. Tushuntirishdan maqsad — biron-bir voqea, xatti-xarakat, qodisaning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini ochishda, xulq-atvor va insoniy munosabatlarni to‘g‘ri baxolay olishda o‘quvchilarga yordam berishdir.

Tarbiyachi tegishli xoida va talablarga qanday rioya qilish zarurligini bolalarga ko‘rsatadi va tushuntiradi. Bolalar ko‘rsatilgan namunali axloqiy qoidalarga taqlid qiladilar. Qoida va talablar fakt va misollar bilan tushuntirilsa, ularni bolalar ravshan anglab oladilar va onglariga chuqurroq singadi. Natijada bu qoida va talablar bolaning kundalik xayot tarziga aylanadi. Axloqiy xoida va talablarning bola xayotiga singib ketishi ko‘p jixatdan uning e‘tiqodining mustaxkam bo‘lishiga bog‘liqdir.

Uqtirish. Uqtirish biror axloqiy fazilatni o‘quvchilar ongiga singdirish va ular tomonida uqib olinishini ta’minlashga asoslanadi. Shuning uchun o‘qituvchilar va tarbiyachilar o‘quvchilarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarini tushuntirganda uning afzalliklarini ko‘rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. «O‘qigandan uqqan yaxshi» degan xalq maqoli bor. Uqib olingan axloqiy fazilat bolada maxkam singib qoladi. Uqtirishning natijali chiqishi xammadan burun tarbiyachining obro‘sigabog‘liqdir. Agar tarbiyalanuvchi o‘z tarbiyachisini izzat-xurmat qilsa,

unga ishonsa, uning o'git-nasixatlariga quloq solsa, uqtirish natijasi samarali bo'ladi. Aks xolda uqtirish tegishli natija bermaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi va tarbiyachilar o'z tarbiyalanuvchilarini sevishlari, xurmat qilishlari, ularning kuch va imkoniyatlariga ishonishlari kerak. Uqtirish jarayonida o'qituvchilar bolalarning o'zlarida o'z qobiliyatlariga, kelajak istiqbollariга ishonch tug'dirmog'i lozim, bu esa bolalarda axloqiy fazilatlarining puxta uqib olinishini ta'min etadi. Tarbiyalash jarayonida ishontirish, tushuntirish va uqtirish xamma vaqt birga, bir-biri bilan mustaxkam bog'langan xolda olib boriladi. Bunga tushuntirish va uqtirish orqali erishiladi.

Davlat, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy qoidalar, talablarga, normalarga, oiladagi, maktabdagi, jamoat o'rtasidagi yurish-turish qoidalariga xamisha o'qituvchilarning o'zlari amal qilishlari va boshqalarni xam shunga undashlari zarur.

Demak, o'quvchilarimiz bu talab va qoidalarning xammasini yetarlicha anglab, ularni ishonch va e'tiqod bilan bajarishlari ayni muddaodir.

Pedagogika fani ishontirish usullariga muxim o'rin berish bilan birga, majbur etish usulini xam inkor etmaydi. Agarda o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan talabning moxiyatini va mazkur qoidaga nima uchun rioya etish zarurligini tushunib turgani xolda itoatsizlik ko'rsatsa va belgilangan tartib-qoidani buzsa, uni bu tartib-qoidalarni bajarishga majbur qilmoq kerak. Axloqiy talablarni buzuvchilarga indamaslik va beparvolik bilan qarash esa jamiyatga ziyon keltiradi va yurish-turish qoidalarini buzgan o'quvchining o'zi uchun xam zararlidir. Agar tarbiyachi axloqiy talablarning buzilish xolatlarini ko'rib, indamay ketaversa o'quvchilar axloqiy talablarni va yurish-turish qoidalarini buzishda davom etaveradilar.

Yuqoridagilarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkin: chinakam obro' bolalarni xurmat qilish bilan birga, ularga nisbatan talabchan bo'lishga, bolaga chin ko'ngildan g'amxo'rlik ko'rsatishga, unga yordam qila bilishga, tarbiyachining bolalarga namuna bo'ladigan o'z shaxsiy fazilatlariga asoslanadi.

5. Tarbiya turlari.

Tarbiya bir nechta turlarga bo'linadi. Bular: aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mexnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va estetik tarbiyalarga bo'linadi.

Aqliy tarbiya. Inson xamisha odamlar qurshovida yashaydi, ijtimoiy muxit sharoitida uning aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyati amalga osha boradi. Bunda insonning normal jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar bo'lishi kerak.

Insonning aqliy rivojlanishi ijtimoiy muloqot va tarbiya ta'sirida intensiv rivojlanib boradi. Agar tarbiyachilar o'z vaqti va o'rnida rejali ravishda uni bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsata borsagina aqliy rivojlanish muvoffaqiyatli ko'chadi. Demak, aqliy tarbiya deganda tarbiyachining o'quvchilar aqliy kuchini va tafakkurini rivojlantirish, unda aqliy mexnat madaniyatini tarkib toptirishga qaratilgan maqsad yo'lidagi faoliyati tushuniladi.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, uning mazmuni barcha fanlar bo'yicha bilimlar tizimini bilib olishni va shu asosda yoshlarda **ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, tafakkur va nutq qobiliyatini** o'stirishdan iborat.

Aqliy tarbiya barcha fanlardan umumiy ma'lumot berish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda talabalarga oliy o'quv yurtlari (maktab, kollej akademik litseylar) dasturlari asosida **bilim berilib,** ularda **xotira, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish** kabi xislatlar taraqqiy ettiriladi.

Abu Nasr Forobiy inson aql-zakovati xususida fikr yuritib bunday deydi:

1. Barcha masalani: muxokama muloxazani tezda tushuna oladigan, uning ma'nosini anglaydigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin.

2. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birontasini xam esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin.

3. Zexni shu darajada tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishni tezda bilib olsin.

4. So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan muloxazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.

5. Bilim va o'qishga muxabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin.


Aqliy tarbiya shaxsni xar tomonlama kamol topishining asosini tashkil etadi. U mexnat unumdorligini oshiradi va mexnatga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi.

Mexnat tarbiyasi. Mexnat tarbiyasi oldida turgan vazifa o'quvchilarga mexnat ta'limiga oid

ilmiy bilimlar berish, mexnat qurollari bilan muomala qilishga o'rgatib, xayotga, ijtimoiy-foydali mexnatga tayyorlashdir. Bu vazifalarni ikki turkumga ajratish mumkin. 1) Mexnatga bo'lgan munosabat jarayonidagi zarur bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Yoshlarda xalqi, vatani manfaati yo'lida mexnat qilish xoxishini tarbiyalab, mexnatga xayotiy zarur faoliyat deb qarashlarini tarkib toptirishga erishiladi. 2) Gurux vazifalari, mexnat faoliyatini bajarish jarayonida zarur bo'ladigan bilimlar o'zlashtiriladi, fan asoslari, politexnik ta'lim o'rganiladi.

Mexnat tarbiyasi tushunchasi umumiy bo'lib, bu tushuncha bir qancha xususiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. bulardan:

birinchisi: politexnik ta'lim, bu ishlab chiqarishning barcha soxalariga taaluqli bo'lgan ilmiy asoslarni va prinsiplarni, mexnat ko'nikma va malakalari, oddiy mexnat qurollari bilan muomala qilish kabilarni o'zlashtirishni taqazo qiladi;



Tarbiya turlari

ikkinchisi: bu umumiy mexnat. Umumiy mexnat o'quvchilarni maxsulot ishlab chiqariladigan faoliyatga jalb etilishini taqazo qiladi;

uchinchisi: ijtimoiy-foydali mexnat. Bu mexnat turi ijtimoiy-foydali axamiyatga ega bo'lib, ko'pchilik foydasiga ishlashni nazarda tutadi (temi-tersak, makulatura yeg'ish, sinf, maktabni ta'mirlashga yordam berish, maktab uchastkasida ishlash);

to'rtinchisi: o'z-o'ziga xizmat qilish. U maishiy xizmat turiga kirib, sinf, maktab ozodaligini saqlash, o'zining ish joyini kiyim-kechagi, o'quv qurollarini ozoda, tartibli saqlashni nazarda tutadi;

beshinchisi: uy mexnati. Bu xam maishiy mexnat turiga kirib, uyda ozodalikka rioya qilishni, ota-onaga uy ishlarida yordam berishni taqazo qiladi.

Nafosat va axloq odob tarbiyasi. Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya) bu o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mexnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish xamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muxabbat uyg'otish va xayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Nozik didli bo'lish, go'zallikni faxmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, xullas, o'z xayotini go'zallik qonunlari asosida o'ura olish – komil insonning eng zaruriy fazilatidir.

Insonda go'zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof muxit ta'sirida shakllanib boradi. Shunga ko'ra, insoniyatning badiiy rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog'langan.

Badiiyat qonunlari esa, ijtimoiy-estetik ideallar orqali namoyon bo'ladi.

Nafosat tarbiyasi – eng avvalo xar bir kishida badiiy xissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Bunday yuksak nafosatlilik aql-zakovatdan xoli bo'ladi degan ma'noni tushunmaslik kerak. Shaxsning barkamol inson bo'lib shakllanishida bu ikki tamon bir-birini to'ldiradi. Chinakam san'at asarida xissiyot chuqur g'oyaviy aqliy mazmun bilan birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan xissiyotni tarbiyalash, yanada aniqrog' qilib aytganda, xissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tamon bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, xis-tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi xam ma'naviy boyib, olijanob bo'lib boradi, uning xayoti yanada sermazmun

bo'ladi, yashayotgan zamoniga nisbatan mexr-muxabbat ortib boradi. Bularning xammasi xar bir insonda go'zallikni xunuklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlantiradi. Chinakam nozik did chinakam go'zallikdan lazzatlana olish, mexnatda, turmushda, yurish-turishda san'atda nafosatni idrok etish va yaratishga extiyoj sezish demekdir. Didsizlik kishining voqealarga bo'lgan ijobiy munosabatini buzib yuboradi, natijada u nafosatga loqayd qaray boshlaydi.

Did – farosat xar bir insonning xatti-xarakatida, kiyinishida, yurish turishida, kishilarga bo'lgan munosabatida, jamiyatdagi u yoki bu voqealarga yondashishida va xokazalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ba'zan xayotda didi past, ma'naviy qashshoq kishilarni uchratamiz. Bunday kishilar aqlan, axloqan va ruxan zaifligini yashirish uchun soxta xatti-xarakatlar qiladilar, didsiz kiyinadilar, ma'nimatrasiz, shovqin-surondan iborat musiqa va ashulalarni tinglaydilar. Bundaylarni kuzatarkansiz, ularning mexnat gashtini surmagan, xayot tashvishlariga beparvo, loqayd kimsalar ekanliklariga guvox bo'lasiz.

Donolardan biri go'zallik axloq odobning tug'ishgan singlisidir, degan edi. Darxaqiqat, bu juda to'g'ri ta'rif. Odatda odob va nafosat tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq xolda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq odobda, chiroyli xatti-xarakat, go'zal munosabatda va xayotga, kelajakka, insonlarga, tabiatga muxabbatda ko'rinadi.

Xalqimiz: "Kamtarlik xam xusn", deydi. Mana shu birgina iborada chuqur ma'no bor. Nafosat tarbiyasi tufayli yoshlarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go'zal, eng chiroyli belgisidir. "Kishining chiroyi yuzida", deydi xalqimiz. Bir go'zal tabassum kishilarga misoli quyosh bo'lib, qalblarga iliq nur taratadi. Kishi biror asarni o'qib, chexrasi yorishib ketadi. Yoki yoqimli biror kuy, ashula tinglasa, boshi mayin tebranadi, biror go'zal rasm, manzarali tasvirga boqib undan ko'z uzolmay qoladi, qalbi quvonchlariga to'ladi.

Xunuk xatti-xarakatdan nafratlana bilish tuyg'usini xam nafosat tarbiyasi paydo qiladi. Bunda badiiy asarlarning roli muximdir. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagidir.

Shuni aloxida qayd etish o'rinliki, ayrim yoshlar go'zallikni tor ma'noda tushunadi. Ya'ni, chiroyni ko'pincha xusni jamolda deb bilishadi. Bu bir tamonlama tushunchadir. Xar tamonlama to'liq ma'noda esa chiroy, xusn jamol qalb go'zalligida, ma'noli so'zdir. Xalqimiz xam "chiroy xusni jamolda emas, fazlu kamolda" deb bejiz aytmagan!

Go'zallik tarbiyasida shu narsaga erishish kerakki, tashqi qiyofani xaddan tashqari bezayvermasdan, asosan ma'naviy olamni bezash uchun intilish lozim. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda odob go'zalligiga erishishimiz zarurdir. Buning uchun o'qituvchilarimiz go'zallik ilmi bilan qurollangan bo'lishlari muximdir. Bundan maqsad yoshlarga go'zallik asosida tarbiya berishdir.

Estetik, ya'ni go'zallik tarbiyasini singdirishning axamiyati katta. Bunday tarbiya, avvalo yoshlarni turmushdagi go'zallik va xunuklikni tushunish, xis etish orqali ma'lum bir kayfiyatni shakllantiradi, ularda go'zallikdan zavqlanish, xunuk qiliq, xatti-xarakatlardan nafratlana olish qobiliyatini paydo qiladi, kishilarni ma'naviy fazilatli bo'lishga yetaklaydi.

Estetik xissiyot, odob insonni olijanob qiladi, uni yuksaklikka chorlaydi. Ana shu tuyg'u rivojlangan bo'lsagina kishilarda chinakam mexr, samimiyat, olijanoblik, kamtarlik kabi fazilatlar va go'zallikka tashnalik xosil bo'ladi. Estetik tuyg'u: kechinmalar didni o'tiradi, zexnlilikni kuchaytiradi. didi, zexni o'tkir kishining so'zi bilan qilgan ishlari o'aro monand bo'adi, u intizomlilikda namuna ko'ratadi.

Yuksak didli inson ichki va tashqi go'allikning birligini anglab yetadi. Xar bir narsadagi, xodisa va voqealardagi uzviy aloqadorlikni chuqur xis qila oladi.

Yaxshi did, o'ini tuta bilish va tarbiyalanganlik bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. O'zini tuta bilish, odob, xulq atvordagi tarbiyalanganlik esa suxbat va gaplashishdagi yaxshi did farosat xisoblanadi. Yaxshi, nozik did kishining yuksak axloqiy sifatlarida ifodalanadi va ularni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Inson ma'naviy madaniyatining umumiy darajasi, aqliy, estetik va axloqiy rivojlanishi qanchalik yuqori bo'sa, uning ichki ma'naviy dunyosi tashqi qiyofada yanada yaqqolroq aks etadi. Zero, ichki go'allik tashqi qiyofada ko'inadi. Ichki va tashqi go'allik birligi – bu axloqiy kamolatning go'al ifodalanishidir. Inson go'al bo'ishga, go'al ko'inishga xarakat qiladi – bu qonuniy xol. Ammo uni amalga oshirish axloqiy fazilatga, ya'ni insonning go'alligi uning ijodiy, yaratuvchanlik faoliyati mazmuniga bog'liqdir. Agar inson o'zi sevgan faoliyat bilan band bo'ar ekan, unda ichki ko'arinkilik, olijanob va ilxombaxsh tuyg'u paydo bo'adi.

Insonning ichki va tashqi ma'naviy dunyosi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi qanchalik go'zal bo'lmasin, agar unda jamiyatga foyda bo'lmasa, uni nafosatli deb ayta olmaymiz. Zotan, xaqiqiy go'zallik xar bir kishining ijtimoiy-foydali faoliyati darajasi bilan o'lchanadi.

Inson mexnati bilan yaratilgan barcha narsalar faqat moddiy jixatdan foydali bo'lib qolmasdan, balki, zavq-shavq uyg'otish manbai xamdir, chunki ular kishining bag'ri dilini ochadi, unga ma'naviy oziq beradi.

Inson mehnat jarayonida boshqa insonlar bilan muomala qiladi, ularga yaqinlashadi. Natijada aqliy, axloqiy va xissiy kamolotga erisha boshlaydi. Kishilar bilan muomala qilish jarayonida o'z-o'zini takomillashtiradi. Insoniy muomala madaniyati kishini donolik va zavq-shavq bilan boyitadigan mo'jizaviy kuch qudratga egadir. Zero, kishilar bilan uchrashishdan, ulardagi ma'naviy boylikni bilishdan inson o'zi uchun bitmas-tuganmas oziq oladi.

Xullas, estetik did, estetik qobiliyat, xissiyot madaniyati birdaniga paydo bo'lmaydi, tabiatdan tayyor xolda berilmaydi. Xar qanday insoniy qobiliyat qatorida go'zallik tuyg'usi xam tarbiyalash, rivojlantirish, takomillashtirishga muxtojdir. Bularning xammasida inson go'zalligi namoyon bo'ladi. Xalqimiz "yaxshi xusningni yomon xulqing buzadi", deb bekorga aytmagan.

San'atning eng ta'sirchan turlaridan bir musiqadir. Bola xali yozish, o'qish, chizishni bilmagan paytda xam musiqaning sexrli to'liqini qabul qilishi, ulardan oziqlanishi mumkin. Musiqaning ilk ta'miri ona allasi bilan bog'liq. Ona allasi mayin, jozibali, shirador, ta'sirchan bo'lgani uchun xam bola undan orom olib uyquga ketadi. Musiqa bolaning eshitish qobiliyatini yaxshilaydi, uning ruxiyatigi yumshoqlik, fe'l-atvoriga muloyimlik bag'ishlaydi. Xaqiqiy musiqa asarlari ta'sirida ulg'aygan bola o'rtoqlari orasida ajralib turadi.

San'atning ikkinchi bir turi – tasviriy san'at xam nafosat tarbiyasida muxim o'rin tutadi. Rasm chizishga bo'lgan qiziqish aksariyat bolalarda yoshlikdanoq boshlanadi. Rasm chizishga bo'lgan xavas bolalarda ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalaydi, xotirasini shakllantiradi, xayolning o'sishiga yordam beradi. Go'zallik va xunuklikka bo'lgan o'z munosabatini bola o'zi chizgan rasmlari orqali ifodalashga xarakat qiladi. Bola o'zi yaxshi ko'radigan kishisini yoki biror narsani chiroyliroq va nafisroq chizishga xarakat qilsa, yomon ko'rganini masxaralash shaklida chizishga intiladi. Biz bola xayotidagi bu jarayonni puxta bilib olib, unga yoradm berishimiz lozim.

Bolalarda go'zallik tuyg'usini shakllanishida badiiy adabiyot va raqs san'atining roli xam benixoyat katta. Umuman, to'rt san'at turi – musiqa, tasviriy san'at, sheriya va raqs bolalarni go'zallik dunyosiga yetaklovchi, ularda kuzatuvchanlik, ta'sirchanlik kabi ruxiy xususiyatlarni, ijodiy xayol va ijodkorlikni tarbiyalovchi asosiy omillar xisoblanadi va bolada estetik didni shakllantiradi.

Tabiat xodisalar xam nafosat tarbiyasining muxim vositalaridan biridir.

O'quvchilarni tabiatdan baxra ola bilish, uning go'zalligini sevishga o'rgatish lozim. Buning uchun tabiat bag'riga tez-tez sayr uyushtirish, tabiat manzaralari, quyosh, xavo, bog', dala, suv, daryo, tog', qushlar, jonivorlar, xayvonlarni kuzata bilish, ularning ko'rinishi, shakli, rangi ovozi tinglash, eshitish, mehnat ob'ektlarini borib ko'rish, inson va uning turli kasblariga oid faoliyatini o'rganish – nafosat tarbiyasining asoslari xisoblanadi.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-xarakat qoidalarini yig'indisidir.

Axloq odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chikarish vositalariga, mehnat maxsulotlari va shu kabilarga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-xarakat qoidalarini tizimida namoyon bo'ladi.

Odob - odamning jamoat, el-yurt orasida o'zini tutish, boshqalar bilan qay yo'sin muomala qilish, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-xarakatlari qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida baxs etadi. Aniqlik, axloq, kishining ichki olami, z'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo'lsa, odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Axloq, kishidan xar xil xolatlarda qanday yo'l tutish kerakligini yaxshi o'ylab, eng maqsadga muvofiq xarakat qilishni talab etsa, odob o'z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya'ni xar qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini taqozo qiladi. Xar bir odam xususida, odatda, uning faoliyatiga, qanday ish bilan shug'ullanishiga bu faoliyati va ishi axloq talablariga, turmush qoidalariga, jumladan, davlat qonunlariga muvofiq yoki xilof ekanligiga asoslanib muayyan fikr yuritiladi.

Axloq, ilmi yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi murakkab myammolap xakida baxs yuritib, insonning kamolotga erishish yo'lini yoritib boradi. Xar bir inson bir olam bo'lgani kabi uning axloq odobi xam juda murakkab olam, desak yanglishmaymiz. Chunki, shaxsning zoxiriy va botiniy olamini, ayniqsa qalb olamini o'rganish, bilish, taxlil etish g'oyatda qiyin, bu ruxiyat bilan bog'liq xolatdir. Axloqli odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mexr-muxabbat, raxm-shafqat, adolatu diyonat, xayoyu iffat, vafoyu sadoqat, ximmatu saxovat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni xolda shu xislatlarning aksi—beburd, axloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi.

Xar bir xalqning nufuzi va obru-shuxrati kishilarning axloqi-odobi, yaxshi xislat-fazilatlarini bilan belgilanadi, shu taxlit baxosini oladi.

Qadimgi faylasuflaru donishmandlar axloq-odobga juda katta baxo berib, uni jamiyatning poydevori deganlar. Shuning uchun xam jamiyat xar bir a'zosining xulqi-odobiga aloxida e'tibor

berilmshi bejiz emas.

Asrlar davomida axloq-odob mavzuida qanchadan-qancha kitoblar, xikmatnomalar, odobnomalar, pandnomalar va nasixatnomalar, ibratli xikmatu rivoyatlar yaratilgan. Xalq, og'zaki ijodi xazinalarida axloq-odobga doir bebaxo fikr javoxirlari borki, ularning xammasini xisoblab xisobiga, ta'riflab ta'rifiga yetib bo'lmaydi.

Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muxammad Alayxissalomning xadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini toptan. Muqaddas kalimalarning deyarli xammasida yaxshi amallarning xidoyatiyu yomon odatlarning zarari bayon etilib, ulardan qanday qilib caqlanish lozimligi xaqida yo'l-yo'riqlar ko'rsatib qo'yilgan.

Yosh nixolning baquvvat daraxtga aylanishi parvarishga bog'liq bo'lganidek, odam bolasi komil inson bo'lib yetishishi uchun xam uni murg'aklikdan axloq-odob ilmidan baxramand etib borish lozim.

Axloq-odob tarbiyasi milliy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgandagina uning mazmuni yanada boyib boradi. Chunki milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning xamma tomonlarini qamrab oladi.

Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yaia biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir.

Iymon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik — yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini xar bir fuqaro teran xis etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sho'rocha axloq usullaridan voz kechib, sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga xurmat mustaqillikni mustaxkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muxim axamiyatga egadir.

O'quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mexnatga ilxomlantirish o'qituvchining eng muxim vazifasi xisoblanadi. O'quvchining jamiyatga bo'lgan munosabatida milliy birlik, birdamlik va xamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan xurmat kabilar yaqqol namoyon bo'lishi zarur.

Axloq, odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun xam o'quvchida jamiyatga bo'lgan xurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustaxkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqiy ongni, o'zini-o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'qituvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, xamjixatlik, xamkorlik, bir-birini qullab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimizning kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravqagi yoshlarni o'qish, izlanish va mexdatdan qochmaydigan, xar qanday qiyinchiliklardan xayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruxida tarbiyalashni talab kiladi. Shunga ko'ra bugungi O'zbekiston zaminida yashayotgan xar bir yosh kelgusida shu o'lkani xaqiqiy egasi bo'lib yetishishi, uning gullab-yashnashi xaqida qayg'urishi, erishgan yutuqlarni mustaxkamlashi lozim.

Salbiy illatlarning dastlabki belgilari oilada, maktabda ko'rinadi. Buning oldini olish va bartaraf etish uchun tinimsiz kurash olib borish zarur. Bunda maktab o'qituvchilari, ota-onalar o'z o'quvchilarida, o'z farzandlarida samimiylik, ta-shabbuskorlik, faollik mexnatsevarlik kabi axloqiy sifatlarni, matonat, qat'iyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, ishonch kabi xislatlarni shakllantirishlari shart.

O'quvchilardagi salbiy illatlarga qarshi kurash olib borishda o'qituvchilar muxim rol o'ynaydilar. O'qituvchilar ta'lim-tarbiya jaryonida o'quvchilarni mamlakatimizda ro'y beraetgan voqea va xodisalarning xaqqoniyiligiga, to'g'riligiga ishonch ruxida tarbiyalashlari zarur.

Ayniqsa ular xar bir darsni o'tishida respublikada bo'layotgan yangiliklar, mustaqil O'zbekistonning fidoiy kishilari xaqida so'zlab berishlari, shu bilan birga mustaqillikning qadriga yetmayotgan ba'zi bir yoshlarning yaramas kirdikorlarini tushuntirishlari kerak.

Forobiyning fikricha insonning axloqli saxovatli va aql-idrokli bo'lishida bilimlarni egallash muxim axamiyatga egadir. Inson bilim orqaligina o'z maqsadiga erisha oladi.

Abu Nasr Forobiy «Insoniy vujudan maqsad - eng oliy baxt-saodatga erishuvdir; avvalo u baxt-saodat nima va nimalardan iborat ekanligini bilish, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish, amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. Sungra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishiga kirishmog'i lozim bo'ladi» deb ta'kidlaydi. Forobiy axloqiy madaniyatning fazilatlaridan xisoblangan saxovat masalasiga aloxida e'tibor bergan. U o'z zamonasidagi

adolatsizliklarga befarq bo'lmagan. Buyuk allomaning ta'kidlashicha, kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam, dustona va qardoshlik munosabatlari, saxovatli bo'lish, ozodlik, roxat-farog'at kalitidir.

Ibn Sino insonning umumiy fazilati, kishilarda yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lishi sabablarini «Allox xakida risola» asarida ko'rsatib o'tadi. Olim bu asarida yaxshi va yomon xulqlar odamlarning odatidan, xukumat axllarining salbiy ta'siridan paydo bo'lishini ta'kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sino axloq xaqidagi qarashlari uning shox asarlari bo'lmish «Tib qonunlari», «Ash-shifo» va boshqa asarlarida xam o'z ifodasini topgan.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, odamga do'st tutinishning uch xil yo'li bor: «birinchidan, xar qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z dustini falokatdan qutqarishni, ikkinchidan, gg'yaviy yaqinlik va Duneqarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlikni va uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi», — deb ta'kidlaydi Ibn Sino.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan biri Yusuf Xos Xojibning asarlarida xam axlox, madaniyati keng o'rin egallagan.

Mutafakkir «Qutadg'u bilig» dostonida xokim bilan xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga e'tibor beradi. Uning fikricha, agar beklar tabiatan ezgu bo'lsalar, barcha fuqarosi boyiydi, olam guliston bo'ladi. Shuningdek: «Xamma narsaning qoidasi, tartibi, ta'limi bor, tartib, odob qoidalarini to'g'ri to'tsa, kishining yuzi yorug' bo'ladi», — deb ta'kidlaydi.

Inson kamolatining fazilatlaridan xisoblangan adolat tushunchasi va adolat tuyg'usi Alisher Navoiy donishmandligining asosini tashkil etadi. Uning fikricha, ongning mavjudligi adolatning mavjudligidir. Adolatsiz ong ong emas. Insoniyat tirikligining davomiyligini ta'minlaydigan birdan-bir narsa xam adolatdir.

Axloq g'oyasi bolaning ma'naviy tarbiyasi va yetukligining asosi xisoblanadi.

Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan xurmatliroqdir. Odobli odam o'z tengdoshlari orasida xam taxsinga sazovor bo'lib xech qanday exson bermay kattadan-kichik, xammani shod qiladi: xech qanaqa xadya qilmay, kishilarning g'amini tarqatadi.

Odob—kichik yoshlilarmi kattalar duosiga sazovor etadi, yoshlar u duo barakasidan umrbod baxramand bo'ladilar. Odob—ulug'lar ko'nglida yoshlarga mexr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muxabbat kunglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko'piga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvor odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi.

Odob—kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan xurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni xazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi. Odob—odam tabiatiga insoniylik baxsh etadi.

Odob — mexr-muxabbatning zeb-ziyatidir, odobsizlik - do'stlikka putur yetkazadi. Odob o'stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi.

Odob urug'ini ekkan odamning xosili javoxir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mexr-muxabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob kabi xulqqa ega bo'lsa, o'zi xam xalqning izzat-xurmatiga sazovor bo'ladi. Do'stlar orasida shu kabi suxbat va shu yo'sinda xamjixatlik bo'lsa, qanday yaxshi. Bunday aql, ittifoq, muxabbatli, odobli bo'lish do'stlar uchun baxtiyorlikdir».

Ekologik tarbiya. Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan xodisalardan biri ekologik vaziyat xisoblanadi. Jamiyatning atrof-muxit bilan o'zaro buzilgan aloqasi keng jamoatchilik o'rtasida katta tashvish uyg'atmoqda. Insonning tabiiy boyliklaridan xaddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Yashil o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va xayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilmalar tugab bormoqda. Suv xavzalari va atmosfera xavosining ifloslanishi, chiqindi moddalarining ortib borishi natijasida axolini oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmokda. Oqibatda, million-million yillar davomida turgun bo'lgan tabiiy xolatga putur yetmoqda.

Tabiatning ekologik barqarorligi, turg'unligi va uning tabiiy qonunlarining buzilishiga insonda ekologik bilimlarning yetishmasligi, tabiatning kelajakdagi ekologik xolati qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilmasligi sabab bo'lmoqda.

Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzoqlarning xolati, ularning bir-birlari va atrof-muxit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, xajmini, xillarini xamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Inson tabiatga, o'zini o'rab olgan muxitga nisbatan o'z munosabatini o'zgartirishi, tabiat qonunlarini bilishi, o'rganishi va ular asosida o'z xayotini rivojlantirishi shart. Tabiat qonunlariga mos keladigan xayot yo'llarini ishlab chiqish kerak. Aks xolda inson va jamiyat katta tabiiy ofatlarning kelib

chiqishiga sababchi bo‘ladi va shu ofatlardan xalok bo‘ladi.

Bir necha million yillar davomida bunyod bo‘lgan koinotning tabiiy ko‘rinishi keyingi 10-15 yil ichida juda og‘ir xolatga tushdi. Xavo buzildi, ifloslandi. Jumladan tuproq zaxarli moddalar bois “jaroxatlandi”, suvlar turli moddalar bilan ifloslandi va xokazo. Bu xolatlar oqibatda inson salomatligiga salbiy ta‘sir qila boshladi.

Xozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri fan-texnika yutuqlari asosida axolining turli tabaqalari orasida ekologik ta‘lim-tarbiya va madaniyatga oid bilimlarni oshirish yo‘li bilan tabiat muxofazasini tezlashtirishning turli chora-tadbirlarini ishlab chiqish xsoblandi.

Ekologik ta‘lim va tarbiyaning tub ma‘nosi - tabiat va jamiyat o‘rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog‘lovchi tabiiy xamda ijtimoiy qonunlarni o‘rganish, xayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Ekologik ta‘lim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo‘ygan vaqtdan boshlab, butun xayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq-odob yuzasidan xalkimizning tabiatga xurmat va e‘tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarini ko‘paytirish, bog‘u-rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir.

Insonni o‘rab turgan tabiiy muxit va uning boyliklarini biladigan, undan tejamkorlik bilan foydalanadigan, saqlaydigan, tabiat boyligiga, go‘zalligiga go‘zallik qo‘shadigan, ijtimoiy va tabiiy qonunlarni biladigan bilimdon shaxsni yetishtirish - **bu ekologik tarbiya maksadi.**

Tabiatga nisbatan xurmat va e‘tibor bilan qaraydigan insonlar, uning xar bir qarich yerida bo‘layotgan ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni sezadi, kuzatadi, tabiatga yordamga boradi, ya‘ni yiqilgan butani tiklaydi, kasal xayvonni tuzatadi, davolaydi, iflos suvni tozalashga xarakat qiladi, yong‘inni o‘chiradi va xokazo.

Xozirgi kunda jamiyat ichidagi, jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashib borayotgan bir davrda, xujalikning turli soxalarini rivojlantirish bilan bir qatorda atrof-muxit muxofazasi va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanishga oid chuqur bilimli, ekologik ma‘lumotli yoshlarni tarbiyalash vaqti keldi.

Badan tarbiyasi (jismoniy tarbiya). Mashxur yunon donishmandi aplotun baxt xaqida zikr etib: «Inson uchun birinchi baxt uning sog‘lig‘i, ikkinchisi—go‘zallikdir» degan ekan. Chindan xam sixat-salomatlik xamma boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog‘lom va ma‘naviyati yuksak xalqning avlodlari xam sog‘lom-baquvvat, iymon-e‘tiqodli va sadoqatli bo‘ladiki, bu baxt ona Vatanning shuxrati va qudratining zo‘r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt-saodati uchun sog‘lom avlod kerak.

Sog‘lom avlod deganda biz xam jismoniy, xam ma‘naviy tomondan yetuk, bardam, xar ishga qodir, ilg‘or madaniyatli kishilarni ko‘zda tutamiz. Darxaqiqat, shunday noyob fazilatlariga ega avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakka ochiq ko‘z, yorug‘ yuz, katta ishonch bilan qaraydi.

Ona tabiat ato etgan oliy moxiyatga ko‘ra, biz o‘zbeklar xayotdaizning, umrimizning mazmunini farzandsiz tasavvur etolmaydigan xalqmiz. Dunyoga kelib farzand ko‘rish, imorat qurish, nixol ekib bog‘ yaratish ota-bobolarimizdan qolgan nasliy an‘ana, ezgu tilak va qutlug‘ insoniy burchdir. Shuni aloxida shukronalik bilan ta‘kidlash lozimki, xalqimiz tarixning mashaqqatli sinovlari osha o‘zining ana shu olijanob xislat fazilatli an‘analariga zavol yetkazmay saqlab kelmoqda. Ajdod-avlodlarimiz o‘z nasllarini umumbashariy tuyg‘ular, o‘lmas sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruxida tarbiya qilib kelganlar.

Insonning kuch va qobiliyatlarini taxlil etganda, u uchga bo‘linadi: jismoniy, aqliy va axloqiy. Shunga binoan insonning bu kuch-qobiliyatlarining taraqqiysi yuksalishini ta‘min etadigan tarbiya xam uch qismga ajraladi: bular badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, axloq tarbiyasidir.

Badan tarbiyasi inson xayotida katta axamiyatga ega. Birinchidan, xayotda xar kimning mukammal sog‘-salomatlikka, kuch-quvvatli badanga ega bo‘lish extiyoji bor. Ikkinchidan, badan sog‘lig‘i fikr va axloqning xam sog‘lig‘ini ta‘min etadi. Quvvatli badanning fikr va axloq uzra ta‘siri oshkordir. Fikr va axloq bilan mijoz va sog‘lomlik uzviy bog‘liq.

Badan tarbiyasining maqsadi xar tomonlama jismonan chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat‘iyatli, Vatanni ximoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishdan iborat.

O‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida quyidagi asosiy vazifalar xal etiladi. Birinchi vazifa — sog‘lig‘ni mustaxkamlash, tana a‘zolarini chiniqtirish, jismoniy jixatdan to‘g‘ri rivojlanish xamda uning ishlash qobiliyatining oshishiga ta‘sir etishdir.

Maktab yoshidagi bolalarning qaddi-qomatini to‘g‘ri-mutanosib shakllantirish, suyak-bo‘g‘inlarni va muskullarni uyg‘unlashgan tarzda rivojlantirish, yurak-tomir xamda nafas olish a‘zolarining asab tolalari majmuasini mustaxkamlashtirish muxim.

Tana-a‘zolarining mo‘tadil faoliyati uchun xarakat juda zaruriydir. Buyuk xakim Abu Ali Ibn Sino: «Badan tarbiya — sog‘liqni saqlashda ulug‘vor usuldir», deydiki, bu fikr: «Kimki qilsa xarakat

sogʻligʻida barakat boʻladi» degan naqlni eslatadi. Qadimda xalqimiz badan tarbiyani riyoziyat deb atashgan. Abu Ali Ibn Sino «Tibbiy doston» («Ur-juza») asarida riyoziyat badan tarbiyasi xaqida toʻxtalib, uning bir necha xillari boʻlishi, bu jismoniy mashqlar bilan oʻrtacha shugʻullanish sogʻliqqa foydali ekanligini bunday taʼriflaydi:

Bilsang riyoziyat turlari necha-necha
Sharofatli boʻlur esa u oʻrtacha (1).
Toʻgʻri va moʻtadil boʻlib oʻsgay badan,
Kir-chir ila chiqindidan qutular tan».

(1-bu oʻrinda Ibn Sino badan tarbiyasi ogʻir yoʻyengilini emas, oʻrtachasini tanla demoqchi).

Olim yana, jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xulqlarning yigʻilishiga sabab boʻlishini aloxida uqtirib bunday deb yozadi:

«Riyoziyatsiz yotishdan koʻp topma roxat,
Bu roxatdan topolmassan xech manfaat.
Jim yotsang iflos xult-la toʻlor badan,
gʻizocha xech xozirlanmas biror maskan».

Jismoniy mashqlarning sixat-salomatlikka foydasi cheksiz ekanligini D.Adisson bunday tasvirlaydi: «Mutolaa aql uchun qancha zarur boʻlsa, jismoniy mashqlar xam badan uchun shuncha zarur».

Suqrot xakim esa bunday deydi: «Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini toʻgʻrilab olaman».

Olim Ivan Pavlov taʼkidlaganidek bosh miya poʻstlogʻini «kuchaytirish va mustaxkamlash» yoʻli bilan asab jarayonlarining faolligini yanada oshirish mumkin.

Shuni xam aytish kerakki, oʻquvchilarning sogʻligʻini faqat jismoniy tarbiya darslari xamda maktab rejimi sharoitida oʻtkaziladigan maxsus tadbirlar xisobigagina mustaxkamlash qiyin. Chunki bu jarayon ota-ona, tarbiyachi, butun pedagoglar jamoasining ishi boʻlib, sogʻlomlashtirish bilan bolalarni muntazam ravishda, butun yil davomida shugʻullantirish kerak.

Ikkinchi vazifa — oʻquvchilarda yangi xarakat turlariga qiziqish, koʻnikma va malakalar xosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish zarur. Oʻqitish jarayonida oʻquvchilar xarakat, koʻnikma va malakalarni egallaydilar. Bu malaka va koʻnikmalar jismoniy tarbiya boʻyicha tuzilgan oʻquv dasturida nazarda tutilgan boʻlib, ulardan baʼzilari, masalan tez yurish, yugurish, sakrashlar amaliy mashqlardir. Shu bilan birga, bu mashqlar gimnastika anjom-asboblarida mashq qilish, akrobatika, badiiy gimnastika xarakatlarini koordinatsiya qilishga, shuningdek, yangi xarakatlarni osonroq va qisqa vaqt ichida oʻrganib olishga koʻmaklashadi, koʻnikma va malakalar xosil qiladi.

Uchinchi vazifa – oʻquvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilikni) asosiy xarakat sifatlarini rivojlantirishdir. Yuqorida aytilgan jismoniy sifatlar aloxida mavjud boʻlmay, balki ulardan biri u yoki bu faoliyat turida yetakchi oʻrinni egallaydi. Masalan, xarakatli va sport oʻyinlarida chaqqonlik, qisqa masofaga yugurishda — tezkorlikni aytish mumkin. Maktab dasturi oʻquvchilarning xarakatlari, sifatlarini xar tomonlama rivojlantirish xamda ularning jismoniy rivojlanishlari va umumiy ishlash qobiliyatlarining ortishi uchun kerakli sharoitni yaratadi, albatta. Shu bilan birga, oʻquvchilarda axloqiy-irodaviy sifatlarini tarbiyalash, xulq-atvor madaniyati koʻnikmalarini tarkib toptirish kerak.

Toʻrtinchi vazifa — oʻquvchilarda oʻz sogʻligʻiga ongli munosabatni tarbiyalash boʻlib, bu ularning ozoda-sarishtalik tartibida, gigiena qoidalariga rioya qilishlarida, ertalabki gimnastika bilan shugʻullanishlarida xamda sport mashgʻulotlarida muntazam qatnashishlarida namoyon boʻladi. Badan tarbiyaning sixat-salomatlikka foydasini oʻquvchi qanchalik yaxshi bilib olsa, qiziqish shunchalik ortadi.

Moʻtadil ravishda, oʻz vaqtida badan tarbiya bilan shugʻullanuvchi odam kasalliklarning davosiga muxtoj boʻlmasligini chuqur anglab olishi kerak.

Olim va shifokorlarning kuzatishlaricha, badan tarbiya tugʻma issiqlikni oshiradi, tanaga yengillik beradi. Chunki, bular yengilgina issiqlik paydo qiladi, aʼzolda toʻplanuvchi chiqindilarni yoʻqotadi.

Badan tarbiya mashqlari tartibli va yoʻli bilan boʻlsa, fikrni uygʻunlashtiradi, qon yurishiga yordam beradi, xazmni yaxshilaydi, asabni quvvatlantiradi, tan xaroratini orttiradi, zexnni ochadi.

Inson jismoniy sogʻlom, va bardam-baquvvat boʻlsa, xayot goʻzalliklarini yaxshi idrok etadi, aql-zakovati yuksala boradi, atrof-muxitni ziyrak boʻlib kuzatadi. Shu nuqtai nazardan aytganda, inson bolasi sogʻlom-baquvvat boʻlishda badan tarbiya muxim omil ekani aniq. Demak, bu tarbiya aqliy, axloqiy va estetik tarbiyaning zamini ekan. Taʼbir joiz boʻlsa, bir yerda turib qolgan suv koʻlmak xolda xech foydasiz deyilsa, xarakatsiz odam xam koʻlmak kabidir, sharqirab oqqan suv oʻzi goʻzal, xam dala-

bog'larni yashnatgani kabi, serxarakat, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan odamning xam o'zi (jismonan) go'zal, xam aqli go'zal, xam odob-axloqi go'zal bo'ladi.

Badan tarbiya insonni xar tomonlama tetik, xushyor, qobiliyatli tarzda kamolga yetkazadiki, donolar jismoniy tarbiya-go'zallik tarbiyasidir, deb bejiz aytishmagan.

Inson jismoniy sog'lom, xar tomonlama yetuk rivojlanishi uchun ma'lum maqsadni ko'zlagan xolda tejamli xarakat qilishi, tabiat qo'ynida yoki ozoda-shinam sport zalida xarakatli mashqlar bilan shug'ullanishi — bularning xammasi unda nafosat xis-tuyg'usini, aqliy tushunchasini va didini tarbiyalaydi. Shubxa yo'qki xilma-xil, aniq, ifodali bajarilgan jismoniy mashqlar estetik kechinma, xislarni yuzaga keltiradi. Jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida xarakatlar maqsadining xam shakl, xam mazmun jixatidan bir-biriga mos kelishi esa uning go'zalligini ta'minlaydi.

Go'zallik – bu avvalo xarakatlarning sodda, yengil, izchil va tugal bo'lishidirki, o'qituvchi xam, o'quvchi xam bunga intilsalar, nafosatga erishiladi. Albatta jismoniy tarbiyaning vazifasi o'quvchida faqat go'zallikni idrok etishnigina shakllantirish bo'lib qolmay, balki ularni kishi xarakatidagi chinakam go'zallikni baxolay bilishga xam o'rgatishdir.

Odatda, uzoq muddatli aqliy mexnatdan so'ng o'quvchilarda ishlash qobiliyati sekin-asta pasayadi. Bu xolat boshlang'ich sinf o'quvchilarida tezda seziladi. Bolalar dars vaqtida betoqat bo'lib, xaddan tashqari ko'p xarakat qilishlari, o'tirgan joylaridan tez-tez turib ketishlari, bir-birlari bilan gapirishishlari, orqayu yonlariga qarab o'tirishlari, shovqin-suron ko'tarishlari mumkin va xokazo. Ayniqsa darsning 25-30 minutlarida o'quvchilar diqqati sezilarli pasayadi, tushuntirilayotgan mavzuni o'zlashtirish qiyinlashadi, ishda ayrim xatoliklar uchraydi. O'quvchilar o'rganayotgan mavzularni bir necha martadan qayta-qayta takrorlashlariga to'g'ri keladi. O'quvchilarda aqliy charchash bilan birga, qomatni tutib turuvchi bel, yelka, bo'yin muskullari xam toliqadi. Toliqish natijasida bel egilib, yelkalar pastga tushib, bosh oldinga egiladi, qomat muvozanati buziladi. Agar bu xolat takrorlanaversa o'quvchilarning ishlash qobiliyati pasayib, qomati buzilib salomatligiga xam salbiy ta'sir etadi. Aqliy mexnatni jismoniy mexnatga almashtirish asosida bunday toliqishning oldi olinadi. «Fizkultminut»lar (jismoniy mashq daqiqalari) o'quvchilarda faollikni oshiradi, susaygan ish qobiliyatini tiklaydi, kayfiyatni yaxshilaydi.

«Fizkultminut»lar darsning 25-30 daqiqalarida (4-8 tadan iborat bo'lgan mashqlarni) 2-3 daqiqa davomida bajariladi. Bu chog'da bajarilishi oson, o'tirib yoki o'rindan turib panjalarga, bo'yin, yelka, bel va qomatning pastki qismiga ta'sir etadigan mashqlarni tanlash lozim.

Yozuv darslarida o'quvchilarning panjalari, qo'l muskullari tez toliqadi. Natijada yozuv tezligi pasayadi, xusnixati buziladi. Bunday xollarda panjalarni bukib-yozish, qo'llarni bukish, yonga, oldinga, yuqoriga ko'tarib bajariladigan mashqlar beriladi. Uzoq o'tirish natijasida gavdaning pastki qismi qattiq toliqadi. Bu toliqishni tarqatish uchun tik turib bajariladigan, oldinga, yonga egilish, o'tirib-turiladigan mashqlarni tanlash lozim.

Sog'liqni mustaxkamlash, a'zoni, tanani chiniqtirish, bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini ko'tarishga tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari - quyosh, xavo va suv ta'siri orqali erishiladi. Tabiat omillaridan jismoniy mashg'ulotlar o'tkazish xamda mustaqil shug'ullanish uchun muxim vosita sifatida foydalaniladi.

Maktab sharoitida jismoniy tarbiya vositalari orasida eng ko'p jismoniy mashqlar qo'llanadi. Jismoniy mashqlar gavda muskullarining o'sishi va mustaxkamlanishiga, yurak-qon tomir tizimi faoliyatining va nafas olish a'zolarining yaxshilanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy mashqlar asablar majmuasining faoliyatiga xam, xususan bosh miya qobig'idagi xarakatlantiruvchi qismga xam ta'sir etadi, natijada xarakatlarning bir-biriga uyg'unligi yaxshilanadi; xarakatlarda muvofiqliq, aniqlik zaruriy kuch va ritm xosil bo'ladi. O'quvchi aynan shu ta'sirlar natijasida tuzilishi jixatidan murakkab bo'lgan xarakatlarni, katta tezlikdagi xarakatlarni oson o'zlashtirib oladi, bu esa jismoniy mexnat mashg'ulotlari uchun muximdir.

Jismoniy tarbiya vositalari orasida asosiy gimnastika, xarakatli o'yinlar, badan tarbiya daqiqalari (fizkultminutlar), xalq an'analari va sport turlari yetakchi xisoblanadi.

8-MAVZU: KORREKSION (MAXSUS) PEDAGOGIKA

Reja:

- 1.Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati.
- 2.Korreksion pedagogikaning kategoriyalari
- 3.Anomal bolalar bilan ishlash.
- 4.Korreksion pedagogikaning paydo bo'lishi.
- 5.Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari.

Tayanch soʻz va iboralar: korreksion pedagogika, maxsus, pedagogika, nogiron bolalar, surdo pedagogika, tiflo pedagogika, oligofrendo pedagogika, lagopediya...

1. Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati.


Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar boʻlgan oʻquvchilarni korreksion oʻqitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shugʻullanadi. **Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya)** - yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logos – fan, taʼlimot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va oʻqitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida **korreksion pedagogika** zamonaviy pedagogika fanida rasman eʼtirof etilganiga u qadar koʻp vaqt boʻlmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qoʻllanib kelingan.

Pedagogik lugʻatda «**korreksiya**» tushunchasi (yunoncha «correctio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki toʻliq) sifatida tushunilishi taʼkidlab oʻtiladi¹.

Ana shu lugʻatda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va oʻqitish metodlariga muhtoj boʻlgan, sogʻligʻi imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:



Коррекцион педагогика (дефектология) соҳалари

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat oʻrtasidagi nomuvofiqlikni yoʻqotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit taʼlim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-oʻqitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini taʼminlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus taʼlim dasturiga muvofiq

mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. **Korreksion pedagogikaning asosini** anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- 2) differentsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- 3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- 4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- 5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- 6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- 7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

2.Korreksion pedagogikaning kategoriyalari.

Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1.Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

3.Anomal bolalar bilan ishlash

2.Anomal bolalarni tarbiyalash - korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdegilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3.Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

4. Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarining barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion –tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

5. Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

6. Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» – layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o'rnini to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

7. Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» - moslashish) – anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlarini tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati yetmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

8. Oilaviy tarbiya reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

3. Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarining asosiy yo'nalishlari.

Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi **yo'nalishlarda** olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

7. Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasi yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, **uning asosiy vazifasi** bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

4.Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos - noto'g'ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga bo'lgan munosabatlarning uzoq vaqt davomida evolyusion tarzda shakllanib kelganligini ko'rsatadi.

Antik davrda qadimgi Spartada bir necha yuz yilliklar davomida sog'lom tana, kuch, chidamlilik yuqori o'ringa qo'yilib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar yo'q qilinardi. Mazkur davrda yangi tug'ilgan chaqaloqlarni qabila boshliqlariga olib kelardilar, ular bolalarni sinchiklab ko'rib agarda ijtimoiy talablarga javob bera olsalar, ular ota-onalariga tarbiyalash uchun qaytarilar edi. Agarda bolada birorta nuqson topilsa uni qabila boshliqlari Tayget jarligiga tashlab yuborar edilar (eramizdan avvalgi IV-V asrlar).

Yevropada o'rta asrlarda bolaning rivojlanishidagi har qanday nuqson qora, yovuz kuchlarning namoyon bo'lishi sifatida e'tirof etilib, psixik kasalliklari bo'lgan kishilar inkvizisiya gulxanida yondirilganlar.

Uyg'onish davridan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha Yevropa defektologiya fani va amaliyotida bolaning aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar muammosi borasidagi qarashlarning evolyusion xarakterini anglash mumkin.

Ruhiy kasallarga nisbatan **insonparvarlik yondashuvi** ilk bor fransuz shifokori, psixiatri Filipp Pinel (1745-1826 yillar) tomonidan ilgari surilgan. U ruhiy kasalliklarni klassifikatsiyalagan (turlarga ajratgan).

Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarga nisbatan pedagogik yondashuv XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarni **maxsus usullar yordamida o'qitish va tarbiyalash g'oyasini** Iogan Genrix Pestalotssi (1746-1827 yillar) asoslagan bo'lsada, biroq, o'z davrida bu fikr qo'llab-quvvatlanmadi. I.G.Pestalotssi "aqli zaiflar" bilan ishlash tamoyilining mohiyatini asoslab berdi: bolaning imkoni yetgan bilimlarni berish, didaktik materiallardan foydalanishda aqliy va jismoniy tarbiya uyg'unligiga erishish, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'liq holda tashkil etish.

Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashga nisbatan **tibbiy-pedagogik yondashuv** asoschisi fransuz psixiatri Jan Itar (1775-1838 yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo'lgan bolaga ta'lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini mashq qildirish yordamida rivojlantirish yo'lini ko'rsatib berdi.

Anatomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Krepelin (1856-1926 yillar) katta hissa qo'shdi. U birinchi bo'lib "psixik rivojlanishdan ortda qolish" (PROQ (ZPR)) hamda "oligofreniya" (yunoncha olygos – kam va phren-aql) tushunchalarini qo'lladi.

Fransuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Simon test sinovlari metodini asoslaydilar. Shu bois ular intellektual zaiflikni o'rganishning psixometrik yo'nalishi asoschilari hisoblanadilar.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida XX asr boshiga kelib quyidagi uch asosiy yondashuv qaror topdi:

1. **Tibbiy-klinik yondashuv** aqli zaiflarning etimologiyasini bilish, intellektning buzilishiga sabab bo'lgan omillar, shuningdek, anatomik-fiziologik va genetik buzilishni o'rganish g'oyasini ilgari suradi.

2. **Psixologik yondashuv** psixikasi buzilgan bolalarning psixik faoliyati, emotsional holati hamda shaxsini o'rganishga yo'naltirilgan.

3. **Pedagogik yondashuv** intellekti buzilgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalashning pedagogik tamoyillari, metodlari, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish g'oyasiga tayanadi.

Rossiya korreksion pedagogikasi tarixi Yevropa defektologik fani bilan uzviy bog'liq.

Petr-I, Yekaterina-II lar anomal bolalar uchun davolash muassasalari, mehribonlik uylari va maxsus maktablarni barpo etish haqida farmon chiqarganlar.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida anomal bolalarni o'qitish va tarbiyalashni yo'lga qo'yuvchi ko'plab jamiyat hamda ijtimoiy tashkilotlar tashkil etildi.

Sobiq Sho'ro davrida bolalikni himoya qilish va bolalar nuqsonlari bilan bog'liq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

1918 yili Sovnarkom tomonidan maxsus dekret qabul qilindi. Unda anomal bolalarga yordam berishda asosiy vazifa ularni alohida ajratish emas, balki ularni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu yilning Rossiyada birinchi maxsus ta'lim-tarbiya muassasasi (V.P.Kashenko uyi) tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida korreksion pedagogika (defektologiya)ning rivojlanish tarixi Rossiya defektologiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni vaqtda u o'z xususiyatlariga ham ega. Bu xususiyatlar dinning o'zbek xalqi hayoti va turmushiga chuqur singganligi va o'zbek milliy mentaliteti bilan tavsiflanadi. O'zbek xalqi anomal bolalarga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lib, ularga rahmdillik, mehribonlik ko'rsatgan.

Ayni vaqtda respublikada anomal bolalar uchun maxsus o'quv muassasalari (ko'zi ojiz hamda kar bolalar uchun maktab-internatlar, aqli zaiflar uchun yordamchi maktab-internatlar) faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997 yil)ning 23-bandida psixik yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish va davolash maxsus (ixtisoslashtirilgan) ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilishi ta'kidlab o'tilgan.

XX asrning 60-70 yillarida respublikada korreksion pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda defektolog pedagoglarni tayyorlash yo'lida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1967 yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya bo'limi ochilib, ixtisoslashtirilgan muassasalar uchun pedagog-defektologlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda respublika olim defektologlari ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko'rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o'rganmoqdalar.

5.Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari.

Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning soni ko'p bo'lib, ayni vaqtda yanada oshib bormoqda.

«Anomaliya» tushunchasi yunonchadan tarjima qilinganda me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanishni anglatadi.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda **jismoniy yoki psixik kamchiliklar (nuqsonlar)** bo'ladi, ular bolalarning umumiy rivojlanishida chetlanishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Nuqsonning xususiyati, paydo bo'lishiga qarab ayrim kamchiliklarni to'la yo'qotish, ayrimlarini esa tuzatish, uchinchi xillarining o'rnini to'ldirish mumkin. Anomal bolaning rivojlanishida uni o'qitish va tarbiyalash asosiy muammo hisoblanadi.

Ayni vaqtda rivojlanishidagi chetlanishlarning klassifikatsiyasi bo'yicha yagona qarash mavjud emas.

M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar anomal bolalarning quyidagi guruhlari ko'rsatadilar:

1. Sensor xislati yetishmaydigan (noraso) bolalar (eshitish, ko'rish, nutqi qobiliyatlari, tayanch-harakat apparat va sensomotorikasining funksiyasi buzilgan).

2. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar.

3. Astenik yoki reaktiv holati hamda nizoli tashvishlanishga ega bo'lgan bolalar.

4. Psixopatik xulqli bolalar (xulqning emotsional buzilishi).

5. Aqli zaif bolalar (debillik, imbesillik, idiotiya darajasidagi oligofrenlar).

6. Psixik kasallikning boshlang'ich ko'rinishi (shizofreniya, epilepsiya, isteriya va boshqalar) namoyon bo'ladigan bolalar.

O.N.Usanova anomal bolalarni quyidagi guruhlariga ajratishni taklif etadi¹:

1. Organik buzilishlar sababli rivojlanishida chetlanish bo'lgan bolalar.

2. Funksional yetuk emasligi sababli rivojlanishida kamchilik bo'lgan bolalar.

3. Psixik deprivatsiyalar asosida rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar.

Defektolog V.S.Raxmanova rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni quyidagicha guruhlariga ajratishni taklif etadi²:

1. Intellektual buzilishga ega bolalar (aqli zaif va psixik rivojlanishidan ortda qolgan bolalar).

2. Nutqi buzilgan bolalar.

3. Sensorli nuqsonlarga ega bolalar (ko'rish va eshitish qobiliyatlari buzilgan)

4. Tayanch-harakatli apparati buzilgan bolalar.

5. Rivojlanishida kompleks buzilish bo'lgan bolalar.

Anomal bolalarda nutqiy qobiliyatning buzilishi umumiy qonuniyat hisoblanadi.

Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funksiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o'rnini to'ldirishga imkon beruvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomal bolalarning ma'lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhlari ularga esa davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari. Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatli ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir.

Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PMPK) shug'ullanadilar. Bu borada mutaxassislarning quyidagi **tamoyillarga** amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

1. **Insonparvarlik tamoyili** har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

2. **Bolalarni kompleks o'rganish tamoyili** bolaga tashhis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tanishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

3. **Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamoyili** bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatleri va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi.

Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

4. **Bolani dinamik o'rganish tamoyilga** binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o'qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vo'gotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" - bolalarning o'qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta'limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.

5. **Sifatii-miqdoriy yondashuv tamoyili** bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijaningina emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo'lning rasionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishdagi qa'tiylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

6. **Ma'lum turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamoyili** har bir maxsus ta'lim muassasasi o'zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

7. **Rivojlanishida mavjud bo'lgan chetlanishlar darajasiga ko'ra differentsiyalashtirilgan ta'limni tashkil etish tamoyili** rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko'ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o'qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o'qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko'zi ojiz bolalar taktik asosda (Brayn tizimi bo'yicha), yomon ko'ruvchilar esa ko'rish asosida o'qitiladi).

8. **Yoshi tamoyili** har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni tekshirish va ularga korreksion yordam ko'rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

PMPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar: pedagog, psixolog, shifokor, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog hamda logoped. PMPK ishlariga defektologik ta'lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi metodlari yordamida tashkil etiladi:

1. **Suhbat metodi.** Suhbat bola bilan aloqa o'rnatish vositasi bo'lib, anomal bolaning shaxsi, emotsional-irodaviy sifatleri, xulqi, shuningdek, rivojlanishidagi chetlanishlarning sabablari haqidagi ma'lumotni to'plashga imkon beradi. Agarda bolaning nutqida, eshitish qobiliyatida nuqsonlari bo'lsa, yoki munosabatga qiyin kirishsa suhbatni tashkil qilish tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda bolani qiziqtiradigan ko'rgazmali materialdan foydalanish mumkin.

2. **Kuzatish metodi.** Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni o'tkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o'tkaziladi. Bolani o'yin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega, ular bola bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi. Ayrim hollarda o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o'tkaziladi.

3. **Rasmlarini o'rganish metodi.** Rasmlar bolani o'rganishda muhim differensial-diagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg'otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun qimmatli ma'lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiynaladilar, ular syujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

4. **Tajriba-psixologik tadqiqotlar metodlari.** Ular maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan psixik jarayonni qo'zg'atuvchi ma'lum vaziyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

5. **Testlar metodi.** Bu metod bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashgandir. Undan foydalanish individual-psixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari. Tadqiqotlar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan, yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga

ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya diafunksiyalari ekanligini ko'rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi.

PROQni bolalar rivojlanishini ko'rsatuvchi anomaliya sifatida o'rganish XX asrning 50-yillarning oxirida boshlanib, 60-70-yillarda keng ommalashdi.

Tadqiqotchilar (G.B.Shoumarov, K.S.Lebedinskaya) PROQning quyidagi to'rt variantini keltiradilar:

- 1) konstitusional kelib chiqish;
- 2) somatogen kelib chiqish;
- 3) psixogen kelib chiqish;
- 4) serebral-organik kelib chiqish.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan maktabga borayotgan bolalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ular maktabda o'qishga to'la tayyor emaslar, ularda maktabda o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o'zlashtirish uchun layoqati yetarli emas. Ular maxsus yordamsiz hisoblash, o'qish va yozishni, shuningdek, maktabdagi tartibni o'rgana olmaydilar. Faoliyatlarni tashkil etishda qiyinchilikni his etadilar. Ularda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini bajarmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko'pincha boshlari og'riydi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o'ziga xos. Maktabda ular o'zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o'qishga nisbatan qiziqish yo'q yoki juda past bo'lib, maktabga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmaydi. O'yin ular uchun asosiy faoliyat bo'lib qoladi.

PROQli bolalarni ko'pincha aqli zaif deb hisoblab xato qiladilar. Ularni o'zaro farqlashda ayrim omillar qo'l keladi. Chunonchi, PROQ bolalarda oddiy bilimlarni o'zlashtirish, hisoblash ko'nikmalarini egallab olishda qiyinchilik ko'zga tashlanishi bilan birga she'r yoki ertaklarni eslab qolish qobiliyati va idrok etish faolligi ancha yuqori bo'ladi. Bunday xususiyatlar aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Ko'pchilik hollarda PROQ (ZPR) o'quvchilar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladilar. Ular bilan individual korreksion ishlar olib borilmaydi, shu bois ular amalda o'quv jarayonidan chetda qoladilar va predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar qatoriga kiritiladilar. Ular maxsus tashkil etiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ta'limga muhtojlar. Ularga alohida e'tibor ko'rsatish talab etiladi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korreksion ishlar olib borishning xususiyatlari. O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o'qitishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang'ich umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati – 4-5 yil).
2. Asosiy umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati - 5 yil).

Bolalarni korreksion muassasalarga qabul qilish PTPKning xulosasi bo'yicha otanalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'tkazilishlari mumkin.

Ikkinchi bosqichda ta'lim (V-IX sinflar) ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda, ta'limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishlashda asosiy vazifa - bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini

hosil qilish, mustaqil ravishda, bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korreksion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshirilishi zarur. O'quv materiali hamda ta'lim metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablari. Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi - oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi. "Oligofreniya" (yunoncha olygos – kam va phren - aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya – bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ona qorinidaligi miyasi shikastlangan bolalar.
2. Tug'ilishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994 yilda aqli zaiflikning quyidagi to'rt darajasini e'tirof etgan: **sezilmas (kam), o'rtacha, og'ir va chuqur darajalar.**

Kam darajadagi aqli zaiflik o'quvchilar maktabni bitirish davrida o'zlarining psixometrik va klinik namoyon bo'lishi bilan normal rivojlanayotgan odamlardan kam farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo'lmaydigan hodisa sifatida e'tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatmaydi. Aksariyat tadqiqotlarda maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar. Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning olidini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhimdir.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yaslilarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy bolalar bog'chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha olib boriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladilar, bu yerda o'qitish davlat ta'lim standarti asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o'rta ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, fizkultura, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlarni ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi IV sinfdayoq

professional xususiyatga ega bo'lib, bolalar o'zlari bajara oladigan kasbni o'zlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarini tarbiyalash, atrofdagilar va o'zlariga to'g'ri baho berishga o'rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

Goho aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabiga jaob etilish holati ko'zga tashlanadi. Bunday holatda bolaning taqdiri, uni o'qitish va tarbiyalash mas'uliyatini ota-onalar o'qituvchi-defektologlar bilan kelishib olishlari zarur. Normal rivojlanuvchi bolalar bilan bir sinfda o'qiydigan aqli zaif bola alohida munosabatni talab etadi. Bola kuchi yetganicha, darsning borishiga halaqit qilmay sinf faolitada ishtirok etishi kerak. Unga biror narsaning tushunarsiz bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu holat keyin o'quv materialining mutlaqo tushunmasligiga olib keladi. Aqli zaif bolani ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish ota-onalarining bevosita ishtiroklarini talab etadi,

Nutqida nuqson bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari. Nutq – faqatgina insonga xos bo'lgan muhim psixik funksiyadir. Nutqiy munosabatlar yordamida, shaxs ongida borliqni aks ettiruvchi bilimlar doimiy ravishda to'ldirilib va boyitib boriladi.

Nutqiy nuqsonlarni o'rganish, oldini olish va korreksiya bilan korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi - **logopediya** (yunoncha logos – so'z va paideia - tarbiyalash) shug'ullanadi. Patogen omil ta'sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi va u maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik choralarsiz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari (anatomik-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik (atrof-muhitning salbiy ta'siri), psixonevrologik (psixik funksiyalarining buzilishi (aqli zaiflik, xotira yoki diqqatning buzilishi va boshqalar) sabablarning ham ta'siri sezilarli bo'ladi.

Ekzogen-organik omillar sirasiga: bolaning markaziy nerv tizimi va uning organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillar (infeksiya, jarohatlar, intoksikatsiya), turli akusherlik patologiyalari (bel torligi, tug'ilishning cho'zilib ketishi yoki tez sodir bo'lishi, yo'ldoshga o'ralib qolishi, bolaning noto'g'ri joylashishi va boshqalar), malakali akusherlik yordamining ko'rsatilmaligi, chala tug'ilish kabi holatlar sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda logopediyada nutqiy buzilishlarni ikki turi ajratiladi:

- 1) **tibbiy-psixologik nutqiy buzilish;**
- 2) **psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.**

Tibbiy-psixologik turda ko'riladigan hamma nutqiy buzilishlarni quyidagi ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

- 1) **og'zaki nutqning buzilishi;**
- 2) **yozma nutqning buzilishi.**

Og'zaki nutqning buzilishi o'z navbatida quyidagi ikki turga ajratiladi:

- 1) nutq ifodalanishi fonasion tuzishi (nutq talaffuzi) ning buzilishi;
- 2) fikr strukturali-semantik (ichki) tuzilishi (nutqning tizimli yoki polimorf)ning

buzilishi

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalash uni pedagogik jarayonda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar jamoasi bilan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalashga ko'ra nutqning buzilishi quyidagi ikki guruhga ajratiladi:


1. **Muomala vositalari (fonetik-fonematik va nutqning umumiy rivojlanmaganligi)ning buzilishi.**

2. **Muomala vositalarini qo'llashdagi buzilishlar.**

Maktab o‘quvchilarida nutqi buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Nutqiy buzilish, nutqiy buzilishning sabablari, mexanizmlari, simptomatikasi, borishi va tuzilishi uning oldini olish, maxsus (korreksion) o‘qitish va tarbiya masalasi bilan logopediya shug‘ullanadi. “Logopediya” termini yunonchadan tarjimasida “to‘g‘ri nutqni tarbiyalash” ma‘nosini anglatadi. Nutqiy buzilish turli mutaxassislar - fiziolog, nevropatolog, psixolog, lingvist va boshqalar tomonidan o‘rganiladi.

Nutqiy buzilishi bo‘lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funksional yoki organik chetlanishlar ko‘zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiq, transportda yurish, arg‘imchoqda ko‘p vaqt tebranish bolalarga yomon ta‘sir ko‘rsatadi, boshlari og‘riydi ko‘ngillari ozadi va boshlari aylanadi. Tez charchab qoladilar, qattiq ta‘sirilanishlari, jahllari chiqish bilan ajralib turadilar. Ular emotsional barqaror emaslar, ularning kayfiyatlari tez o‘zgaradi, serjahl, agressiv, bezovta bo‘ladilar. Shuningdek, ularda sustlik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalar tinch o‘tira olmaydilar, butun dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo‘ladi. Juda tez xafa bo‘ladilar, gapga quloq solmaydilar. Tanaffusdan keyin esa darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo‘ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo‘shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi. Logopedik punkt vazifalari quyidagilardan iborat:



Логопедик пункт томонидан амалга ошириладиган вазифалар

O‘quvchilar bilan logopedik punktka korreksion ishlar butun o‘quv yili davomida individual va guruhli shaklda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o‘ta jiddiy bo‘lsa o‘qitish maxsus ta‘lim muassasalarida olib boriladi. Bunda o‘quvchi bilan davolash-sog‘lomlashtirish va psixologik-pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim sharti hisoblanadi.

Logopedik yordam ko‘rsatish sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta‘minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo‘lib, bu yerda nutqida buzilishi bo‘lgan bolalarga logopedik yordami ko‘rsatiladi.

Eshitish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarni korreksion o‘qitish. Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish. Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo‘lgan bolalar ko‘pchilikni tashkil etadilar. Eshitish – borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jonzod)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish **eshitish organi yoki tovush analizatori (tovush ta‘sirini qabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi)** yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko‘p hollarda muddatli bo‘ladi. Masalan, o‘rta qulog‘ning tashkil topishi, shamollash, oltingugurt to‘siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o‘rta qulog‘ining anomal tuzilishi (quloq suprasining bo‘lmasligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo‘llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy medisina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va

operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliy, tug'ma va kelib chiqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og'rishi (qizamiq, kor, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug'ilish, kichik vaznli tug'ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug'ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy o'tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;
- 2) eshitish qobiliyati zararlenganda nutqiy rivojlanish darajasi;
- 3) eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqti.

Yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra eshitish qobiliyatining buzilishi qulog'i og'irlik va karlik kabi guruhlariga ajratiladi.

Karlik bu eshitish qobiliyatining qattiq yo'qotilishi bo'lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog'iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba'zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.

Qulog'i og'irlik – bu eshitish qobiliyatining qattiq pasayishi (80 desibaldan kam) bo'lib, eshitish qobiliyati qoldig'i yordamida qulog'i oldida baland ovoz bilan gapirilganda bola nutqni eshita oladi. Bola minimal nutq boyligini mustaqil ravishda egallay oladi.

Karlar va qulog'i og'irlik (yomon eshituvchilar) nutqni qabul qilish usuli bo'yicha farq qiladilar. Karlar so'z nutqini ko'rib (suhbatdoshining lablari va yuziga qarab) va eshitib ko'rish (tovushni kuchaytirish apparati yordamida) qabul qiladilar.

Yomon eshitadiganlar atrofdagilar bilan tabiiy munosabatlar jarayonida baland ohangda so'zlashish asosida nutqni eshitib qabul qiladilar.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug'ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiy rivojlanishi ortda qoladi. Statistik ma'lumotlariga qaraganda eshitish organi funksiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Ayni vaqtda surdopedagogika oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish;

- eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyadagi bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy amalga oshirish;

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o'qitishning didaktik va maxsus metodikalarini yaratish;

- qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus ta'lim texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va boshqalar.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o'qishi mumkin. O'qituvchi bola tomonidan darsda bildirilayotgan fikrlarni yaxshi eshita olishiga e'tibor berishi, buning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo'lsa o'rta

qatorga o'tkazish kerak. Shuningdek, o'qituvchi bola uning gaplarini to'g'ri tushuna olganligi, topshiriqni to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba'zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o'qiydilar.

O'qituvchi eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bola sinfga qabul qilinganda ularning psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Ko'rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug'ullanadi (yunoncha «typhlos» – ko'r) – korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko'rish - ko'rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko'rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qorinida rivojlanayotganda ko'rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og'ir kasalliklar bilan og'rishi va hokazo omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'r bo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasliylik ham ko'zga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari – to'r pardasi, shoh parda yoki markaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit, miya shishi, meningoensifalit), organizmning umumiy kasallanishidan keyingi asoratlari (kor, gripp, skorlatina), shuningdek, miya yoki ko'zning jarohatli shikastlanishi (boshi yaralanishi, shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilgan bolalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Ko'r tug'ilganlar.
2. Erta ko'r bo'lib qolganlar.
3. Uch yoshidan keyingi ko'r bo'lib qolganlar.

Ommaviy maktablarda, ta'lim olganda yomon ko'ruvchi bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi kabi xususiyatlar predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o'ziga xos belgilarini bilib olishda ma'lum qiyinchiliklariga olib keladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o'qish texnikasi egallab olish, o'qilganlarning mazmunini tushunishga halaqit beradi. Oddiy maktabda yomon ko'ruvchi bolalar doskada nima yozilganligini ko'rmaydilar, qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda yomon ko'radigan bolalar tez charchaydilar, bu ularning ish qobiliyatlarini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa - yomon ko'radigan bolani o'z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta'lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PMPKga yuborishdan iborat. Yomon ko'radigan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish va tarbiyalash. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan tiflopedagogika (yunoncha «typhlos» – ko'r) – korreksion pedagogika (defektologiya)ning yana bir sohasi shug'ullanadi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlarni bilishi zarur.

Refraksiyasi anomaliyasi bolalar tuzatuvchi ko'zoynak taqishlari kerak. Lekin ko'zoynak taqishda bolalar pedagogning ularga diqqat bilan munosabatda bo'lishlariga muhtojlik sezadilar. Maktabda va uyda o'quv ishlarini bajarishda sanitar-gigienik talablarga amal qilish lozim. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola uchun ish o'rni to'g'ri va yetarlicha yoritilgan bo'lishi kerak. Bunday bola deraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatorga o'tkazilishi kerak. Yaqinni ko'radigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi yoki ikkinchi partaga o'tkazilishi zarur. Uzoqni ko'radigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa oxirgi partaga o'tkazilishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritada o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Anomal refleksiya bolalarda ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida ularga ko'rish ishlarini boshqa turdagi ishlar uyg'unlashtirib berishi zarur. Anomal refleksiya bola 10-15 minut davomida intensiv ko'rish ishlarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak, bu ko'rish charchog'ining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rish qobiliyati ancha og'ir bo'lgan – ko'r va yomon ko'radigan bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ba'zan ko'rish qobiliyati og'ir buzilgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

O'z sinflarida og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bola bo'lgan o'qituvchilar bolaga differensial yondashuv asosida munosabatda bo'lishlari zarur. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolaning ish o'rni esa ko'shimcha yoritilgan bo'lishi kerak. O'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zining har bir harakati mohiyatini so'z yordamida sharhlab borishi,

Sinfida ko'r yoki yomon ko'radigan bola bo'lgan o'qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishlarini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

Tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Tayanch-harakat apparatlari buzilishining turlari va yuzaga kelish sabablari. Tayanch-harakat apparatidagi turli buzilishlar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat apparati funksiyalarining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Tayanch-harakat apparati patologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

1) nerv tizimining kasallanishi (bolalar serebral paralichi (BSP), poliomielit);

2) tayanch-harakat apparatining tug'ma patologiyasi; sonning tug'ma chiqqanligi; bo'yin qiyshiqqligi; qiyshiq oyoqlik va oyoqning boshqa nuqsonlari; umurtqa pog'onasi rivojlanishidagi nuqsonlar (skolioz); qo'l yoki oyoqlarning rivojlanmaganligi va nuqsonlari; qo'li barmoqlarining anomal rivojlanishi; artrogiroz (tug'ma mayiblik);

3) orttirilgan kasalliklar va tayanch-harakat apparatining zararlanishi; orqa miya, bosh miya va qo'l-oyoqlarning travmatik jarohatlanishi; poliatrit; skelet kasalliklari (tuberkulez, suyaklardagi shishlar, osteomielit), skelet tizimi kasalliklari (raxit, xondodistrofiya).

Tayanch-harakat apparati patologiyasi bo'lgan bolalarda asosiy buzilish harakatlanishdagi nuqson hisoblanadi. Bunday nuqsonlarga ega bolalarning 89 % ini serebral paralichli bolalar tashkil etadilar. Ularda harakat buzilishi psixik va nutqiy buzilishlar bilan birga namoyon bo'ladi. Shu bois bu kabi bolalar nafaqat davolash va ijtimoiy yordamga, balki psixologik-pedagogik va logopedik korreksiyaga ham muhtoj bo'ladilar.

Harakatlanish buzilishlari o'rtacha darajada bo'lgan bolalar yurishni o'rganib olsalarda, biroq, shonch bilan yura olmaydilar, ular uchun maxsus moslamalar zarur. Harakatlanish buzilishining yengil shaklida bolalar uyda va ko'chada mustaqil, qo'rqmay yura oladilar, o'zlariga to'la xizmat ko'rsatadilar.

9-MAVZU: MA'RIFIY TIZIMLARNI BOSHQARISH

Reja:

1. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi.
2. O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi xaqida tushuncha va uni tashkil etish tamoyillari.
3. O'zbekistonda xalq ta'limitashkilotlarining turlari.
4. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti.


Tayanch so'z va iboralar: xalq ta'limi, uzluksiz ta'lim, davlat ta'lim standarti, o'quv-reja va dasturlar, ilmiylik va dunyoviylik tamoyili, iste'dod.

1.O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi

O‘zbekistonda xalq ta’limi tizimi respublikamizning ijtimoiy-iktisodiy va madaniy rivojlantirishning ustivor soxasi xisoblanadi. Xalq ta’limi tizimi respublikamizning ilm borasidagi kuch-quvvatini, jamiyat, oila va davlat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglaydigan erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Xalq ta’limi tizimi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi Qonunga muvofiq tashkil etiladi va nazorat qilinadi. Respublikamiz Konstitutsiyasining 18-va 41-moddasida ko‘rsatilganidan barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar bilim olish xuquqiga egadirlar. Shuningdek, fuqarolarning bepul umumiy ta’lim olishi davlat tomonidan kafolatlangandir. Bu xuquq ilm olishning xamma turlari tekinligi, yoshlarga umumiy majburiy o‘rta ta’lim berishni amalga oshirishni o‘qitishni xayot, unumli mexnat bilan bog‘lash asosida rivojlantirish negizida izoxlanadi.

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi



1997 yil 29 avgustda O‘zR «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni qabul qilindi. Bu qonunda ta’lim tizimini, mazmun va mohiyatini islox qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari xamda ta’lim va kadrlar tayyorlash soxasida raqobat muxitini shakllantirish nazarda tutilgan. Ta’lim tizimini yagona o‘quv-ilmoy ilab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash, xamda fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-xunar o‘rgatishning xuquqiy asoslarini belgilash va xar bir shaxsning barobar bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy xuquqini ta’minlangan.

Ta’limning asosiy mazmunini uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichida ilmiy va texnikaviy bilimlar, xamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda xayotning ma’nosi, jamiyatda insonning tutgan o‘rni, ta’lim-tarbiyasi, odob-axloqi xaqidagi xikmatli fikrlar borki bular bugungi xalq ta’limi taraqqiyoti uchun va milliy maktab yaratish borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, iymon-e‘tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mexnatsevarlik, millatlararo do‘stlik munosabatlari, qaxramonlik, mardlik singari tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Ta'limning mazmuni o'zgaruvchan, u doimo yangilanib turiladi. Yangi demokratik jamiyat qurayotgan hozirgi kunlarda fan va texnikaning, pedagogik texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xalqimizning madaniy-marifiy yuksalishi tufayli bu jarayon yanada tezlashdi. Paydo bo'layotgan yangi bilimlar oqimi uchun eng muxim, xalq ta'limi vazifalarini xalq etishda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan fanlarni ajratib ko'rsatish va ayni vaqtda qanday o'quv materiallarni chiqarib tashlash va yangilarini dasturlarga kiritilishini xalq etish kerak.

Birinchi– maktabgacha ta'lim. Uch yoshdan boshlanib, olti yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishidan qat'iy nazar, boshqa xil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Ikkinchi– boshlang'ich ta'lim. 1- 4 sinflarni o'z ichiga oladi va bunda o'qish olti-etti yoshdan boshlanadi.

Uchinchi – umumiy ta'lim. Bunda o'quvchilarga 5-9 sinflar doirasida bilim va tarbiya beriladi.

To'rtinchi – o'rta maxsus bilim va kasb-xunar ta'limi. O'qish muddati 3 yildan kam bo'lmagan akademik litsey va kasb-xunar litseylari va kollejlari.

Akademik litseyi — o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini xisobga olgan xolda ularning jadal intellektual rivojlanishini, chuqurlashtirilgan va ixtisosla shtirilgan xolda o'qitishni ta'minlaydi.

Kasb-xunar kolleji — o'quvchilarning kasb-xunarga moyilligini, layoqatini, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir necha zamonaviy kasbni egallashlariimkonini beradi.

Beshinchi – oliy mutaxassislik ta'limi odatda o'n sakkiz va o'n to'qqiz yoshdan boshlanib, to'rt yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi. Oliy mutaxassislik ta'limi bakalavrluk va magistraturaga bo'linadi.

Bakalavriyat — tayancholoy ta'lim bo'lib, mutaxassislik yo'nalish bo'yicha umumiy ta'lim negizida kamida to'rt yil davom etadi.

Magistratura — aniq mutaxassislik bo'yicha to'liq oliy ta'lim bo'lib, odatda bakalavriyat negizida kamida ikki yil davom etadi.

Shu bilan birga, biz o'z extiyojlarimiz va ichki sharoitlarimizdan kelib chiqib, uzluksiz ta'limning rasmiy tizimida yakunlovchi bir bosqich xam mavjud. Bu bosqich ikki darajaga bo'linadi, ya'ni aspirantura va doktorantura.

Aspirantura – nixoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi.

Aspiranturaning maqsadi – muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy kvalifikatsiyaliilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirish.

Doktorantura – fan nomzodiilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, dissertatsiya ximoya qilish bilan yakunlanadi.

Bundan tashqari, yangi tizimda qo'shimcha kasbiy ta'lim – qayta tayyorlash va malaka oshirish, maktabdan tashqari ta'lim masalasiga xam katta e'tibor beriladi.

2. O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi xaqida tushunchavauni tashkil etish tamoyillari

Xalq ta'limi tizimi deganda aniq maqsadni ko'zlab mamlakat yoshlariga ta'lim-tarbiya beradigan muassasalar tushuniladi.

Xar bir mamlakat xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etadigan ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga va milliy xususiyatga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimiz istiqlolga erishganidan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yetuk mutaxassis kadrlar taerlashga katta e'tibor berilmoqda. Bunga xukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator qonunlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasi va Xukumat qarorlariga asoslangan xolda hozirgi vaqtda xalq ta'limining quyidagi tamoyillari qaror topdi: O'zbekiston fuqorolarining millatidan, dinidan, jinsidan, ijtimoiy axvolidan qat'iy nazar ta'lim olishga teng xuquqliligi tamoyili. By tamoyil Xalq maorifining demokratik ruxidan darak beradi.

Xamma maktab yoshidagi yoshlar uchun bilim olish majburiy ekanligi tamoyili. Bu tamoyil yoshlarimizni ma'lumotli bo'lishi, zamon talabiga javob beradigan ilmiy bilimlarni

egallashi, xayotda o'z o'rnini topa olishlari xaqida Davlatimiz g'amxo'pligidan darak beradi.

Barcha ta'lim muassasalari davlat va ijtimoiy xususiyatga ega ekanligi tamoyili. Bu O'zbekistondagi barcha ta'lim-tarbiya muassasalari davlat ixtiyorida ekanligini, bu tashkilotlarni davlat mablag' bilan ta'minlashini nazarda tutadi. Ta'lim-tarbiya muassasalarining faoliyati davlat tomonidan boshqarilib boriladi. Shu kabi tadbirlar davlatni xalq ta'limi xususidagi siyosatini amalga oshirish, o'quv-reja va dasturlarini yagona bo'lishini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Qaysi tilda o'qitish ota-onalarning istagiga bog'liqligi tamoyili. O'z farzandini qaysi tilda o'qitish erkinligi davlatimizning baynalmilallik, insonparvarlik siyosatining yorqin namunasidir. O'zbekistonda yashayotgan xar bir millat a'zosi xoxlagan tilda bolalarini o'qitish xuquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida Respublikada davlat tili o'zbek tili deb belgilangan. Lekin shunga qaramay, respublika xududida yashayotgan boshqa xalqlarga xurmat bilan qarash, shu tillarni rivojlanishiga shart-sharoit yaratib berish ko'zda tutilgan. Buning yorqin misoli bo'lib, O'zbekiston maktablarida o'quv yetti tilda olib borilayotganligini keltirish mumkin.

Ta'limning bepullik tamoyini. Konstitutsiyada respublikamizning xar bir fuqarosining bepul ta'lim olish xuquqi, ta'limning davlat nazoratida ekanligi kafolatangan. Ta'limning xamma turlari bepul bo'lishi mamlakatimizda yana boshqa qator moliyaviy choralar bilan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda.

Masalan, ayrim kam ta'minlangan o'quvchilarni davlatning o'zi ta'minlashi, talabalarni stipendiya bilan ta'minlanishi va ularga boshqa moddiy yordamlar ko'rsatilishi kabilar respublikada xalq maorifi rivojlanishiga ta'sir etadigan omillardan xisoblanadi. Xozir ko'pgina ta'lim-tarbiya muassasalarida bolalar davlat xisobidan tarbiyalanib kelinmoqda. Shunga misol tariqasida ayrim maktabgacha tarbiya muassasalarida, defektologik maktablarning barcha turlarida nogiron bolalar uchun ochilgan cog'lomlashtirish sanatoriylarida ta'limning bepul ekanligini ta'kidlash mumkin.

O'quvchilarni xar tomonlama kamol toptirish, ularni qarovsiz qolmasligi uchun moddiy manbasi imkon bergan maktablarda kuni o'zaytirilgan guruxlar tuzilgan, yetim bolalar uchun bolalar uylari, maktab-internatlar tashkil etilgan. Stipendiya bilan fakat oliy maktab talabalarigina emas, balki o'rta maxsus bilim yurtlari talabalari xam ta'minlangan.

Ta'limning ilmiylik va dunyoviylik tamoyili. Bilimlarning ilmiy xususiyatga ega bo'lishi va bu fan va texnika yutuqlarini xisobga olgan xolda doimo o'zgarib, yangilanib borishi ilmiylik tamoyili deyiladi. O'zbekiston xududidagi barcha ta'lim muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi. Bu tamoyilga so'zsiz amal qilish bolalarga beriladigan bilimlar mazmunini vaqt-vaqti bilak qaytadan ko'rib, o'zgartirib turishni taqozo qiladi.

3.O'zbekistonda xalq ta'limi tashkilotlarining turlari

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (1997y. 29 avgust) «Ta'lim turlari» xususidagi 10-moddasida shunday deyiladi:

«O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha tarbiya;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va kayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha tarbiya. Xalq ta'limi tizimida birinchi bosqich - maktabgacha tarbiya. Uning asosiy vazifasi bolalarni sog'lom va yetuk qilib tarbiyalash, ularni maktabga xam pedagogik, xam psixologik tarbiyalashdan, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. «Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi».

Boshlang'ich ta'lim (I-IVsinf.). Umummaktab ta'limida boshlang'ich maktabning axamiyati muximdir. Chunki boshlang'ich maktab umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur

bo'lgan bilim, o'quv ko'nikmalari bilan qurollantiradi. Boshlang'ich maktablar aloxida maktab turi sifatida, ayniqsa qishloq joylarida ko'p tarqalgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari (V-IX sinf). Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rta ma'lumot olishni ta'minlaydi. Zamonaviy bilimlar beradi. Bolalarning fikrlash qobiliyatini o'stirib, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llashga qaratadi. Bu esa o'z navbatida kasb tanlashga yo'naltiradi, biror-bir kasbni egallash imkoniyatini beradi.

Xalq xo'jaligining turli soxalarida mehnat qilayotgan va umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lmagan yigit va qizlar uchun kechki (navbatli) maktablar va kattalar uchun ta'lim markazlari tashkil etilgan.

Oliy ta'lim. Xalq ta'limi tizimida muxim o'rin egallab, ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotni belgilab beradi. Xalq xo'jaligi va madaniyatining turli soxalarini yetuk oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlaydi. Respublikada oliy ta'lim o'z ichiga universitetlarni, pedagogika, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, iqtisod, yuridik politexnika va boshqa institutlarni qamrab oladi. Universitetlar yetakchi bilim yurtlaridan bo'lib ular tabiiy-matematik va gumanitar mutaxassislar bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlaydi. Respublikamizning ko'pgina viloyatlaridagi pedagogika institutlarini universitetlarga aylantirilishi xam xukumatimizning yetuk o'qituvchi kadrlar tayyorlash borasidagi g'amxo'rligining dalolati xisoblanadi.

O'quv yurtlaridan keyingi ta'lim. Institut, universitetlar uchun yuqori darajali ilmiy kadrlar tayyorlashni nazarda tutadi. Bu aspirantura, doktorantura orqali amalga oshiriladi. Aspiranturaga oliy ma'lumotli, ilmiy-tadqiqot ishlariga moyil shaxslar imtixon topshirib, tanlov asosida qabul qilinadi.

Dissertatsiya ximoyasidan keyin bunday shaxslarga fan nomzodi ilmiy darajasi beriladi. O'z soxasida chuqur izlanishlar olib borgan, monografiyalar yozgan va doktorlik dissertatsiyasini ximoya qilgan shaxslarga fan doktori ilmiy darajasi beriladi. Institut pedagogik faoliyati bilan shug'ullangan va ilmiy-tadqiqot olib borayotganlarga dotsent va professorlik unvoni beriladi.

Maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasiga asoslangan bolalar va o'smirlarning ehtiyojlarini, xoxish-istaklarini to'laroq ro'yobga chiqarish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida davlat muassasalari, turli mulk shakllariga ega bo'lgan korxonalar, jamoat tashkilotlari ilmiy-badiiy, ilmiy-tabiiy, texnik, sport va boshqa yo'nalishdagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin. O'zbekistonda shunday maktabdan tashqari tarbiya muassasalari faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, xalq ta'limi bo'limlari tomonidan ular ishi nazorat qilinadi.

Maktabdan tashqari muassasalarning asosiy vazifasi maktab bilan xamkorlikda maktab yoshidagi bolalarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning mayl va xoxishlariga qarab turli to'garak ishlariga jalb etishdan, qobiliyatini rivojlantirishdan va olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llashga, o'rgatishdan iborat.

Maktabdan tashqari muassasalarning butun yil davomida xar xil tadbirlar o'tkazishi; predmetlar bo'yicha olimpiadalar, slyot va spartakiadalar, o'lkani o'rganish uchun yurishlar, arxeologik va etnografik sayoxatlar uyushtirish - bu yoshlarning o'z vatanining tarixini, madaniyatini chuqur o'rganishga ta'sir etibgina qolmay, slyotlar, olimpiadalar kabi tadbirlar maktabda olgan bilimlarini chuqurlashtirishga, iqtidorli yoshlar bilan ishlashga imkon beradi.

Xozir O'zbekiston xududida faoliyat ko'rsatib turgan maktabdan tashqari muassasalar quyidagilar:

- o'quvchilar saroylari va uylari;
- yosh texniklar stansiyalari;
- yosh tabiatshunoslar stansiyasi;
- yosh turistlar stansiyasi va bazalari.

Bunday maktabdan tashqari ta'lim muassasalari Respublikamizda olti yuzdan ortiqroq bo'lib, ular tarkibiga 265 o'quvchilar saroylari va uylari, 133 yosh texniklar markazi va stansiyalari, 40 ta yosh sayoxatchilar va o'lkashunoslar stansiyalari va boshqalar kiradi. Bu muassasalar tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlarda xar yili 5 ming nafardan ortiq bolalar

ishtirok etadilar.

4. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti

Asosiy qoidalar. Umumiy o'rta ta'limning **Davlat standart** o'quvchilarning tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan eng kam mezonni belgilaydi.

Davlat ta'lim standarti bo'yicha ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari baxolanadi. Standart vositasida mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'lim barqaror darajaga keltiriladi. Demak, ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, xudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi xamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi xududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishdan qat'iy nazar, barcha ta'lim muassasalari uchun majburiy xisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish asoslari

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy xujjatlar asos qilib olinadi:

«Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish bilan bog'liq farmonlari, farmoyishlariva asarlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davrlar ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» 1998 yil 5 yanvardagi 5-son xamda «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» 1998 yil 13 maydagi 203-son qarorlari;

O'zRST 1.0—92. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi;

O'zRST 1.1—92. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi. O'zbekiston Respublikasi davlat standartini ishlab chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi;

GOST 1.5—93. Davlatlararo standartlash ishlarini olib borish qoidalari. Standartlarning tuzilishi, bayoni, rasmiylashtirilishi va mazmuniga bo'lgan talablar;

O'zRST 1.9—95. O'zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi, tarmoqlar standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

Umumiy o'rta ta'lim - davlat ta'lim standartining tayanch o'quv rejas

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejas davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim soxalarini me'yorixamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat xujjatidir. Tayanch o'quv rejas o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini minimum xajmdagi miqdorini o'zida aks ettiradi. U har bir sinfdan muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lib, boshlang'ich 1—4-sinflar va umumiy o'rta ta'lim 1—9-sinflarni qamrab oladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich xamda umumiy o'rta ta'lim nixoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning eng kam darajasini belgilab beradi.

Xar bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

10-MAVZU: O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Reja:

- 1.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» xaqida.
- 2.Pedagogik faoliyat tuzilishi, pedagogik qobiliyat va maxorat.
- 4.O'qituvchining kasbiy sifatlari
- 5.O'z.R.Prezidenti Sh.M.Mirziyoev zamonaviy ta'lim tizimi xaqida.
- 6.Ta'lim tizimiga yangicha yondoshuv.

Tayanch so'z va iboralar: insoniy omillar, kadrlar tayyorlash milliy modeli, pedagogik vazifalar, o'qituvchiga qo'yilgan talablar, pedagogning kasbiy imkoniyatlari.

1.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» xaqida.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust)da qabul qilingan xamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tadbiiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining moxiyati to'laqonli ochib berilgandir. KTMDda ko'rsatib o'tilganidek, - o'quv-tarbiya mazmuni va sifadini jaxon standartlari darajasiga ko'tarish, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, yuksak kasbiy, ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash ko'zda tutilgan. Mazkur vazifalarni muvaffakiyatli xal etilishida uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining moxiyatidan xabardorliklari xamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondoshuvning qaror topishi muxim axamiyat kasb etadi.

Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zga tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mexnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

O'zining fidokorona mexnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifadini oshirishga katta xissa qo'shayotgan ijodkor o'qituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, isloxotlar davrida bunday murabbiylar el-yurtga tanilmoqda. Xar yili eng yaxshi o'qituvchini aniqlash uchun o'tkazilayotgan maktab ko'riklari, tuman, viloyat, jumxuriyat tanlovlari ana shu yutuqlarga omil bo'lmoqda. Maktablarda «Metodist o'qituvchi», «Katta o'qituvchi», «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi» «O'zbekiston xalq o'qituvchisi» unvonlariga sazovor bo'lgan o'qituvchilar soni tobora ko'paymoqda.

Xalqimiz kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jixatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

So'nggi yillarda pedagogika institutlarida, universitetlarida, pdagogika bilim yurtlarida o'qituvchilar tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisosga doir fanlarni chuqur o'rganish va pedagogik maxoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish masalalariga e'tibor kuchaydi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarga pedagogika, ruxshunoslik, usuliyotga doir fanlarni o'rgatish ko'lami yanada kengaydi.

O'qituvchilik sharaflil, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash xaqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan usuliy g'oyalar bayon etiladi. O'quvchilarning yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Bilim olish, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik yuksak pedagogik maxorat ijodkorlikni talab etiladi.

Shuning uchun xam mustaqil O'zbekiston davlatining oliy o'quv yurtlarida, kasb-xunar kollejarida, umumiy ta'lim maktablarida ishlaydigan o'qituvchi:

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarini, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan xam xabardor, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglaydigan e'tiqodli fuqoro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va maxoratni, shuningdek, nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, xar bir o'quvchisi ulg'ayib yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularni shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga

ko'maklashadigan;

-erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Biror kasbning xaqiqiy ustasi bo'lishi uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo'lishi zarur. Masalan, artist bo'lish uchun tabiiy ovoz, eshitish qobiliyati, bejirim suvrat, jismonan sog'lom bo'lish talab etiladi. Raxbarlik vazifasini yaxshi bajarish uchun tashkilotchilik, odamlar bilan muamola-murosa qila bilish kabi qobiliyatlarga ega bo'lish kerak. Aks holda kasbi va ishidan boshqalar xam, o'zi xam qanoat xosil qilmaydi.

Pedagogik, o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, otanonalar va bolalarni izzat-xurmatiga sazovor bo'lish uchun xam kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Boshqa kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga xam yoshlar orasidan pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomalaqila oladigan, ilmli kishilarni tanlab olish kerak.

Pedagogik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo'lishi darkor. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi, ular bilan ishlashga mayli borligi, boshqalar bilan muloqot qila olishi, xushmuomalaliligi, kuzatuvchanligi, keng fikrlay olishi, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi xam kishining pedagogik ishga yaroqligini ko'rsatadi. Bu sifatlar kishida bor-yo'qligi tibbiyot xodimlari, ruxshunos, pedagoglar og'zaki va yozma savol-javoblar aniqlay oladi.

O'qituvchi - bu maxsus tayyorgarlikdan so'ng kasbiy pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi insondir.

Nokasbiy pedagogik faoliyat bilan xamma shug'ullanishi mumkin, lekin faqat o'qituvchilargina nima? qaerda? va qanday qilib o'tkazish kerak? yoki pedagogik qonunlar asosida talab qilingan tartibda o'z oldilariga qo'yilgan kasbiy burchlarini sifatli bajarish javobgarligini o'z bo'ynilariga oladilar.

O'qituvchi stoli yonida turgan inson xamma narsaga javobgardir, xamma narsani biladi va bajara oladi. Xar bir o'sib kelayotgan o'quvchi talabning taqdiriga javobgarlik o'qituvchilik lovozimida xarakterlanadi. Bugun pedagoglar mexnati natijasi qanday bo'lsa-bizning jamiyatimiz xam ertaga shunday bo'ladi.

2. Pedagogik faoliyat tuzilishi. Pedagogik qobiliyat va maxorat

Pedagogik faoliyat yosh avlodni xayotga, mexnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarnig mexnat faoliyatidir.

Xar bir bola o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olish, o'rganish nixoyatda murakkab. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shu xususiyatlarini bilishlari lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) o'qituvchi shaxsining xususiyatlari; b) o'qituvchining ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar; v) maxsus tayyorgarlikning xajmi va mazmuni; g) ixtisosa oid usuliy tayyorgarlikning mazmuni.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari: g'oyaviy soxada: ilmiy dunyoqarash va e'tiqod; ijtimoiy extiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish; ijtimoiy va grajdanlik burchini anglash; ijtimoiy-siyosiy faollik. Pedagog kasbi soxasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; ruhiy-pedagogik ziraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik tekst, pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati; xaqqoniylik; dilkashlik; talabchanlik; qat'iylik va maqsadga intilish; vazminlik; o'zini tuta bilish; kasbiy layoqatlik.


Keng ilmiy saviya, ma'naviy extiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni xis qila bilish; pedagogik ma'lumotlarni oshirishga intilish esa bilish soxasiga kiradi.

O'qituvchining asosiy funksiyasi – bu ta'lim jarayonini, tarbiyani, rivojlanishni va shakllantirishni boshqarish.

O'qituvchi ta'lim jarayonini o'rgatishi emas - ta'limni yo'naltirishi, tarbiyalashi emas - boshqarishi lozim.

Pedagogning birinchi funksiyasi bu –maqsadlashtirishdir. Maqsad bu pedagogik faoliyatning kalitidir.

Ta'lim jarayonini boshqarish avvalo o'quvchilarning bilim doirasiga, tayyorgarlik darajasiga,



imkoniyatlari, odobliligi va rivojlanishiga tayanadi. Bu tashxislash yo'li bilan amalga oshiriladi. O'quvchilarning fiziologik va psixologik bilimining rivojlanishisiz, ularning aqliy va axloqiy tarbiyasi darajasiz, oiladagi va maktabdagi sharoitlarini bilmasdan turib maqsadni to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Mana shuning uchun o'qituvchi pedagogik vaziyatning taxlilini oldindan bila olish usullarini mukammal bilishi kerak.

Tashxislash bilan uzviy bog'langan xolda prognozlash (oldindan ko'ra bila olish) amalga oshiriladi. Bunda pedagog o'zining faoliyati natijalarini oldindan ko'ra bila olish maxoratini anglatadi.

Tashxisni bilib va muvoffaqiyatli prognozga tayangan xolda moxir pedagog proekt tuzishga kirishadi. Pedagogning proektlashtirish funksiyasiga oldinda turgan **ish faoliyati modelini** ishlab chiqish, **turlari va vositalarini tanlash, ko'rsatilgan vaqt ichida ko'zlagan maqsadga erishish, maqsadga erishishda aniq bosqichlarni ajratib olish, ularning xar biri uchun vazifalar qo'yish, olingan natijalarga baxo berishning turlari va shakllarini aniqlash kiradi.**

Tashxis, prognozlash, proektlashtirish o'quv-tarbiyaviy faoliyat rejasini tuzishning asosi xisoblanadi. Moxir pedagog aniq ishlab chiqilmagan rejasiz sinifga (auditoriyaga) kira olmaydi. Mazmuni emas, balki rejaning xajmi qanday, qanday ko'rinishga ega, pedagogning qo'lidami yoki xammasini yoddan biladimi? Asosiysi u albatta bor bo'lishi kerak. Bundan tashqari moxir pedagoglar bitta emas bir nechta rejalarini tayyorlab qo'yadilar. Bu jarayonni tashxislash, prognozlash va rejalashtirish vaqtida o'zgartirish kiritilishi kerak bo'lganda ishlatiladi.

Muvoffaqiyatli ishlash uchun xar bir o'qituvchi pedagogik maxoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik maxorat egasi oz mexnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning xamisha xamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik maxorat bo'lishi mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi xisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zexn, ya'ni inson asab tizimida anotomo-fiziologik xususiyat bo'lishi xam zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruxiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim:

A. Bilish qobiliyati - fanning tegishli soxalariga oid qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi xajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani soxasidagi kashfiyotlarni xamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nixoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini xam bajaradi.

B. Tushuntira olish qobiliyati - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. O'qituvchi zarur xollarda o'quv materialni o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi darkor.

O'quvchilar ruxiyatini xisobga olish zarur. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini xisobga oladi, ularning nimani bilishlari va xali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'rganliklarini tasavvur etadi. Ba'zida o'qituvchilarga, ayniqsa tajribasi kam o'qituvchilarga o'quv materialini oddiy, tushunarli va qandaydir aloxida izoxni talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas balki o'zlarini nazarda tutadilar. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'yaoladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarning o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavxum bir narsa bo'lishi xam mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini aloxida o'ylab chiqadi. xamda rejalashtiradi.

Qobiliyatli o'qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida o'quvchilarning qanday o'zlashtirayotganliklarini qator belgilar asosida payqab oladi va zarur xollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek, qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning saboqni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularni dam olishdan ishga o'tishlari, bo'shshish, lanjlik, loqaydliklarga barxam berish uchun minimal darajada vaqt ajratish zarurligini xisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmaguncha qadar ish boshlamaydi.

V. Kuzatuvchanlik qobiliyati - o'quvchining, tarbiyala-nuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruxiy xolatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruxiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni xam tez ilg'ab oladi.

G. Nutq qobiliyati - nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muximdir.

O'qituvchining nutki darsda xamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. o'qituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini taxlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo'lsa xam, uning nutqi xamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

D. Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jiplashtirish, muxim vazifalarni xal etishga ruxlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi. (Bunga o'z ishini to'g'ri rejalashtirish, uni nazorat qila bilish, vaqtga qarab ishni to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish, tajribali o'qituvchi zarur xollarda darsning rejasini o'zgartira olishi kiradi).

Ye. Obro' orttira olish qobiliyati - o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosida obro' qozona olishdir. (O'qituvchi fanni yaxshi bilishi, mexribonligi, nazokatligi, dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi, o'quvchilarga ta'lim xamda tarbiya berish mas'uliyatini xis etishi, o'zining xaq ekanligiga ishonishiga, bu ishonchni o'quvchilarga yetkaza olish).

I. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati - bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Yo. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z xarakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarini taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi.

S. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati - o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari-xajmi, kuchi, kuchuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izoxlanadi.

Diqqatni ayni bir vaqtda taqsimlash qobiliyati o'qituvchilik uchun aloxida axamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi saboqni bayon qilish mazmuni va formasini, o'z fikrini (yoki o'quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni ko'rib turadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini xushyorlik bilan kuzatadi, intizomsizlik xollarini e'tibordan qochirmaydi, nixoyat o'z xatti-xarakterlarini xam kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha saboqni bayon qilishga berilib ketib, o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo'yadi.; bordi-yu, o'quvchilarni diqqat bilan kuzatishga xarakat qilsa, fikr kalavasini yo'qotadi.

O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlariga–aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, mexnatsevarlik, kamtarlik kabi sifatlariga xam ega bo'lishi kerak. Bunday xususiyatlar bo'lmasa, o'rta pedagogik darajasidan yuqoriga ko'tarila olmaydi.

3. O'qituvchining kasbiy sifatleri

E'tiqod, odob, fuqarolik burchini anglash – o'qituvchining asosiy sifatlaridan biridir. O'qituvchi o'zi targ'ib qilayotgan idealning fazilatlarini shaxsiy namunasida ko'rsatishi kerak.

Bolalarga mexr-muxabbat o'qituvchining eng muxim fazilatidir. Bu bolalarning xamma qiliq-qilmishlarini kechirishi, ularga xushomadgo'ylik qilish emas, balki talabchanlik va qattiqqo'llik, adolatlilik bilan qo'shilgan mexr-muxabbat bo'lib, ana shu sifatga ega bo'lgan shaxs o'zining ko'p vaqtini va kuchini bolalarga bag'ishlaydi. U zarur vaqtda istaklarini qurbon qilib, bolalar manfaati yo'lida extiyojlarini cheklashga tayyor turadi.

Ijtimoiy faollik va fuqarolik burchini anglash o'qituvchi shaxsiga xos sifat, zero xaqiqiy pedagog to'la ma'nodagi jamoatchi bo'lib, bolalarga xayotda ijtimoiy faol xolatda turishning amaliy namunasini ko'rsatadi.

O'qituvchining muxim fazilati-kishilar bilan tez el bo'la olish, ko'pchilikka aralasha bilish, ulfatijonlik, dilkashlik bo'lib, bu unda muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki o'qituvchiga xamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to'g'ri keladi. O'qituvchi ishidagi muvaffaqiyatni kundalik faoliyatida kattalar va bolalar, ayrim gurux va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyati ta'minlaydi.

Aloqalarda, faoliyatda duch kelinadigan turli xil voqealarga pedagogik qoidalar nuqtai nazaridan dogmatik munosabatda bo'lish emas, balki ularni o'z xolicha idrok etib, adolatli baxolash, munosabatda odil bo'lish o'qituvchining obro'sini oshiradi.

O'qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo'lsagina, odamlarga nisbatan mexribon, saxovatli bo'la oladi, uni xamma xurmat qiladi. Buning uchun ochiq ko'ngil, qat'iy bo'lishi, o'zini tuta bilishi, bardoshli bo'lishi kerak. Bolalarga nisbatan talabchan bo'lish bilan birga o'z shaxsiga tanqidiy nuqtai nazaridan qaray olishi kerak.

O'qituvchi odobi umuminsoniy axloqning kategoriyalari, qoidalari va normalarini ta'lim-tarbiyaga xos xususiyatlari bilan uyg'unlashtirib, pedagogning o'quvchilar, o'qituvchilar jamoasi, otanalar va jamoatchilik vakillari bilan munosabatida ifodalanadigan kasbiy-axloqiy xususiyatdir.

O'qituvchi pedagogik etikaning normalarini o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va xis etish, turmushda sinab ko'rish natijasida pedagogik etikaning qoidalari o'qituvchining o'z e'tiqodiga, intilishiga, o'z axloqiy sifatiga aylanadi.

Bu axloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarida, muomalasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik etika o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim axloqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida namoyon bo'ladi.

Pedagogik etikaning asosiy tushunchalari umuminsoniy axloq kategoriyalariga mos keladi va ularni o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq tarzda bir qadar aniqlaydi. Pedagogik etikada gumanizm, adolatlik, vijdonlilik, xalollik, yaxshilik qilish kabilar o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq ravishda taxlil qilinadi.

Axloq nazariyasida yaxshilik eng muxim kategoriya xisoblanadi. Yaxshilik-axloqiy ijobiy fazilat bo'lib, normativ etikaning idealini, individual axloqda ijobiy-xulqiy fazilatlarining mazmunini inson faoliyati yoki biror xatti-xarakteriga ijobiy munosabatning yig'indisini aks ettiradi. Yaxshilik – kishining ongi va axloqiy amaliyotida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligini aks ettirib jamiyat va shaxsga manfaat keltiradigan, ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan tushunchadir.

Pedagogik etikasida yaxshilik tushunchasi o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq xolda aniqlashtiriladi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi, ta'lim va tarbiyaning samarasi uchun kurashning birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati ikkala tomonning yaxshi niyatli xayrixox, mexribon bo'lishini taqazzo qiladi. Yaxshilik qaror topishi uchun yomonlikka

murosasiz bo'lish lozim. Yaxshi istak bilan xushmuomalalik, yaxshi qiliq, yaxshi xatti-xarakatning birligi zarur.

Shaxs axloqini karakterlaydigan belgilardan biri ma'suliyatdir. O'quvchining ma'suliyati–ma'suliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan xolda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini xam o'z ichiga oladi. O'quvchi zimmasiga bola shaxsini xar tomonlama kamol toptirish ma'suliyati yuklanadi. Muallim o'quvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni xayotga, mexnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy, axloqiy sifatlarni avaylab o'stirishi darkor.

Muallim sinifda (auditoriyada) jamiyatning vakili sifatida o'quvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining ma'suliyati uning xulqini tartibga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'quvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy me'zoni xisoblanadi.

Pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilar orasida obro' qozonadi. O'qituvchi qanchalik ko'proq obro' qozonsa, ta'lim va tarbiya moxiyatdan shunchalik muvaffaqiyatliroq bo'ladi va aksincha, o'qituvchining obro'i qanchalik past bo'lsa uning bolalarga ta'siri shuncha bo'sh va o'quvchilarni voyaga yetqazish jarayoni shuncha zaif bo'ladi.

O'qituvchi deyarli xar kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi ishlarini ma'qullaydi, bilimni baxolaydi, nojo'ya xatti-xarakatlari uchun tanbex beradi. Albatta o'qituvchining fikri, muloxazalarida nisbiylik, sub'ektivlik alomatlari mavjud. U xammaga aynan birdek juda to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin. Lekin u xamma o'quvchilarga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchaning ishonchi komil bo'lmog'i darkor. Sinifda o'qituvchi «yaxshi ko'radigan», «yomon ko'radigan» o'quvchilar bor degan taassurot tug'ilmasligi kerak.

Xullas, obro' o'qituvchilik faoliyati uchun zarur xususiyatdir. Obro' kishining chuqur bilimi, yuksak axloqiy sifatlari, xayot tajribasi, ilmiy tatqiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ta'siri, nufuzidir.

Pedagogik faoliyat o'z moxiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka extiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy moxiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni xal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishlarida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai-bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba-muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik xodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi krinishdagi o'quv jarayonni modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvoffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Xozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muxim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nixoyat o'quvchilarni xam ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishni talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish davomida omillarni to'playdi, taxlil qiladi, ular orasida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida xozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muxim fazilatlarini egallaydi.

Amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mashq/masala/ topshiriqlari to'plami

1-Seminar mavzusi: Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyliigi

Reja:

- 1.Ma'naviyat, madaniyat, marifat va maorif tushunchalariga izox berish
- 2.O'zbek pedagogikasida ma'rifiy (ta'limiy, tarbiyaviy va madaniy) qadriyatlar

3.Ma'rifiy fikrlarning tarixiyliigi. O'zbekiston xududida eng qadimgi davrdan to XIV asrgacha ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti

5.XIV-XVI asrlarda maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti

6.XVII -XX asrlarda maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti

2-Seminar mavzusi: O'quv faoliyatni tashkil qilish shakllari. Didaktika.

Reja:

1.Didaktikaga asos solgan olimlar

2.Didaktikani rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar

3.Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika"asari xaqida.

4.I.G.Pestalotssi va I.Gerberlarning didaktikaga qo'shgan xissalari.

3-Seminar mavzusi: Ta'lim berish usullari, shakllari va vositalari. Pedagogik texnologiyalar

Reja:

1.Zamonaviy ta'lim berish usullarining mohiyati va mazmuni.

2.An'anaviy o'qitishning zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'qitishdan o'ziga xos farqlari

3.Ta'limning interfaol usullari va vositalari.

4.Dars texnologiyasi.

4-Seminar mavzusi: Shaxs rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi

Reja:

1.Shaxs, inson, individ tushunchalariga izox bering.

2.Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar.

3.Shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari xamda jixatlari.

4.Shaxs rivojlanishida muxitning roli.

5.Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari.

6.Shaxsning ijtimoiylashuvi.

5-Seminar mavzusi: O'quv tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari. Oilada tarbiya asoslari

Reja:

1.Oila haqida tushuncha. Oila va islom. Donishmandlar oila haqida

2.Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, usul va vositalari.

3.Oila muammolari.

4. Tarbiya turlari.

6-Seminar mavzusi: Milliy pedagogika asoslari. Ma'rifiy qadriyatlar va maqsadlar. O'zbek pedagogikasida ma'rifiy qadriyatlar

7-Seminar mavzusi: Ma'rifiy tizimlarni boshqarish

Reja:

1.O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.

2.Ta'lim tizimiva turlari

3.Hozirgi davrda jahonda ta'lim tizimining ahvoli.

4.Ta'lim muassasasi menejmenti

5.Ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari.

8-Seminar mavzusi: Korreksion (maxsus) pedagogika

Reja:

- 1.Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati.
- 2.Korreksion pedagogikaning kategoriyalari
- 3.Anomalbolalar bilanishlash.
- 4.Korreksion pedagogikaning paydobo‘lishi.
- 5.Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari.

9-Seminar mavzusi: O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi islohotlar

Reja:

- 1.«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» xaqida.
- 2.Pedagogik faoliyat tuzilishi, pedagogik qobiliyat va maxorat.
- 4.O‘qituvchining kasbiy sifatlari
- 5.O‘z.R.Prezidenti Sh.M.Mirziyoev zamonaviy ta’lim tizimi xaqida.
- 6.Ta’lim tizimiga yangicha yondoshuv.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning namunaviy mavzulari:

- 1.Bilimlar - ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi.
- 2.Dunyoqarash va uning mohiyati.
- 3.Bilim va diniy e’tiqodning o‘zaro munosabati.
- 4.Pedagogik layoqat.
- 5.Akmeologiya va uning mohiyati.
- 6.Mutaxassisning pedagogik fazilatlar.
- 7.Qadriyatlar va ma’rifiy qadriyatlar.
- 8.O‘zbek pedagogikasida ma’rifiy qadriyatlar.
- 9.Ma’rifat va uning mohiyati.
- 10.Ma’rifat va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi.
- 11.Jahonda ma’rifiy fikrlar taraqqiyotining tarixiy-pedagogik tahlili.
- 12.O‘zbekiston hududida eng qadimgi davrdan XIV asrgacha ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.
- 13.XIV-XVI asrlarda maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.
- 14.XVII-XX asr boshlarida maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.
- 15.O‘zbekistonda 1917-1990 yillarda maorif va ma’rifiy fikrlar taraqqiyoti.
- 16.Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya (ayrim mamlakatlar misolida).
- 17.Pedagogikaning asosiy kategoriyalariva tushunchalari.
- 18.Pedagogikaning metodlari.
- 19.Pedagogikaning tarmoqlari.
- 20.Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.
- 21.Pedagogik tizimlar.
- 22.Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va ularning tavsifi.
- 23.Ta’lim nazariyalariva ularning turlari.
- 24.Aqliy hatti-harakatlar va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi.
- 25.Muammoli ta’lim nazariyasi.
- 26.Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi.
- 27.Dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasi.
- 28.Matnga asoslangan ta’lim nazariyasi.
- 29.Bilishning bixevioristik nazariyasi.
- 30.O‘zlashtirishning geshtalt nazariyasi.
- 31.Ta’limning suggestopedik konsepsiyasi.
- 32.Neyrolingvistik dasturlash asosidagi ta’lim nazariyasi.
- 33.Pedagogik antropologiya va uning asosiy qoidalari.
- 34.Pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati.
- 35.Pedagogik texnologiyalarning tuzilishi.
- 36.Metodika va texnologiya.
- 37.Ta’lim metodlari va ularning tasnifi.
- 38.Ta’lim vositalari.

39. Ta'lim shakllari.
40. Muammoli ta'lim texnologiyalari.
41. Muloqotli ta'lim texnologiyalari.
42. Modellashtirish texnologiyalari.
43. O'yinli texnologiyalar.
44. Pedagogik muloqot.
45. Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etish usullari.
46. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.
47. Pedagogik faoliyat funksiyalariva pedagog shaxsiga qo'yilgan talablar.
48. Pedagogik mahoratning mohiyatiga tuzilishi.
49. Pedagog fazilatlarining ijtimoiy va kasbiy shartlanganligi.
50. Pedagogik faoliyatdagijodiyot vainnovatsiya.
51. O'quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi.
52. Oila-pedagogik o'zaro munosabatlar, shaxs tarbiyasiva kamolotining sub'ekti.
53. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.
54. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirish.
55. Ta'lim jarayoni: o'qitish va o'qish.
56. Matnlar bilan ishlash usullari.
57. Ta'lim sifati.
58. O'quvchilar bilimni nazorat qilish - ta'lim sifatini baholashning asosiy unsuri.
59. Pedagogik nazorat va o'quvchilar o'zlashtirishini baholash xususiyatlari.
60. Baholash, uning funksiyalari va turlari.
61. Ta'lim sifatini nazorat qilishning mazmuni, shakllari, metodlariva turlari.
62. O'zlashtirishni nazorat qilish prinsiplariva metodlari.
63. Mukofotlash va jazolash - rag'batlantirish metodi sifatida.
64. Test usuli, uning yutuqlariva kamchiliklari.
65. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarish.
66. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari ta'lim tizimini boshqarish haqida.
67. Ta'lim tizimini boshqarish organlarining vakolatlari.
68. Ta'lim muassasasini boshqarish.
69. Ta'lim muassasalari attestatsiyasiva akkreditatsiyasi.
70. O'zbekistonda ta'limning rivojlanish istiqbollari.
71. O'zbekistonda ta'lim tizimini islox qilish.
72. O'z.R. Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ta'lim soxasiga oid ma'ruzalari.
73. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimiga zamonaviy yondoshuvlar.

“PEDAGOGIKA” FANI BO‘YICHA O‘QUV MATERIALLARI

1. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik // Prof.M.X.Toxtaxodjayeving umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010..
2. Mavlonova R va boshq. Pedagogika. – Toshkent, «O'qituvchi», 2001.
3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1 jild//Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil - T.: «O'qituvchi», 1995.; 2 jild //Tuzuvchi-mualliflar: S.Ochil, K.Hoshimov. – T.: «O'qituvchi», 1999.
4. Xasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M. Xasanboyeva O. N.Usmonov. Pedagogika fanidan izohli lug'at. -T.: "Fan va texnologiya", 2009.
5. Ma'naviyat yulduzlari. T.: 2001 y.
6. Maxsus pedagogika.
7. Umumiy pedagogika.
8. Ma'ruzalar matni.

Qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. /- T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. /- T.: “O‘zbekiston”, 2016. -56b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. /- T.: “O‘zbekiston”, 2017. -48b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. /- T.: “O‘zbekiston”, 2017. -488b.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruza. T.: “O‘zbekiston”, 2010. 12 noyabr.
6. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi (Tuzuvchi K.Xoshimov, Safo Ochil) T.: "O‘qituvchi", 1995.
7. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi - T.: Istiqlol, 2004.
8. Podlasiy I.P. Pedagogika I,II T. - M.: Vlado, 1999.
9. Xarlamov I.F. Pedagogika ~ M.: Gardariki, 2003.
10. Pedagogika. Pod red. P.I.Pidkasistogo - M.: 2003.
11. Oila ma‘naviyati. Safarov O., va bosh. T.: "Ma‘naviyat" 2009. 248 bet.
12. Ma‘naviyat yulduzlari. Tuzuvchi Xayrullaev M. T.: 2001. 408 bet.
13. Abdurasulov M. O‘zbek ma‘rifatparvar shoirlari ilm ma‘rifat xaqida. -T.: O‘qituvchi, 1981.
14. Lixachev B.T Pedagogika - M.: Yurayt, 1999.
15. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: "O‘qituvchi" 1993.
16. Abu Abdullox ibn Ismoil al-Buxoriy. "Al-adab al-mufrat" (Odab durdonalari)-T.: "O‘zbekiston", 1990.
17. Abu Muxammad ibn Iso at-Termiziy. "Ash-shamoilan-nabaviya". T.: Cho‘lpon, 1993.
18. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shaxri". T.: Xalq merosi nashriyoti. 1993.
19. Abu Rayxon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". Tanlangan asarlar.
19. Alikulov X., Omonboyev R. "Jomiy va Davoniy ta‘lim-tarbiya xaqida".-T.: O‘qituvchi, 1981.
20. Alisher Navoiy. "Maxbub ul-Qulub". Asarlar. O‘n besh tomlik. 13-tom. -T.: Adabiyot vasan‘at, 1996.
21. Axmedov A. Ulug‘bek Muxammad Tarag‘ay. T.: "Fan", 1991.
22. Imom Ismoil al-Buxoriy. "Al-jome‘ as-saxix" -T.: O‘zbekiston, 1991.
23. Kaykovus. Qobusnoma. T.: "Meros", 1992.
24. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. T.: "O‘qituvchi", 1975.
25. Ma‘naviyat darslari. Tuzuvchi: S.Nishonova.-T.: O‘qituvchi, 1994.
26. Usmanova M.N. Pedagogicheskoe testirovanie. T.: Adolat, 1995.
27. Xayrullaev M.M. Forobiy. T.: "O‘zbekiston", 1991.
28. Xamidov X - "Avesto" fayzlari. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
30. Yusuf Xos Xojib. Qutadqu bilig (so‘zboshi muallifi B.Tuxliev). - T.: Yulduzcha, 1990.
31. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
32. Shayusupova A.A., Xaydarova R.A. Pedagogika. Uchebno-metodicheskoe posobie. Toshkent. 2015.
33. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot - matbaa konserni, 1998.
34. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». T. 1997.
35. N.G‘aybullaev. Pedagogika. Ma‘ruzalar matni. T. 2000.

36. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. B.Xodiev, L.V.Golish. TDIU. T.2006 y.
37. I.Tursunov. Pedagogika kursi. T. 1997.
38. X.X.Tllashev. Obshchepedagogicheskie i didakticheskie idei uchyonix ensiklopedistov Blijnego i Srednego Vostoka epoxi srednevekovya. T. 1989.
- 39.«O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida»gi Nizom. Xalq ta'limi. J., № 6, 1999.
- 40.«Umumiy o'rta ta'lim maktabi Pedagogika Kengashi to'g'risida»gi Nizom. Ta'lim taraqqiyoti. J., № 3, 2002.
- 41.«Umumiy o'rta ta'lim maktabi Metodika Kengashi to'g'risida»gi Nizom. Ta'lim taraqqiyoti. J., № 3, 2002.
- 42.Umumiy o'rta ta'lim maktabi fan Metodika birlashmalari to'g'risida»gi Nizom. Ta'lim taraqqiyoti. J., № 3, 2002.
- 43.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimi boshqaruv organlari va o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlari attestatsiyasi to'g'risida»gi Nizom. Ma'rifat G., 2004 yil, 16 oktabr.
- 44.O merax po organizasii srednego specialnogo professionalnogo obrazovaniya v Respublike Uzbekistane. Ot 13 maya 1998 g. Uchitel Uzbekistana. 1998 god, 16 maya.
45. Pedagogik texnologiyalar. A.Mavlyanov, va boshq. OO'MKHTRM. T.2009 y.
46. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. B.H.Raxmonov. va boshq. OO'MKHTRM. T.2009 y.
47. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O.Tolipov va boshq.T. "Fan" nashriyoti. 2006 y.
- 48.Saydaxmedov. N. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya.T: 2007
- 49.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –Toshkent, Ma'naviyat, 1998.

GLOSSARIY

Akademik litsey - o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Akademiya - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Amaliy ishlar usuli – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Anomaliya (yunoncha – anomal) - me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish- korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Axloq (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong – shaxs axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baynalminallik («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio» – xalq)– o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.

Bakalavriyat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bashoratlash - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Baho – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

BMK – bilimlar, mahorat, ko'nikmalar.

Bilimlar – ushbu predmetni nazariy o'zlashtirishda ifodalanadigan inson g'oyalarining yig'indisi.

Boshlang'ich ta'lim - o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.

Davlat ramzlari - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

Dars berish – ta'lim oluvchilarga bilimlar, mahorat va ko'nikmalar (BMK) yig'indisini ma'lum qilishga va ularni o'quv jarayonida tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim beruvchining maxsus faoliyati. O'qish faoliyatini boshqarish dars berish predmeti hisoblanadi.

Darslik – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) – (yunoncha «didaktikos» “o'rgatuvchi”, «didasko» – “o'rganuvchi”) - ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) –ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tashhis maqsadi – o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimai bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari – jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi - jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

Jamoaning rasmiy tuzilishi - turli ko'rinishdagi jamoa faoliyatini yo'lga qo'yishning tashkiliy jihatlari.

Jinsiy tarbiya - o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya - o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Joriy nazorat – ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha adapto - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Ijtimoiy rehabilitatsiya (yunoncha rehabilitas – layoqati, qobiliyatini tiklash) - anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya.

Individ (lotincha "individuum" bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Institut - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilalar byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta'lim - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oilalar byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» - «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri olib bish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Kasb-hunar kolleji - o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Kategoriya - fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) - oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurish.

Korreksiya (yunoncha «correctio» - tuzatish) - pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha «defectus» – nuqson, kamchilik, «logos» – fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Korreksion-pedagogik faoliyat - yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar - shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi.

Ko'nikmalar – avtomatik darajagacha, mukammallikning yuqori darajasigacha yetkazilgan mahorat.

Ko'rgazmali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Litsey (kollejda) ma'ruza – o'quv materialini o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish usublari bilan birgalikda davomli og'zaki bayon etish (80-90 minut), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyiha ko'rinishida yozib olish) va boshqalar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Logopediya (yunoncha «logos» – so'z, nazariya, ta'limot, «paideia» -tarbiyalash) - nutqiy nuqsonlarni o'rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to'liq tuzatish masalalarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Maqsad (o'qish, ta'lim) - ta'lim unga intiladi, uning kuchlari yo'naltirilgan kelajak.

Mazmun (o'qitish, maorif) - o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar egallashi zarur bo'lgan ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalar, faoliyat va tafakkur usullarining tizimi.

Maktabgacha ta'lim - bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Maktabdan tashqari ta'lim - madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Mahorat – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash usullarini (yo'llarini, harakatlarini) egallash.

Materialni og'zaki bayon qilish metodlari – o'quv materiali mohiyatini ozg'aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Mafkura (arabcha «mafkura» - naqta nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek,

ma'naviy-axloqiy yuksaklash, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalari tizimi.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari - muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalari majmui.

Ma'rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

Menejment – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metod - yunoncha tarjimasida «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Nazorat (ta'lim jarayonida) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

Nafosat didi - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi.

Nafosat madaniyati - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Nafosat ongi - go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Oligofreniya (yunoncha «olygos» – kam, «phren» - aql) - bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oliy ta'lim - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta'lim bosqichi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim - jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta'lim bosqichi.

Oraliq nazorat – o'quvchilar tomonidan o'quv materialining muayyan bob yoki bo'limlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogika tarixi – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami; ta'limning konseptual modeli.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik texnologiya – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi – o'qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatuvchi to'garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi.

Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi fan; korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tashhis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim beruvchilar – o'qituvchilar, pedagoglar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari.

Ta'lim oluvchilar – o'quvchi, talaba, tinglovchi, ya'ni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi o'quv muassasasida mashg'ulotlarga qatnashuvchi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokozolar) omillar.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim menejeri – ta'lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta'lim usuli (lotinchadan methods - yo'l, usul) – belgilangan vazifa bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining bir-biri bilan bog'liq faoliyatini tartiblashgan usuli.

Ta'lim muassasi Ustavi – ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta'lim konsepsiyalari (lotin tilidan «conceptio» –tizim) – ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Natijalar (ta'lim ko'rsatkichlari) – ta'lim shunga erishadi, o'quv jarayonining yakuniy oqibatlari, ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirish darajasi.

Ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash masalalarini o'rganadi.

Ta'limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) - o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

Ta'lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Ta'limni tashkil qilish shakli (lotinchadan forta - tashqi ko'rinish, qobiq), avvalombor, o'quv jarayonini yashash usuli bilan bog'liq: ta'lim oluvchilarning soni, o'qitish vaqti va joyi bilan: ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini tashqi ko'rinishi bilan: frontal yoki individual ish, guruhlardagi ish bilan bog'liq.

Tiflopedagogika - (yunoncha typhlos – ko'r) – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Test - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Topshiriq - o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuntirish - o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To'garak - o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

Umumiy o'rta ta'lim - o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Universitet - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Usul - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya - o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik ta'lim - o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

Ekologik faoliyat - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

E'tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

Yakuniy nazorat – ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o'quv materiallari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

O'z-o'zini baholash - mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari - o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish - o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

O'zlashtirish – ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O'rgatish - tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O'qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

O'qish – ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni; o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.

O'qitish - qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim beruvchini ta'lim oluvchi bilan tartibli o'zaro harakati. O'qitish, ikkita bir-biri bilan uzluksiz bog'liq hodisalardan iborat: dars berish va o'qishdan.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'quv rejasi – ta'lim muassasida o'qitiladigan o'quv fanlarining tartibi, ularning o'quv yili bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o'quv soatlari, shuningdek, o'quv yili tuzilishini belgilovchi me'yoriy hujjat.

O'quv fani – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manba.

O'quvchilar jamoasi – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhi.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi - o'quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

O'quv qo'llanmasi – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Hisobga olish – ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.
